

“RESEARCH AND EDUCATION”
Scientific Research Center

INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING

2022/5

ISSN: 2181-3191

International
Scientific
Conference

15 APRIL
2022 YEAR

UZBEKISTAN, TASHKENT

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX

“RESEARCH AND EDUCATION” Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/5”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик, қарақалпақ

**UZBEKISTAN, TASHKENT
2022/ APRIL 15**



<http://researchedu.org/>



ВВЕДЕНИЕ ТЕМЫ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА В ЛИТЕРАТУРУ ПО ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Хўжамова М.Т.

Каршинский инженерно – экономический институт, ассистент

Аннотация. В этой статье обсуждается важность науки об изменении климата. Отдельно дается содержание лекций спецкурса по изменению климата. Они состоят из семи основных лекций.

Ключовые слова. Климат, гидрологии суши, жизнь, природный ресурс, парниковый эффект, мезоклимат, микроклимат, атмосфера, погода.

Известно, что климат исключительно важен для поддержания жизни на Земле и его изменения оказывают непосредственное и глубокое воздействие на жизнедеятельность людей, продовольственную безопасность и, в конечном итоге, на устойчивое развитие общества. Степень и продолжительность потепления в конце XX века и в первом десятилетии XXI века была большей, чем за весь период инструментальных наблюдений (Чуб В.Е. и др., 2005, 2007). Это указывает на важность систематического изучения климата Земли, особенно, как его изменчивости по годам, так и изменения за многолетний период.

Основной **целью** СК является ознакомление студентов высших учебных заведений РУз с вопросами изменения климата (ИК), его последствиями, климатическими рисками и проблемами их управления.

Весь материал специального курса разделен на 12 лекционных, 6 семинарских занятий. Каждое лекционное и семинарское занятие рассчитано на 2 часа. В программе также предусмотрено проведение ознакомительной

практики в объеме 6 часов. Таким образом, общий объем усвоения материалов специального курса составляет 42 часа.

Ниже будет представлена структура каждого вида занятий.

I. Содержание лекционных занятий специального курса.

1-лекция. Введение в специальный курс (СК). Цель и задачи СК Связь СК с климатологией, метеорологией и другими естественными и гуманитарными дисциплинами. Основные источники информации. Климат, жизнь и деятельность человека. Климат как природный ресурс. Краткие сведения об ИК. Природные катастрофы, связанные с ИК. О важности изучения и прогноза ИК. О международных действиях по ИК. Учреждение Межправительственной группы экспертов по ИК (МГЭИК). Рамочная Конвенция ООН об ИК. Конференции Сторон (КС). Киотский протокол и др. Национальные действия по ИК. Деятельность Узгидромета при МЧС РУз по ИК. Подготовка Национальных сообщений по ИК.

2-лекция. Общие сведения о климате. Основные определения и понятия. Геосферы. Атмосфера, погода, климат. Климатическая система. Глобальный и локальный климат. Мезоклимат и микроклимат. Климатообразующие факторы и процессы. Естественные климатообразующие факторы: астрономические, внешние геофизические, внутренние геофизические. Радиационные, географические и циркуляционные факторы. Центры действия атмосферы, климатологические фронты. Климатические пояса. Климатообразующие процессы. Теория климата – как основа предвидения его изменения. Математические модели климатической системы. 1-модель климата М.И. Будыко. Уравнение теплового баланса Земли. Учет парникового эффекта атмосферы. Эмпирическая формула М.И.Будыко. Энергобалансовая модель климата М.И.Будыко. Сложные энергобалансовые модели. Глобальные циркуляционные модели.

3-лекция. Парниковый эффект и климат. Механизм парникового эффекта: приток солнечной энергии, инфракрасное излучение. Парниковые

газы: водяной пар, диоксид углерода, озон, метан, закись азота, галоидуглероды и другие. Хлорфторуглероды, гидрофторуглероды, перфторуглероды. Усиленный парниковый эффект. Парниковые газы и аэрозоли. Парниковые газы естественного происхождения. Парниковые газы антропогенного происхождения. Источники парниковых газов. Стоки парниковых газов. Аэрозоли и их источники. Изменение уровня парниковых газов и климат будущего. Выбросы парниковых газов в будущем. Сценарии будущих выбросов. Сюжетные линии. Будущие концентрации парниковых газов и аэрозолей. Сценарии, подразумевающие «меры вмешательства». Стабилизация или сокращение выбросов. Региональные и сезонные прогнозы температуры. О задерживающем эффекте океанов.

4-лекция. Изменение климата и определяющие его факторы.

Исторические сведения об ИК. Естественное ИК Земли. Временные шкалы изменения составляющих климатической системы. Важность знаний о естественном ИК в прошлом. Систематические данные о глобальной температуре. Исследования более ранних климатических условий. Воссоздание климатических условий в прошлом. Определяющие факторы изменения климата. Факторы изменения глобального климата: астрономические, географические, антропогенные. Теории, объясняющие причины климатических изменений: изменения солнечной активности и светимости Солнца; изменения параметров орбиты Земли или скорости ее вращения; усиление или ослабление вулканической активности; изменение газового состава атмосферы и другие.

5-лекция. Сценарии изменения климата. Сценарии (модели) ИК в глобальном масштабе. Климатические сценарии и их определения. Методы составления климатических сценариев: искусственные, аналоговые; модели общей циркуляции атмосферы и океана. Совмещенные климатические модели «атмосфера-океан». Сценарии МГЭИК. Модели изменения глобального климата, основанные на общей циркуляции атмосферы: CGCM1-TR, CSIRO-

TR, ECHAM4, HadCM3, CCSR-NIES, GFDL-TR. Интерпретация климатических сценариев для территории Узбекистана. Особенности региональных климатических сценариев. Сценарии ИК Узбекистана, разработанные в НИГМИ. Составной аналоговый сценарий и его варианты. Аналоги процесса потепления. Меры потепления. Уменьшение неопределенности региональных климатических сценариев путем осреднения выходных результатов ряда глобальных моделей хорошо описывающих региональный климат. Интерпретация сценариев изменения глобального климата для условий Узбекистана и сопредельных территорий.

6-лекция. Последствия изменения климата. Последствия ИК в глобальном масштабе. Прогнозы изменения глобальной температуры к 2100 году. Результаты потепления: таяние полярных льдов; повышение уровня мирового океана. Региональные и сезонные прогнозы. Прогнозы атмосферных осадков. Частота и интенсивность экстремальных погодных явлений. Об ИК в XXI веке. Наиболее неблагоприятные последствия изменения глобального климата в будущем. Потенциальные выгоды ИК. Последствия ИК в Узбекистане и сопредельных территориях. Изменения даты переходов температуры воздуха через 5, 10, 15⁰ С весной и осенью. Оценка изменения термических ресурсов горной зоны Узбекистана. Оценка возможных изменений водного режима рек бассейна Аральского моря.

7-лекция. Международные ответные действия по ИК. Начало международных ответных действий. Стокгольмская декларация (1972 г.) и I Всемирная конференция по климату (1979). Межправительственной группы экспертов по изменению климата (МГЭИК). Задачи МГЭИК. Конференции Сторон. Рамочная Конвенция ООН об изменении климата. Первый оценочный доклад МГЭИК об изменении климата. Призыв Генеральной Ассамблеи ООН всем правительствам мира (декабрь, 1989 г.). Формирование Межправительственного переговорного комитета по Рамочной Конвенции об ИК (декабрь 1990 г.). Переговоры по Конвенции: точки зрения и взгляды различных стран.

Принятие Рамочной Конвенции ООН об изменении климата (Рио-де-Жанейро, 9 мая 1992 г.). Стороны Конвенции: Стороны Приложения I; Стороны Приложения II; Страны с переходной экономикой; Стороны, не включенные в Приложение I. Конференция Сторон. Статус Конференции Сторон (КС). Вспомогательные органы КС: вспомогательные органы для консультирования по научным и техническим аспектам (SBSTA) и по осуществлению (SBI). Функция первого вспомогательного органа, функция второго вспомогательного органа. Другие уполномоченные органы РКИК. Киотский протокол и Марракешские соглашения. О необходимости Киотского протокола.

Литература:

1. Агальцева Н.А., Рахматова Н.И. Засуха в Узбекистане: проблемы, раннее предупреждение и смягчение последствий //Экологический вестник.-Ташкент, 2012-с.23-27.
2. Будыко М.И. Антропогенные изменения климата –Л.: Гидрометеиздат, 1987 – с. 405.
3. Осомкова Т.А., Хикматов Ф.Х., Чуб В.Е. Изменение климата. – Ташкент: НИГМИ, 2005.-40с.
5. <http://www.avesta.tj>
6. <http://www.astronet.ru>



BEHI, UNING XUSUSIYATLARI VA TABOBATDAGI AHAMIYATI

Nuraliyeva Farangiz Baxtiyor qizi,

G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan hisoblangan mevachilik haqida yoritilgan. Mevali ekinlar orasida keng tarqalgan behining madaniylashtirish tarixi, mevasi, sharbati va barglarining inson salomatligidagi ahamiyati keltirilgan. Behining tarkibidagi vitaminlar, makroelementlar, mikroelementlar miqdorlari, O‘zbekistondagi mahalliy navlari, shifo bo‘ladigan kasalliklar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mevachilik, behi, organik kislotalar, vitaminlar, makroelementlar, mikroelementlar, kasalliklar, navlar.

Mevachilik qishloq xo‘jaligining eng qadimiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Mevali daraxtlar haqidagi dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi V asrdanoq uchraydi. Mevachilik mahsulotlari milodiy X asrdan boshlab tovar xususiyatiga ega bo‘la boshlagan. Chunki ana o‘sha vaqtdan boshlab qo‘shni mamlakatlar bilan meva va meva mahsulotlari savdosi o‘rnatilgan. XIX asrga kelib mevachilik qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari orasida salmoqli o‘rin egallaydi.

Markaziy Osiyo ,jumladan, O‘zbekiston hududida ko‘pgina qishloq xo‘jalik meva ekinlarining kelib chiqishi markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan bu hududda o‘rik, qaroli, olma, nok, behi, gilos, pista, bodom, uzum kabi mevali ekinlarning qimmatli mahalliy navlari saqlanib qolgan.¹

Mevachilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati benihoya katta. Meva va rezavor mevalar tarkibida odam organizmi uchun zarur bo‘lgan shakar, organik

kislotalar, oqsillar, yog‘lar, oshlovchi, pektin, aromatik moddalar kolloidlar, mineral tuzlar, fermentlar va vitaminlar mavjud.

Mevalar xushta‘mliги ovqat hazm bo‘lishiga yordam beradi. Ko‘p mevalar shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lib, organizmning himoya kuchini saqlaydi va mustahkamlaydi. Meva va rezavor mevalardan konserva murabbo, pastila, povidlo, sharbatlar hamda vinolar tayyorlanadi. Ularning ko‘pchiligi quritilib, ajoyib quruq meva mahsulotlari turshak, qoqi va boshqalar tayyorlanadi. Bu xildagi quritilgan mevalarni uzoq vaqt saqlash mazasi va to‘yimlilik sifatiga jiddiy zarar yetkazmagan holda uzoq joylarga olib borish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi jon boshiga kuniga kamida 330-400 gr yoki yiliga 115-120 kg meva shundan 15 kg uzum va 10 kg miqdorida rezavor mevalar yetishtirilishi kerak. Bizga ma‘lumki barcha mevalar inson salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi (albatta me‘yorida iste‘mol qilinganida).

Shu jumladan, behi mevasi ham foydalidir. Behi eng qadimiy o‘simlik bo‘lib, ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi behi Eronning shimoliy tumanlaridan keltirilgan deb ta‘kidlanadi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan behi tarkibida 75-84% suv, 8,5-15% shakar, 0,2-1,5 % organik kislotalar olma va limon kislotalar, 0,2-1,0 % pektin, 0,4-0,7% oshlovchi moddalar bor. Mevasi dag‘al bo‘ladi. Uzoq saqlanganidan keyin tosh hujayralari yumshab qoladi. Behidan xushta‘m murabbo, jem, kompotlar tayyorlanadi.²

Behi daraxtining bo‘yi 1,5 m dan 8 m gacha yetadi. Erta hosilga kirib 35-45 yilgacha mo‘l hosil beradi. Behining quyidagi navlari: **Quva yirik behisi, Nok behi, Shirin nordon, Izobilnaya, Samarqand yirik behisi** va boshqa navlari bor.

Quva yirik behisi kech pishar, konservabop nav. Mevasi yirik noksimon, o‘rtacha vazni 250-300 gr. Eti och sariq, o‘rtacha tig‘iz, sersuv, xushbo‘y, nordon shirin, xushxo‘r. Mevasi oktabrda teriladi, kelgusi yil yanvargacha yaxshi saqlanadi.

Nok behi mahalliy nav bo‘lib, ko‘chati ekilgandan keyin 4-yilda hosilga kiradi. Mevasi sentabrning oxiri oktabrning boshlarida teriladi, yirik olmasimon

po‘sti uzish vaqtida yashil, sarg‘ish, eti och sariq, o‘rtacha suvli, xushbo‘y, mazasi shirin, yanvar oyigacha saqlanadi.

Samarqand yirik behisining daraxtlari o‘rtacha balandlikda o‘sadi. Shox-shabbasi o‘rtacha tarvaqaylangan sovuqqa chidamli. Ko‘chati ekilganidan keyin 5-6 yilda hosilga kiradi. Mevasi noksimon shakilda, usti g‘adir-budur, eti och sariq, donador, biroz dag‘al, mazasi shirin, nordon, o‘rtacha suvli, xushbo‘y hidli. Mevasi oktabrning birinchi yarmida uziladi, noyabrning boshlarida yeyish mumkin bo‘ladi. Fevral boshigacha yaxshi saqlanadi. Tashishga chidamli. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Surxandaryo viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.

Behi yetishtirish bo‘yicha dunyoda Turkiya yetakchi o‘rinni egallaydi. Behi daraxti uzoq vaqt suvsiz yashay oladi. Bitta behining vazni 2 kg gacha yetishi mumkin. Behi mevasi donagi va barglari tibbiyotda keng qo‘llaniladi.

Yaqin sharqda behi urug‘ini qaynatib, undan angina, oshqozon yarasi, tamoq og‘rig‘iga qarshi dori sifatida foydalanishadi. Behi mevasi asabni tinchlantiradi. Ayniqsa, bolalarda tushkunlik holati kuzatilsa, ushbu mevedan va sharbatidan ko‘proq iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Chunki behi kishini stressdan qutqarib, kuch bag‘ishlaydi. Bitta behining ichini o‘yib, 1-2 oshqoshiq asal solib, qasqonda bug‘da pishirib tanovul qilinganda gripp, shammollash va yo‘talda juda ham foydali. Kuniga 100 gr behi mevasidan iste‘mol qilish kamqonlikda foydali, yurak xastaliklarini oldini oladi. Behi daraxtining barglaridan tayyorlangan damlama bronxila astmada anchagina naf beradi.

Behi faqat tabobatda emas kosmetologiyada ham keng qo‘llaniladi. Masalan, behi bargi yoki urugi qaynatilgan suvda sochlarini chayish qazg‘oqlardan xalos etadi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino me‘da–oshqozon faoliyati buzilganda behi mevasi sharbatini asal va sirka qo‘shib oshqozonni quvvatlantirish va zaif jigarni davolash maqsadida iste‘mol qilishni tavsiya etgan.³

Xulosa qilib aytganda tabiatimizning ne‘matlaridan unumli foydalansak, bizga dorixonadagi qimmat dorilar emas tabiiy o‘stirilgan mevalarimiz ko‘proq foydalidir. Shunday ekan mevalar tarkibini o‘rganish orqali organizmimiz uchun

foydali mevalarni tanovul qilish orqali imunitetimizni mustahkamlaymiz.Zero sog‘lom tanda –sog‘ aql.

Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati

1.I.Ergashev Meva va rezavor meva ekinlari seleksiyasi va navshunosligidan amaliy mashg‘ulotlar

2.T.E.Ostonoqulov, S.X.Narziyeva B.X. G‘ulomov Mevachilik asoslari

3.Ziyonet.uz va internet ma`lumotlaridan foydalanildi.



BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

Abduraxmanova Mexri Gapparbekovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
magistranti

Annotatsiya

Ushbu risolada bulutli texnologiyalar bilan ishlash bir qancha masala va muammolari, uning asosiy turlari, shu jumladan, bir konkret misol sifatida hozirgi paytda keng miqyosda qo'llanilayotgan Microsoft Cloud bulutli platformasi opsiyalari imkoniyat doirasida yoritilib berilgan. Risolada bir qancha bulutli platformalar tahlil qilinib, bizning nazarimizda ularning ichdan faoliyati va qamrab olinishi bo'yicha eng innovatsion platforma sifatidagi Microsoft Cloudning tarkibiy qismlari va ulardan foydalanish tavsif etilib berilgan.

Kalit so'zlar: bulut, Microsoft Cloud, platforma, 3D-model, sun'iy intellekt, texnologiya, robototexnika, innovatsiya, virtual, sinergiya, fluktuatsiya.

KIRISH

Mana bir yarim yildirki (Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra) butun dunyoni qiynayotgan “Pandemiya” ko'pgina sohalarni rivojlanishini izdan chiqardi. Shular qatori ta'lim sohasini ham. Bu yana qancha davom etadi hali noma'lum. Qat'iy karantinlar ko'pchilik insonlarni turli xil gadjetlarga, messenjirlarga, raqamli texnologiyalarga bog'lab qo'ydi. Ya'ni ta'lim olmoqchi bo'lganlarni uydan chiqmasdan masofadan o'qishga, bilim, ilm, ko'nikma olishga majbur qilib qo'ydi va qaysidir ma'noda masofadan ta'limni boshqarish, ta'limni tashkil etish tezlashib ketishiga olib keldi. Buni amalga oshirish uchun turli xil platformalar yaratildi, mavjudlaridan umumli foydalanishga turli ishlanmalar, mavjud imkoniyatlarni tadbiq qilishga taqozo qildi. Bulutli texnologiyalardan har kuni juda

ko‘p foydalanamiz, go‘yoki kunimizni juda ko‘p vaqtini shu “Bulutli texnologiyalar” taqdim etayotgan imkoniyatlarga bog‘lagandekmiz, ya‘ni turli xil xabarlar, o‘zaro muloqotlar, matn, ovozli hattoki video muloqotni, turli ko‘rinishdagi (matn, grafik, video va hakazo) ma‘lumotlarni bulutli texnologiyalar vositasida almashinamiz. Demak, maqsadimiz ushbu bulutli texnologiyalar yordami bilan yuqorida aytilgan ilm, bilim, qaysidir ma‘noda ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirish va buni amalga oshiruvchi xizmat turidan foydalanishni yoritishdan iborat. Belgilab olingan maqsaddan kelib chiqqan holda ushbu risolada quyidagilarni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz:

- Bulutli texnologiyalarning mazmun - mohiyatini ta‘lim jarayoni uchun yetarli miqyosda yoritish;
- Foydalanuvchilarni masofadan turib o‘qitishida bulutli texnologiyalar platformasi imkoniyatlaridan foydalana olishining usul va vositalari;
- O‘zbekistonda ta‘lim tizimiga Microsoft Cloud bulutli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish jarayonlarini o‘rganish;
- Ta‘lim jarayonida Microsoft Cloud bulutli ta‘lim texnologiyalarini tadbiq qilishning zamonaviy xorij tajribalarini tahlil qilish;
- Microsoft Cloud platformalari mavzusi bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash usullarini yoritish.

Taniqli bulutli hizmatlardan biri bo‘lib tanilgan Microsoft Cloud dasturiy mahsuloti Platforma sifatidagi xizmat (Platform as a Service – PaaS) bo‘lib, u foydalanuvchiga ilovalarni xizmatlar to‘plami sifatida (yaratilgan yoki sotib olingan) taqdim etuvchi xizmat ko‘rsatish bulutli modelidir. Xususan, bu platforma xizmatlar sifatida oraliq dasturiy ta‘minot, xabarlar almashish, integratsiya, axborotlar saqlash, aloqa va shu kabi boshqa xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, xizmat sifatida ish joyi (Workplace as a Service – WaaS), ma‘lumotlar (Data as a Service – DaaS), xavfsizlik (Security as a Service – SaaS) kabilar taqdim etilishi mumkin. Bu haqda bir qancha ilmiy adabiyotlarda yetarli holda ma‘lumotlar berilgan, shu jumladan, taniqli xorijlik mutaxassislar ham bu mavzuni e‘tibordan chetda qoldirmaganlar.

Mamlakatimiz rahbarlari ham ushbu sohani rivojlantirish va uni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish bo'yicha bir qancha qonun, farmon va qarorlar chiqarganlar. Standart va texnologiyalar milliy institutining (NIST - National Institute of Standards and Technology, USA) “The NIST Definition of Cloud Computing” nomli hujjatida informatsion bulutlarning quyidagi tasniflari aniqlab berilgan:

- talab bo'yicha o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish (On-demand self-service);
- keng yo'lakli kirish imkoniyati (Broad network access);
- resurslarni birlashtirish (Resource pooling);
- tezkor elastic holat (Rapid elasticity);
- o'lchovli servis (Measured service);

Tarmoq standartlari nuqtai - nazaridan platformalarning faoliyati tahlil qilingan ilmiy izlanishlarga Nobel mukofoti laureati Jan Tirolning “Platform Competition in Two-Side Markets” maqolasi misol bo'la oladi. Keyinchalik O.Gassman va boshqa mutaxassislar “ikki tomonlama bozor” turidagi platformalarning faoliyat ko'rsatish modelini menejment nuqtai - nazaridan tavsiflab berdilar. Ularning fikricha, bunday modelni ilk bora yuz yillar avval birjalar ishlatganlar. Hozirgi zamonda esa “ikki tomonlama bozor” turidagi modellarning juda ko'p turlari mavjud va ular bilvosita tarmoq effektini ta'minlab beradilar. Misol sifatida kredit kartalarini (VISA va Master Card), savdo markazlarini, onlayn savdo maydonlarini, chegirmalar platformasini Groupon, reklama hisobiga nashr qilinadigan gazetalarni va boshqalarni keltirish mumkin. Bu holda platforma – ma'lum bir sohaga mansub bo'lgan biznesning modeli bo'lib, u qandaydir kompleks asosida bir - biriga bog'liq bo'lmagan guruhlar orasida ma'lumot almashinishni ta'minlab beradi. Bunday platformalarni ba'zida “toza platformalar” deb ham ataladi (masalan, YouTube va VISA). Platformalar asosida amalga oshiriladigan biznes an'anaviy bir o'lchamli yoki chiziqli biznesdan farqli ravishda, ko'p o'lchamli bo'lib qoladi, bunday platformalarni tashkil qiladigan kompaniyalarni esa katalizator - kompaniyalar deb nomlanadi. Chunki platformalardan foydalanish tufayli, yangi ma'lumotlar ikki yoki

undan ortiq bir - biriga bog‘liq bo‘lgan iste‘molchilar guruhi orasidagi o‘ziga hos katalitik reaksiya natijasida hosil bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar haqida tushuncha va uning tarixi.

Raqamli iqtisodiyot tayanadigan asosiy texnologiyalardan biri bu – buyumlar internetidir (IoT – Internet of Things). Ya‘ni, ko‘plab maishiy uskunalari elektr tarmog‘iga ulanganligi odatiy, lekin bular ikkinchi darajali hisoblanadi. Moddiy dunyoning tobora ko‘plab ob‘ektlari internetga ulanmoqda, bu esa axborot to‘plash va hatto bu ob‘ektlarni masofadan turib boshqarishni ham ta‘minlamoqda. Amalda internetda tashqi dunyo va ob‘ektning turli ko‘rsatkichlaridan iborat bo‘lgan moddiy ob‘ektning virtual nusxasi paydo bo‘lib, ushbu ob‘ektning internet orqali boshqarishga imkon bermoqda. Buyumlar internetiga misol qilib, masalan, texnik yordam hizmatida aniqlangan buzilishlar va rejadan tashqari ta‘mirlash doirasida almashtirish lozim bo‘lgan ehtiyot qismlar ro‘yxatini yuboradigan virtual ma‘lumotlar uzatish tizimini keltirib o‘tish mumkin. Buyumlar internet sohasi rivojlanishining keying bosqichida buyumlarning nafaqat odam bilan, balki o‘zaro aloqa qilishi mumkinligi ham hisoblanadi, bu konveyerli liniyalarda, texnik ta‘mirlash tizimlarida, logistika va boshqa ko‘plab biznes sohalarida avtomatlashtirilgan o‘zaro aloqalarga erishish imkonini beradi. Lekin hali yechimini kutib turgan masalalar ham bor, chunonchi: elektr energiyasini minimal tarzda iste‘mol qiladigan elektronika, shuningdek, buyumlarning o‘zaro aloqa qilishi uchun yangi aloqa standartlarini yaratish. Raqamlashtirish bilan bog‘liq yana bir innovatsion yo‘nalish bu – to‘ldirilgan reallikdir (Augmented Reality, AR). Real dunyoga virtual dunyo ob‘ektlarini qo‘shishga imkon beradigan to‘ldirilgan reallik texnologiyasi eng istiqbolli texnologiyalardan biri hisoblanadi. Tasavvur qiling, ko‘chada ketayotib, yoningizda bo‘lgan odamlar va ob‘ektlar haqida qo‘shimcha axborot ko‘rasiz. To‘ldirilgan reallikka misollar mavjud bo‘lib, ular hayotda faol qo‘llanmoqda.

Masalan, Moskvadagi ayrim parklarda moddiy dunyo ob‘ektining virtual dunyo ob‘ektiga bog‘langanini ko‘rsatadigan belgilarni uchratish mumkin. To‘ldirilgan reallik elementlari bo‘lgan o‘yinlar faol tarqalmoqda, magazinlarda

virtual ko‘zgular va kiyimlar kiyib ko‘rish xonalari mavjud, to‘ldirilgan reallik avtomobillarda ham sinab ko‘rilmogda. Biznesda virtual reallik texnologiyalari u qadar faol qo‘llanilmaydi, u yerda hozir 3D-modellashtirish texnologiyalariga talab kuchliroqdir. Real dunyoning raqamli 3D-modellarini tuzishga misollar servis sohasi korxonalari, qurilish kompaniyalari, murakkab texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar, neft qazib chiqarish va boshqa tarmoqlar hisoblanadi. 3D-modellashtirish doirasida nafaqat ob’ektlar modellarini tuzish haqida, balki ularni ma’lumotlar bilan to‘ldirish haqida ham gapirish mumkin bo‘lib, bu o‘z navbatida, boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonini optimallashtirishga va oqibatda mahsulotlarni loyihalashtirish vositalarini ularni ishlab chiqarish vositalari bilan bog‘lashga imkon beradi. Shu bilan bir paytda, virtual reallik texnologiyalarini ommaviy joriy qilish yo‘lida insonning virtual reallikdagi yanada haqqoniyroq ishtirokini ta’minlaydigan uskunalarning yangi avlodlarida virtual dunyoni aks ettirishning realligini yanada oshirishni ta’minlash kerak bo‘ladi. Shubhasizki, raqamli iqtisodiyot robototexnika bilan ham chambarchas bog‘liq. Robotlarning insonlar hayotidagi ishtiroki fantastlar tomonidan ko‘p marta muhokama qilingan, lekin hozirda robotlar bizning real hayotimizga ham tezkorlik bilan va bevosita kirib kelmoqda. Odamlar ishlab chiqarishda bajaradigan oddiy funksiyalarni robotlar bajarishi xatolar sonini ancha kamaytirish hamda ishlarning bajarish tezligini oshirishga imkon beradi. Sir emaski, ko‘plab sanoat kompaniyalari yig‘uv liniyalari va logistikada robototexnikani faol qo‘llaydi, bu inson omilining ahamiyatini pasaytirish va ishga minimal sondagi odamlarni jalb qilishga imkon beradi. Sanoat robotlari qiymatini (bahosini) pasaytirish ularni qo‘llashdan iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini yaratadi va odamlarga amalda qanday qilib mexanizmlar avtomatik rejimda inson ishtirokisiz mahsulot ishlab chiqarishini kuzatib turishiga to‘g‘ri keladi, xolos. Germaniyada hattoki 4.0.Industriya atamasi ham paydo bo‘lgan bo‘lib, u avtomatlar ishlab chiqarish jarayoni doirasida o‘zaro aloqa qiladigan to‘liq avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va logistika tarmoqlari tuzishni ko‘zda tutadi. Robototexnika, buyumlar Interneti, sun’iy intellekt va 3D-bosmaning uyg‘unlashuvi

hozirgi paytda krossovkadan tortib avtomobillargacha bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha to‘liq mexanizatsiyalashgan fabrikalar qurishga imkon bermoqda. 3D-bosma qurilish sohasi ba’zi bir tarmoqlarni va mashinasozlikni tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin bo‘lgan texnologiyadir. Polimerlar, beton, metall va hatto oltindan ham mahsulot bosib chiqarishi mumkin bo‘lgan 3D-printerlarning juda ko‘p miqdorda yaratilishi ishlab chiqarish tsikli tushunishning o‘zini ham o‘zgartiradi, chunki ko‘plab mahsulot turlarini uydan chiqmasdan, faqat uch o‘lchamli model va 3D-printerga ega bo‘lgan holda olish mumkin bo‘ladi. 3D-bosmani o‘zlashtirishga mashinasozlik ham faol qo‘shilgan bo‘lib, bu yerda detallarni «klassik» usulda olishdan ko‘ra, bosib chiqarish arzonga tushadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimi dizaynerlari ham o‘zlarining yangi mahsulotlarini bosib chiqarmoqdalar. Quruvchilar, zargarlar, tibbiyot hodimlari ham o‘z biznes jarayonlarida 3D-bosmadan faol foydalanmoqdalar. O‘zini - o‘zi bosib chiqarishi mumkin bo‘lgan printer ham yaratilgan. Xitoy kompaniyalari esa istalgan shaxs uy sharoitlarida o‘zi uchun 3D-printer yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan konstruktorlar ishlab chiqara boshlagan. Garchi texnologiya yo‘lida hali murakkab mahsulotlar bosib chiqarish bilan bog‘liq savollar turgan bo‘lsada, oyoq kafti xususiyatlarini hisobga oladigan holda yangi krossovka bosib chiqarish mumkin bo‘ladigan murakkab tarkibiy qisimli mahsulotlar bosib chiqarish imkoniyati paydo bo‘lishining ehtimoli juda yuqori. Asosiysi, bu ishni uydan chiqmasdan ham bajarsa bo‘ladi.

Endi texnologiyalar sinergiyasi haqida gapirib o‘tamiz. Innovatsion raqamli texnologiyalarni boshqa vositalar bilan birgalikda qo‘llash nafaqat u yoki bu biznes - jarayonni o‘zgartirishga, balki bungacha hali mavjud bo‘lmagan mahsulot ishlab chiqargan holda tarmoqni to‘liq qayta tashkil qilishga ham imkon beradi. Raqamli o‘zgartirishda eng qiziqarlisi, ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va ushbu barcha texnologiyalarni birgalikda qo‘llash mumkinligidadir. Sinergetika nazariyasi atamalarida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy tizim doimiy o‘zgarishda bo‘ladi, institutsional shakllar tasodifiy o‘zgarishlari (fluktuatsiya) – tizim mikro darajasida tartibsizlik ko‘rsatkichi va hamda uning rivojlanish imkoniyatidir. Ayrim

fluktuatsiyalar shu qadar kuchli bo‘lib chiqadiki, kelgusi rivojlanish traektoriyasini belgilab berib, sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi. Masalan, buyumlar interneti virtual dunyoni real dunyo bilan birlashtirishga imkon beradi, sun’iy intellekt esa buyumlar internetidan olingan juda katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamlari asosida hulosalar va qarorlar shakllantirishi mumkin. To‘ldirilgan va virtual reallik yangi dunyoni inson ko‘ziga ko‘rinadigan qilib qo‘yadi. Robototexnika va 3D-bosma esa ko‘plab muntazam bajariladigan operatsiyalarni to‘liq avtomatlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Булутли технологиялар - Информатика, компьютер, интернет, алоқа
Муаллиф: Равшан Ҳамдамович Аюпов Ҳаммуаллиф: Бобир Бахирович Хидиров Нашр йили: 2021 Тили: Ўзбек (лот) Бетлар: 94
<https://kitobxon.com/oz/asar/7703>
2. Иоффе Д., Кусумано М. Искусство стратегии: Уроки Билла Гейтса, Энди Гроува и Стива Джобса. М.: Манн, Иванови Фербер, 2016. С. 21. va Roche J.C., Tirole J. Platform competition in two-side markets. Journal of European Economic Assosiation, 2003. Vol. 1; № 4. P. 990—1029
3. Гассман О., Енкенбергер К., Шик М. Бизнес-модели: 55 лучших шаблонов. М.: Альпина Паблишер, 2016., Эванс Д., Шмаленси Р. Код катализатора. Стратегии прорыва в современном бизнесе. М.: Вершина, 2008. С. 12
4. www.google.ru

**TOSHKENT VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITI VA SOYA
(*Glycine hispida L*) EKININING MAHALLIY NAVLARI**

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedراسi mudiri

Soliyev Abdulvosid Mirolim o‘g‘li

FarDU UMS qo‘shma fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email; idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatining tuproq iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, tabiati, shuningdek soyaning mahalliy navlari tavsifi, navlar haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: soya, tuproq, tog‘, to‘q tusli, tipik, och tusli bo‘z, bo‘z-o‘tloqi, o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproqlar, nav

Toshkent viloyati Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari hamda sharqdan Namangan, janubiy g‘arbdan Sirdaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyatning shimoliy-sharqiy va sharqiy qismini Chotqol, Qurama, Pskom va Ugom tizma tog‘lari tashkil qiladi. Hududining katta qismi janub va janubiy g‘arbgacha tomon Sirdaryoga qiya tushgan tog‘oldi tekisligidan iborat. Viloyat yuqori seysmik zonada joylashgan. Iqlimi kontinental. Qish nam, nisbatan yumshoq, yozi issiq, quruq. Bahorda va yozgi mavsumda jala yomg‘irlar, momaqaldiroq va do‘l yog‘ishi, shuningdek, shamolning sezilarli kuchayishi kuzatiladi. Vegetatsiya davri tekisliklarda qariyb 210 kun. Asosiy daryolari Sirdaryo (Toshkent viloyatida uzunligi 125 km) va uning viloyatdan o‘tuvchi irmoqlari Chirchiq (Pskom bilan birga) hamda Ohangaron. Tekislikda bo‘z tuproq, tog‘oldilarida (500-600 m balandlikgacha) – tipik bo‘ztuproq, undan yuqorida chimli-qo‘ng‘ir, o‘tloqi – dasht tuproqlar tarqalgan. Daryoning quyi qismida, shuningdek yer osti suvlari yer yuzasiga yaqin joylarda, daryo viloyatlarida allyuvial tuproqlar bor. Tekislik qismi haydalib, ekin ekiladi.

Faqat Sirdaryo sohillarida to‘qayzorlar bor. Tog‘larda 1200-1400 metr balandlikgacha tog‘ dashtlari, undan yuqorida archazorlar, 2000 metrdan yuqorida subalp va alp o‘tloqlari uchraydi. Tabiati qushlarga va hayvonlarga, suvlari baliqlarga boy bo‘lib, Chotqol tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi joylashgan. Mavsum yilning eng qurg‘oqchil davri fevral-may va yilning aprel-may oylariga to‘g‘ri keldi. Chirchiq-Ohangaron vodiysining suv resurslari, asosan, tog‘li rayonlarda shakllanuvchi yer ustki suvlaridan iborat. Chirchiq daryosi Piskom va Chotqol daryolarining qo‘shilishidan paydo bo‘ladi, umumiy uzunligi 328 km. Chirchiq vodiysining suv bilan to‘liq va Ohangaron vodiysini qisman ta‘minlaydi. Uning yillik o‘rtacha oqimi $7,0 \text{ km}^3$, qor-muz erishi hisobiga to‘yinadi, toshqin iyun oyiga to‘g‘ri keladi. Lekin suv sarfi ko‘p davr iyul va avgust oylarida ham kuzatiladi. Chirchiq daryosining o‘ng sohilidagi yerlarni sug‘orish maqsadida G‘azalkent gidrouzeli (Chirchiq GES kaskadi) dan Bo‘zsuv va zax kanallariga, chap sohilidagi yerlarni sug‘orish uchun esa gidrouzeldan Parkent, Chirchiq gidrouzeldan Chapqirg‘oq Qorasuv kanallariga suv taqsimlanadi. Chapqirg‘oq Qorasuv kanalining uzunligi 87 km, bosh qismidagi hisobiy suv sarfi $180 \text{ m}^3/\text{sek}$. Undan bir necha taqsimlash kanallariga, shu jumladan Ravotak kanali orqali suv olinadi. Viloyatdagi Oqqo‘rg‘on, Bo‘stonliq, Yuqori va O‘rta Chirchiq tumanlarida 70 ming. dan ortiq ekinzorni sug‘orishga imkon beradi. Ohangaron daryosining eng ko‘p suv sarfi aprel-iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Chirchiq va Ohangaron daryolarining suv oqimini mavsumiy rostdash maqsadida Chirchiq daryosida Chorvoq (umumiy hajm 2 km^3), Ohangaron daryosidan Ohangaron ($0,18 \text{ km}^3$), va Tuyabo‘g‘iz ($0,25 \text{ km}^3$) suv omborlari qurilgan. Chirchiq-Ohangaron vodiysida sizot va kollektor-zovur suvlari qo‘shimcha sug‘orish suvi zaxiralari hisoblanadi, sizot suvlar minerallashtirilmagan yoki juda kam minerallashtirilgan bo‘lganligi tufayli ulardan qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish maqsadlarida foydalanish tuproqlar mileorativ holatini yomonlashuvini keltirib chiqarmaydi. Chirchiq-Ohangaron vodiysiga tuproq paydo bo‘lish jarayonlari 0,5-3 m. chuqurlikda joylashgan va Chirchiq daryosining o‘zani yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanuvchi sizot suvlarning ta‘siri ostida kechadi. Chirchiq daryosining sohili bo‘ylab tarqalgan

tuproqlar asosan qum shag'al yotqiziqqlarga ega. Viloyatda sug'oriladigan yerlarning aksariyati Chirchiq va Ohangaron daryolarining ikkilamchi qayir terassalariga mansub. Ular katta qatlamli shag'al yotqiziqqa ega bo'lgan 0,5 m. dan 2-3 m. gacha qalinlikdagi qatlamli loy tuproqlardan iborat. Chirchiq-Ohangaron vodiysidagi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi va o'tloqi, o'tloqi-botqoq tuproqlar yuqori unumdor tuproqlar sirasiga kiradi. Mazkur yerlarda ekinlar yetishtirish jarayonida mineral va organik o'g'itlardan izchil foydalanish tuproqning agrokimyoviy xossalari va ishlab chiqarish qobiliyati (mahsuldorligi)ga ijobiy ta'sir etadi. Ushbu hududda joylashgan yerlarning reliefi tekis, shimoli-sharqda janubi-g'arbga qarab Chirchiq daryosining o'zani yo'nalishida 0,001-0,003 atrofidagi nishablikka ega. Viloyatdagi 85 ming ta sug'oriladigan yerlarda sizot suvlar 1,5 m chuqurlikda joylashgan bo'lib, ular minerallashtirilmagan-chuchuk sizot suvlar hisoblanadi.

Toshkent viloyatining umumiy yer maydoni 1525,5 ming gektarni, shundan ekin erlari 330,0 ming gektarni, shundan sug'oriladigani 303,6 ming gektarni, lalmi ekin yerlari 33,4 ming gektarni tashkil etadi.

Viloyat sug'oriladigan yerlarida asosan to'q tusli, tipik, och tusli bo'z, bo'z-o'tloqi, o'tloqi, o'tloqi-botqoq va botqoq tuproqlar tarqalgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha tuproq meliorativ holatining yomonlashuviga va unumdorligining pasayishiga sabab bo'luvchi sho'rlanish jarayonlari Toshkent viloyatida Respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan ancha kam. Kuchli va o'rtacha sho'rlangan tuproqlar asosan Bekobod (4838 ga), Bo'ka (2734 ga), Oqqo'rg'on (579 ga) va Chinoz (1184 ga) tumanlarida uchraydi. Kuchli sho'rlangan yerlarning umumiy maydoni 1255 gektarni, o'rtacha sho'rlangan yerlar maydoni 8958 gektarni. hamda kuchsiz sho'rlangan yerlar maydoni 32055 gektarni tashkil etadi.

Tuproq meliorativ holati va uning unumdorligi shu tuproqlarning mexanik tarkibiga bog'liq. Viloyatdagi sug'oriladigan yerlarining 47,65% o'rta va yengil mexanik tarkibli tuproqlardan iborat bo'lib qishloq xo'jalik ishlarini yuritishda qulay hisoblanadi. Og'ir va loyli mexanik tarkibli tuproqlar 50,55% maydonlarni egallab

ekinlarning jadal o‘sishi va rivojlanishiga, tuproqning suv va fizik xossalariga hamda ishlov berish mexanizmlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shamol eroziyasi jarayonlari asosan yengil va qumloqli mexanik tuproqlarda sodir bo‘lib ularning maydonlari 5,8% ni (18,7 ming ga) tashkil etadi va shamol eroziyasiga qarshi tadbirlar qo‘llanishini taqazo etadi. Viloyatning ko‘pgina tumanlari tog‘ oldi yerlarida joylashganligi tufayli bu yerlarda irrigatsiya eroziyasi xavfi kuchli.

Toshkent viloyati tuproq va iqlim sharoiti bo‘yicha ikkita (tog‘ va tog‘ oldi va pastki hamda yarim tekislik xududlar) mintaqaga bo‘linadi.

Tog‘ va tog‘ oldi xududlar (Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron, tumanlari), yarim tekislik hududlar (Yuqorichirchiq, O‘rtachirchiq, Qibray, Zangiota, Quyichirchiq, Oqqurg‘on, Bekobod, Pskent, Chinoz, Yangiyul, Bo‘ka tumanlari) soyaning ekish muddati turlicha bo‘lgan barcha navlarini joylashtirish va ekish maqsadga muvofiq.

Soya navlari tavsifi Soyaning «O‘ZBEK–6» navi Mualliflar: Saltas M.M., Burigina O. V., Yunusov B.K. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi - *Glycine hispida* L. O‘suv davri 140-145 kun. O‘simlik bo‘yi 160-170 sm. Pastki dukkak joylanishi 12-14 sm., shohlar soni 3-5 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 150-160 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 160-170 g. Don tarkibida oqsil 41-42%. Poya tarkibida oqsil 22-24%, don tarkibida moy 21-22%. YOtib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 32-35 s/ga don hosil va ko‘k massa hosildorligi 400-450 s/ga olish mumkin.

Soyaning “PARVOZ” navi Mualliflar: Saitkanova R.U., Sadikova N.I., Kerimkulova B. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi – *Glycine hispida* L. O‘suv davri 115- 125kun. O‘simlik bo‘yi 140-145 sm. Pastki dukkak joylanishi 13-15 sm, shohlar soni 2-4 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 120-130 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 160-170 g. Don tarkibida oqsil 40-41%, don tarkibida moy 25-27%.

Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 30-32 s/ga don hosil va ko‘k massa hosildorligi 250-300 s/ga olish mumkin.

Soyaning “NAFIS” navi Mualliflar: Saitkanova R.U., Sadikova N.I., Ibragimov F.Yu., Sattarov M.A., Mirzaeva I. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi - *Glycine hispida* L. O‘suv davri 115-120 kun. O‘simlik buyi 145-150 sm. Pastki dukkak joylanishi 14-16 sm, shoxlar soni 2-4 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 120-130 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 165-175 g. Don tarkibida oqsil 40-41%, don tarkibida moy 25-27%. Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 30-32 s/ga don hosil va ko‘k massa hosildorligi 250-300 s/ga olish mumkin.

Soyaning «O‘ZBEK–2» navi Mualliflar: Saltas M.M., Yugay T.L., Burigina O. V., Kogay M.T. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi –*Glycine hispida* L. O‘suv davri 120- 130 kun. O‘simlik bo‘yi 125-130 sm. Pastki dukkak joylanishi 12-14 sm, shohlar soni 3-5 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 140-150 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 155-160 g. Don tarkibida oqsil 40-42%. Poya tarkibida oqsil 22-24%, don tarkibida moy-24%. Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 30-32 s/ga don hosil va ko‘k massa hosildorligi 250-300 s/ga olish mumkin.

Soyaning «DO‘STLIK» navi Mualliflar: Saltas M.M, Burigina O. V., Begmatova S. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi -*Glycine hispida* L. O‘suv davri 125- 130 kun. O‘simlik bo‘yi 155-160 sm. Pastki dukkak joylanishi 11-13 sm, shohlar soni 3-5 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 120-130 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 150-160 g. Don tarkibida oqsil 40-41%, Poya tarkibida oqsil 22-24%, don tarkibida moy - 24%, Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va

mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 32-34 s/ga don hosil va ko‘k massa hosildorligi 250-300 s/ga olish mumkin.

Soyaning «ORZU» navi Mualliflar: To‘laganov N., Raxmanov A., Sirimov A. O‘zbekiston Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida yakka tanlov usuli bilan yaratilgan. Botanik turi - *Glycine hispida* L. O‘suv davri - 95- 100 kun. O‘simlik buyi 90-100 sm. Pastki dukkak joylanishi 10-12 sm, shohlar soni 3-5 ta, bir o‘simlikdagi dukkak soni – 90-100 ta, bir dukkakdagi don son 2-4 ta. 1000 dona urug‘ og‘irligi 150-155 g. Don tarkibida oqsil 40-42%, don tarkibida moy 20—22%. Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 20-25 s/ga hosil olish mumkin.

Soyaning «BARAKA» navi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari M.Mannopova, R.Siddiqov, A.Mansurovlar tomonidan yaratilgan. Botanik turi -*Glycine hispida* L. O‘suv davri 128-130 kun, o‘simlik bo‘yi 108-110 sm. 1000 dona don og‘irligi 150-180 gr, oqsili 40,6-41,2 %, moyliligi 24,24,6%. Dukkaklari yarim egilgan, yirik yassi, uchi uchlik, o‘rtacha 2-3 tadan urug‘lik. Urug‘i to‘q sariq yashil tovlanuvchi tuxumsimon, dumaloq don. Urug‘ qopchig‘i och qizil o‘rtasida yirik oq rang izi bor. Yotib qolishga, to‘kilishga, kasalliklarga chidamli va mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga mo‘ljallangan. Navdan qulay sharoitlarda 33-38 s/ga don hosili va 250-300 s/ga ko‘k massa hosildorligi olish mumkin.

Soyaning «OYJAMOL» navi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari M.Mannopova, R.Siddiqov, B.Mirzaaxmedovlar tomonidan yaratilgan. O‘suv davri 90-98 kun, o‘simlik bo‘yi 76-85 sm, 1000 dona don og‘irligi 155-160 gr, oqsili 40-42%, moyliligi 21-22,5%, Mevalari yassi, yarim egilgan 2-4 urug‘lik sertuk dukkak. Urug‘i tuxumsimon shaklda, oqish-sariq rangli, kerti ostida och-qo‘ng‘ir dog‘li yirik don.kasalliklarga chidamli. Urug‘i yaltiroq, bir vaqtda pishib yetiladi. Shuning uchun urug‘ning bir xilligi 70-80 foizni tashkil etadi. Navdan qulay sharoitlarda 31,-35 s/ga don hosili olish mumkin.

Soyaning «TO‘MARIS –MMAAn-60» navi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari M.Mannopova, R.Siddiqov, B.Mirzaaxmedovlar tomonidan yaratilgan. O‘suv davri 94-112 kun, o‘simlik bo‘yi 85-115 sm, 1000 dona don og‘irligi 150-160 gr, donidagi moylilik 25,8-26,5%, oqsil miqdori 42,3%. Nav erta pishar. Takroriy qilib ekilganda 78-86 kunda pishib etiladi. Poyasi tik o‘sovchi deyarli shoxlanmaydi, asosiy poyaning balandligi o‘rtacha 85-115 smgacha. Dukkaklari nisbatan mayda, har bir dukkakdagi urug‘lar soni 3-4 tagacha. Urug‘i yumshoq, tuxumsimon shaklda, to‘q sariq, yaltiroq po‘stli, sariq urug‘ pallalik don bo‘lib, urug‘ qopchig‘i och qizil, yirik, o‘rtasida oq rangli qopchiq o‘rni bor. Nav hosilini mexanizmlar bilan o‘rib olishga juda mos, dukkaklari bir vaqtda pishib etiladi. Kasalliklarga bardoshli. Navdan qulay sharoitlarda 34-38 s/ga don hosili olish mumkin.

Soyaning «USTOZ–MMAAn-60» navi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari M.Mannopova, B.Mirzaaxmedov, O.Qodirovlar tomonidan yaratilgan. O‘suv davri 118-126 kun, o‘simlik bo‘yi 85-115 sm, 1000 dona don og‘irligi 185-190 gr, moy miqdori 24,7%, oqsil 40,8%. Mevalari yirik yarim egilgan, yassi, uchi tumtoq dukkak. Har bir tupdagi dukkaklar miqdori 42-73 tagacha, dastlabki dukkaklar poyani 18-19 sm balandlikda joylashadi. Urug‘i sariq rangda, cho‘ziq tuxumsimon shaklda. Urug‘ kertigi yirik, och qo‘ngir rangli. Nav hosilini mexanizmlar bilan o‘rib olishga juda mos, dukkaklari bir vaqtda pishib etiladi. Kasalliklarga bardoshli. Navdan qulay sharoitlarda 40-42 s/ga don hosili olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.N.Atabaeva - Osobennost vozdelivaniya soi v oroshaemoy zone Uzbekistana - Mater. konf. “Agrarnaya nauka na rubeje vekov” - Akmol, 1997, s.15.
2. X.N.Atabaeva, I.A.Israilov - Takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi. - Ilm. konf. to‘plami CHimbay, 1998, 98-99 bet.

СОЯ ЭКИНИНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Идрисов Х.А., к.х.ф.ф.д (PhD)

ФарДУ Мевачилик ва сабзавотчилик кафедраси мудир

Солиев. А

ФарДУ УМС кўшма факультети Анорчилик таълим йўналиши

4-босқич талабаси

Email: idrisovhusanzon@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада дуккакли экин соянинг инсон саломатлигидаги тутган ўрни, аҳамияти, шифобахш хусусиятлари аниқ мисоллар билан таҳлил этилганлиги билан янада катта аҳамият касб этади

Калит сўзлар: соя, оқсил, соя мойи, соя сути, соя шроти, соя похоли, протеин, микроэлементлар

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 31 январдаги “2017 йилда мойли экинларни етиштириш бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари ҳамда “Ўзпахтаёғ” АЖ томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар” Дастурига мувофиқ Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда мойли экинларни етиштириш ҳажмларини кўпайтириш ҳамда мазкур чора тадбирлар дастурининг бажарилишини ташкил этиш бўйича ҳудудларда тадбирларнинг белгиланган муддадларда ва тўлақонли бажарилиши устидан мунтазам мониторинг юритиш, мавжуд муаммолар ва камчиликларни бартараф этиш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Республикамизда деҳқончилик маданиятини кўтариш, фан-техника ютуқлари ва илғорлар тажрибасини кенг жорий қилиш эвазига экинларнинг

ҳосилдорлигини ошириш, ҳосил сифатини яхшилаш, айниқса мамлакатимизда дон мустақиллигини таъминлаш устида катта тадбирлар амалга оширилмоқда. Экинлар структурасининг ўзгариши муносабати билан дуккакли дон экинларидан юқори ва сифатли ҳосил етиштиришда интенсив технологиялардан бири суғориладиган майдонларда экилган бошоқли дон экинларини йиғиштириб олингандан сўнг, бўшаган майдонларда соя ва мошнинг эртапишар навларини такрорий экин сифатида экиб, дон етиштиришни кўпайтиришдан иборат.

Республикаимиз халқ хўжалиги унинг дехқончилик ва чорвачиликнинг ривожланиши жуда муҳимдир. Дехқончилик соҳасида кейинги йилларда пахта толаси ва дон ишлаб чиқаришни ошириш бўйича кўпгина қарорлар қабул қилинди ва дон ишлар чиқаришда муайян ютуқларга эришилди. Бугунги кунда етиштирилаётган мавжуд дон республикаимиз аҳолиси талабини тўла қондира олади. Аммо дон чорвачиликни ривожлантириш учун ҳам зарур. Бунда донли экинлар биологиясини ўрганиш, селекция ва уруғчилик ишларини кучайтириш, шунингдек донли ем-хашак экинларни етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш жуда муҳим.

Инсоннинг овқатланиши унинг ёши, жинси ва меҳнат фаолиятига боғлиқ бўлган ҳолда турлича бўлиши лозим. Кундалик рационда инсон оқсил, углеводлар, витаминлар, минерал моддалар ва бошқаларни истеъмол этиши лозим. Инсон қанчалик турли-туман озиқланса, унинг ҳаёт фаолияти шунчалик фаол, организм эса шунчалик соғлом бўлади. Айниқса ҳар биримиз кундалик стресслар, депрессиялар, асаб-психологик зўриқишлар ва толиқиш муҳитнинг салбий таъсирларига учраганимизда бундай озиқланишнинг нечоғлиқ муҳимлигини англаймиз. Таъкидлаш жоизки, инсон организми маромида фаолият кўрсатиши учун оқсилга талаб бир кунда унинг вазнининг ҳар бир килограми учун 0,7 гр дан кам бўлмаслиги лозим.

Кейинги йилларда озиқ-овқат маҳсулотлари ва чорва учун ем ишлаб чиқаришнинг жадаллашиши соя дони етиштиришни кўпайтиришни тақозо

этомкада. Соя таркибида тўла қимматли нодир оксил мавжуд бўлиб, у озиқлик қиммати бўйича хайвон оксидидан қолишмайди. Унинг таркибида ноёб биологик фаол моддалар, лецитин, холин, А, В ва Е витаминлари, макро ва микроэлементлар ва бошқа қимматли моддалар мавжуд. Соя таркибида лактоза ва холестерин учрамайди. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, каллорияси ва асосий озиқлик ва биологик фаол моддалар таркиби бўйича ушбу маҳсулот муқобил баланслангандир.

Соя жуда қадимий экин ҳисобланади. Соя турлари ва шакллари унинг хилма-хиллигини ўрганар экан, олимлар уни асосан учта марказда шаклландирган деб ҳисоблашадилар: Жанубий-Шарқий Осиё, Австралия ва Шарқий Африка. Аммо кўпгина олимлар ўсимликнинг келиб чиқиши деб Хитой марказини кўпроқ тан олишади—Хитой, Корея, Ҳиндистон, Япония. Европа ва АҚШда соя 1712 йилда пайдо бўлган. Кўп асрлар давомида соя ва унинг маҳсулотлари шарқ мамлакатлари аҳолиси учун асосий оксил манбаси сифатида хизмат қилди. Хитойда соя 6-7 минг йил аввал маданийлаштирилган. У Япония, Ҳиндистон ва Индонезия, Вьетнам ва Осиёнинг бошқа мамлакатларида ҳам қадимдан экилади. Хитойдан Узоқ Шарққа соя эрамиздан 3 минг йил аввал кириб борган. Соя учун Россиянинг табиий-иқлим шароитлари қулай бўлган Амур вилояти, Хабаровск ва Приморск ўлкаларида бу экин қадимдан етиштирилади. Кейинчалик Грузия, Украина, Кубань ва Шимолий Кавказда етиштирила бошланган.

Маълумки, оксил тақчиллиги муҳим муаммодир, унинг етишмаслиги кўпгина касалликларни келтириб чиқаради. Озиқ-овқат маҳсулотлари орасида соя салмоғини ошириш билан нафақат бу муаммони ҳал этиш, балки тиббий препаратлар истеъмолини ҳам бирмунча камайтириш мумкин.

Соядан ишлаб чиқариладиган асосий маҳсулотлар - бу соя уни ва соя мойидир. Соя уни қандолатчилик маҳсулотлари, тўлдирувчилар, гўшт, сут, пишлоқ ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришда қўлланилади. Мойи эса озиқ-овқатда, майонез, маргарин ишлаб чиқаришда ишлатилади. Кўпгина

олимлар ва ишлаб чиқарувчилар «соя - озиқ-овқат, ем-хашак ва келажак» дейишади. Соя ёрдамида тўла қимматли ўсимлик оқсили ишлаб чиқариш муаммоси ҳал этилади. Соя етиштириш қуйидаги мақсадларни ўз ичига олади:

Инсон озуқасини яхшилаш. Соя етиштириладиган кўпгина мамлакатларда озиқ-овқат саноати учун ягона оқсил манбаи бўлиб бормокда. РФФА (Россия тиббий фанлар академияси) озиқ-овқат институти маълумотиغا кўра соядан тайёрланган маҳсулотларни қуйидаги касалликларда тавсия этиш мумкин: атеросклероз, гипертония, юрак ишемияси, миокард-инфарктни ўказгандан кейинги тикланиш даврида, ўт пуфагининг сурункали яллиғланиши, қандли диабет, сурункали қабзият, ёғ босиш, таянч-харакат органлари касалликлари (артрит, артроз), аллергия касалликлар.

Соя маҳсулотларига нисбатан бирор чеклашлар ёки уларни истеъмол этмаслик кўрсатмалари ҳозиргача йўқ.

Чорва маҳсулдорлигини ошириш учун ҳайвонлар соя еми билан озиқлантирилганда уларнинг суткалик вазн ортиши икки баробарга кўпаяди. Бунда 100 кг тирик вазнга эришиш учун озиқлантириш даври 10-15 кунга қисқаради, маҳсулот сифати эса ортади. Ем-хашак мақсадида соянинг кунжараси, шроти, уни ва кўкатидадан фойдаланилади. Кунжаранинг таркибида 38,7% протеин, 5,5% мой мавжуд. Соя кунжараси ва уни бузоқлар рационидида сут ўрнини босади. 1 т соя донидан таркибида 40% протеин ва 1,4% мой бўлганда 750-800 кг шрот олиш мумкин, У чорва учун қимматли концентратланган ем ҳисобланади.

Соянинг кўкати ҳам қимматли ем-хашакдир. Унинг энг юқори озуқалик қиммати гуллаш ва доннинг тўлиши даврида йиғиб олинганда кузатилади. Соя кўкатида каротин, оқсил ва кальций миқдори бошоқли экинларникига нисбатан анча кўп. Соя пичани ҳам қимматли ҳисобланади: унинг 1 кг да 0,47-0,54 озуқа бирлиги, 110-150 г протеин мавжуд, Соя походи ҳам ем-хашак сифатида ишлатилиши мумкин. Унда 2-4,8% протеин, 1,5-2,9% мой мавжуд.

Саноат махсулотлари ишлаб чиқариш учун соянинг озиқ-овқат саноати ва чорвачиликда ишлатилмайдиган чиқиндиларидан турли махсулотлар - қурилиш плиталари, матолар, сунъий ўғитлар, соя мойи ишлаб чиқариш қолдиқларидан бўёқ, совун, лак қора бўёқ, резина махсулотлари ишлаб чиқариш мумкин.

Техника экини сифатида соя совун, лак-бўёқ, тўқимачилиқ кимё ва саноат тармоқларида қўлланилади. Соядан пластмасса, плёнка, линолеум, техник мой ва бошқа кўпгина махсулотлар тайёрланади.

Соя етарлича юқори сифатга эга, яъни оксил ва мойга бой бўлсада, бугунги кунда Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигига кенг тадбиқ этилмаган. Унинг турли навларида 57% гача пархез оксил, енгил хазм бўлувчи тўйинмаган мой ва 30% гача углеводлари (асосан моно ва дисахаридлар) мавжуд, уларда биологик фаол моддалар ва витаминлар: А, В₁, В₂, В₃, В₆, Е, С, D, Қ РР ва бошқалар, шунингдек Мп, Мо, Mg, В, Fe каби микроэлементлар мавжуд. Уларнинг барчаси кундалик ҳаётимиз ва чорва рациона учун жуда муҳимдир.

Соя илдизининг хусусияти ва уларда туганак бактерияларининг мавжудлиги ушбу ўсимликни азот ўзлаштирадиган ўсимликлар қаторига киритади. Соя агротехник ахамиятга ҳам эгадир. Дуккакли экин сифатида соя тупроқни азот билан бойитади, бир йилда 1 га да ўртача 70-100 кг азот тўпланади. Соядан сўнг дала бегона ўтлардан анча тозаланади, соя кўпгина экинлар учун жуда яхши ўтмишдош бўла олади. Бундан ташқари соя сидерат экин сифатида ҳам қўлланилади.

Бундан ташқари мазкур йўл билан ҳосил бўлган биологик азот экологик тоза бўлиб, у тупроққа, сизот сувларига, истеъмолчиларга захарли таъсир кўрсатмайди, шунингдек у сунъий азотли ўғитлар сингари меваларда тўпланмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Х.Н.Атабаева - Особенности возделывания сои в орошаемой зоне Узбекистана - Матер. конф. “Аграрная наука на рубеже веков” - Акмола, 1997, с.15.

2. Х.Н.Атабаева, И.А.Исраилов - Такрорий экин сифатида экилган соя навларининг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлиги. - Илм. конф. тўплами Чимбай, 1998, 98-99 бет.



OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Abdurazakov Bobirjon Sobirjon o'g'li

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Oliy ta'limni rivojlantirishda Prezidentimizning qaror va farmonlari, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ushbu ta'lim texnologiyalardan FSMU metodi haqida berilgan.

Kalit so'zlar: Qaror, farmon, FSMU, kredit modul tizimi, yakka, guruh, kadrlar tayyorlash, o'qitish.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish hamda OTMLar moddiy texnik bazasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, O'zbekistonda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, ushbu hujjatda nazarda tutilgan maqsadlar oliy ta'limni modernizatsiya qilish bilan birga, ilg'or ta'lim texnologiyalariga

asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu farmon orqali oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish belgilandi. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish nazarda tutilayotgani ushbu maqsadlarga erishishda ayni muddaodir. Chunki o'qitish jarayonida kredit tizimi asosida tahsil olgan talaba ertaga kasbiy kompetentlilik va noodatiy vaziyatlarda qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlash, axborotni mustaqil olish, tahlil qilish, samarali foydalanish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchan mutaxassis kadr bo'lib yetishishi shubhasiz.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar zamirida Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish, yoshlarni har jihatdan barkamol shaxs etib voyaga yetkazish, sohalar uchun yuqori bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashdek maqsadlar mujassamdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedogog maxoratiga oid

bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi .

FIKR.MULOHAZA.ISBOT



- **F** – Fikringizni bayon eting
- **S** – Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
- **M** – Fikringizga misol keltiring
- **U** – Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari

1-bosqich

Talabalarga «FSMU» texnologiyasining mohiyati va ishlash tartibi tushuntiriladi hamda muhokama etiluvchi masala (ma’lumot) o‘rtaga tashlanadi.

2-bosqich

Talabalar yakka yoki juftlikda o‘rtaga tashlangan masalani muhokama qiladilar va «FSMU» jadvalini to‘ldiradi.

3-bosqich

Kichik guruhlarga birlashadilar va o‘z fikrlarini bayon etadilar, qarorning sabablarini aniqlaydi va misollarga tayangan holda xulosa yasaydilar. Barcha guruh a’zolarining fikrlari inobatga olinadi.

4-bosqich

Guruh ichida muhokama qilib yagona xulosaga keladilar. Katta qog‘ozga «FSMU» jadvalini to‘ldirib taqdimotga tayyorlanadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda ta’lim metodining noan’anaviy usullar orqali talabalarni qiziqtirish hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga shu bilan bir qatorda ularga mustaqil izlanib o‘rganishlari uchun zamin yaratishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.
3. “Qishloq xo’jaligi fanlarini o’qitishda ilg’or xorijiy tajribalar” moduli bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017



KORONAVIRUS ASORATLARI VA KASALLIKDAN KEYINGI REABILITATSIYADA QO‘LLANILADIGAN DORI VOSITALARI

Ilmiy rahbar: **N.M.Umarovna**

TTA TF “Mikrobiologiya, immunologiya,
farmakologiya va klinik farmakologiya “ kafedresi assistenti

Asliddin Azizov

TTA TF Davolash fakulteti talabasi

Annotatsiya: Koronavirusdan keyingi (postkovid sindrom) zamonaviy terapevtik amaliyotda yangi, hali ham yaxshi tushunilmagan hodisa. Biroq, shunga qaramay, ushbu nozologiya jahon tibbiyot hamjamiyati tomonidan allaqachon tan olingan. Statistika ko‘ra, COVID-19 dan tuzalgan odamlarning 10-20 foizi postkovid sindrom belgilarini boshdan kechirishadi. Ushbu maqolada koronavirusdan keyingi davrlarda bemorda kuzatilayotgan simptomlar, ularning kelib chiqish sabablari va bugungi kunda davolashda qo‘llanilayotgan zamonaviy dori vositalari haqida nazariy va amaliy asoslarga ko‘ra batafsil tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: postkovid sindrom, osteoporoz, antikoagulyantlar, supermelkiy biokalsiy, valerian kardio, vitamino terapiya.

Postkovid sindromning etiologiyasi oldingi koronavirus infeksiyasi bilan bevosita bog‘liq. JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, COVID-19 bilan zararlangan bemorlarning 80 foizi yengil zararlanib, klinik tiklanish davri taxminan ikki hafta, 14 foiz o‘rtacha og‘ir shikastlanib uch yoki olti hafta ichida, 6 foiz holatlarda esa o‘ta og‘ir shikastlanib, olti oydan bir yilgacha bemorlarning holati qayta tiklanmoqda. Postkovid sindromning mexanizmi, asosan, asab tizimi (markaziy, periferik, avtonom), o‘pka, buyraklar va teriga ta’sir qiluvchi surunkali trombovaskulit bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ichki organlarning qon tomir devorlarida immunitet konlarini cho‘ktirish, komplement tizimining faollashishi, autoimmun yallig‘lanishni

keltirib chiqaradigan immunopleks reaksiyasi bo‘lishi mumkin. Trombotik mikroangiopatiya va vaskulit bilan bir qatorda venoz tromboemboliya, to‘qimalarning gipoksiyasi va organ ishemiyasi postkovid sindromga yordam beradi.

Postkovid sindromning aniq va ravshan klinik ko‘rinishi yo‘q, chunki turli bemorlarda simptomlar to‘plami juda xilma-xildir. Ba’zi tuzalgan odamlarda uzoq muddatli alomatlar infeksiya paytida boshdan kechirganlarga o‘xshaydi, boshqalari esa yangi alomatlarni rivojlantiradi. 80% hollarda, postkovid sindrom o‘ta holsizlik hurujlari bilan birga keladi. Ko‘pgina bemorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yotoqdan turolmaydilar, odatdagi kundalik jismoniy mashqlarni bajara olmaydilar. Postkovid bilan og‘riganlarning yarmidan ko‘pida hayotning odatiy ritmlari buziladi: kechasi uyqusizlik, kunduzgi uyqu, uyqu va uyg‘onishning o‘zgarishi. Bemorlarning taxminan 30 foizida soch to‘kilish holatlari uchramoqda. Sezgi organlari faoliyatining buzilishi xarakterlidir: ko‘rish, eshitish, 27,9% ta’mini yo‘qolishi, 35,2% hid bilishni yo‘qolishi. Kasal bo‘lganlarning to‘rtidan birida diareya davom etadi. Shuningdek, yurishning beqarorligi, diffuz mialgiya, oyoq-qo‘llarning titrashi, diqqatni jamlash va xotirada qiyinchilik bo‘lishi mumkin. Ayollarda hayz davrining buzilishi odatiy holatda emas. Bemorlarning 75 foizida postkovid sindromning belgilari to‘lqinli xarakterga ega, chorakda ular doimiydir.

Postkovid davridagi izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bemorlarda aniqlanayotgan:soch to‘kilish holatlari, asab tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan muommolar, tayanch va yurak qon-tomir tizimidagi o‘zgarishlarni kelib chiqishida, asosiy sabablardan birini ,aynan, kasallik davrida qo‘llanilgan ba’zi dori vositalarini ortiqcha miqdorda qo‘llanilishi natijasida kelib chiqmoqda.Bunga yaqqol misol tariqasida, kasallikka chalingan bemorlarda tromboembolik holatlarni oldini olish maqsadida qo‘llanilgan antikoagulyantlarga mansub bo‘lgan geparinning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi natijasida bemorlarda osteoporoz bilan zararlanish holatlari ko‘paydi.Geparin bilan uzoq muddatli davolashda osteoporoz yoki suyaklarning ingichkalashi mumkin. Bu bemorni spontan yoriqlarga moyil qiladi . Past molekulyar og‘irlikdagi geparinlar bilan xavf kamroq bo'ladi.

Postkovid davrida yuzaga kelayotgan sindromlarning bemorlar hayot faolyatiga sezilarli salbiy ta'siri keyingi rehabilitatsiya strategiyasini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. Hozirgi vaqtda postkovidni davolash bo'yicha klinik ko'rsatmalar ishlab chiqilmagan. Asosan, terapiya simptomatik va tiklovchi hisoblanadi. Postkovid belgilari bo'lgan bemorlarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- **Farmakoterapiya.** Nevrologik simptomlarni bartaraf etish uchun estrodiol preparatlar (magniy + piridoksin), glitsin, valerian buyuriladi. Taxikardiya va kardialgiyada beta-blokatorlardan foydalanish mumkin. Ba'zi tuzalgan bemorlarda antikoagulyantlardan uzoq muddat foydalanish tavsiya etiladi. Vitaminoterapevtik davolashda o'n kun davomida C, D vitaminlari, sink va selenli qo'shimchalar tavsiya etiladi. Bulardan tashqari, bemorlar hayot faolyatini yaxshilash maqsadida, asoratlarni yanada samarali davolash maqsadida, Valerin kardio, supermelkiy biokalsiy kabi vitamanga boy preparatlarni qo'shimcha terapevtik davolash sifatida qo'llash mumkin.

- **Valerin kardio.** Tarkibi: magniy 40 mg, vitaminlar: 7,5 mg C, 2 mg B6, 1 mg B1 va B2, 5 mg B12. Valerin Kardio tarkibidagi moddalar hisobiga asab va yurak-qon tomir tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: uyqu sifatini yaxshilaydi, uyqusizlik bilan kurashishga yordam beradi, bosim ko'tarilishi va aritmiyalarni kamaytiradi, silliq mushaklarning spazmini engillashtiradi, xotirani yaxshilaydi, stressga chidamliligini oshiradi, tromboz ehtimolini kamaytiradi, immunitet tizimini mustahkamlaydi. Qo'shimcha yengil tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega. Qo'llash usuli va dozasi: Valerin Kardio tabletkalari ovqatdan 30 daqiqa oldin yoki yotishdan oldin kuniga ikki yoki uchta tabletkadan foydalaniladi. Agar foydalanuvchida uyqu bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa: yotishdan yarim soat oldin 1 tabletkadan qabul qilinadi. Davolanish davomiyligi 30 kun.

Tromboembolik kasalliklarning oldini olish va davolashda antikoagulyant davolashning asosidir. Antikoagulyantlar bundan tashqari tromboz, emboliz, stenokardiya, miokard infarktida ishlatiladi. Bularga heparin, varfarin va sinkumar kabi preparatlar kiradi.

Farmakologik ta'siri:to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi antikoagulyantlar guruhiga kiruvchi geparin eritmalari manfiy zaryadga ega bo'lganligi, qon ivishida ishtirok etuvchi oqsillar bilan birikishga imkon beradi. Geparin qon qon zardobidagi plazmasida antitrombin III (kofaktor) bilan bog'lanadi va trombin faolligini susaytiradi, natijada fibrinogen fibringa aylanmaydi. Bundan tashqari geparin protrombinni trombinga aylanishiga qarshilik qiladi. Bilvosita ta'sir qiluvchi varfarin va sinkumar kabi preparatlar jigarda K vitamini hosil bo'lishini bloklaydi, ularsiz qon ivish qobiliyatini yo'qotadi, albatta, ma'lum darajada. Antikoagulyantlar bemorda tromboembolik asoratlarni rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ushbu preparatni qabul qilish 100% bo'lmasa-da, insultga qarshi yagona himoya hisoblanadi. Preparatning samarali ishlashi uchun qonni "suyuqlik" ni ushlab turish kerak va bu yerda bemor va shifokor o'rtasida qat'iy aloqa bo'lishi kerak, agar u haddan tashqari qabul qilinsa, qon ketish xavfi mavjud. Shuning uchun antikoagulyantlarni qabul qilish juda qiyin, chunki, har ikki haftada, keyin esa har 2-3 oyda foydalanuvchilar INR yoki PTI uchun ma'lum bir qon testini o'tkazishlari kerak, bu ularning koagulyatsion tizimining holatini ko'rsatadi.

Koronavirus davridagi ko'plab patologik holatlarni hamda postkovid davridagi asoratlarni davolashda tabiiy dorivor preparatlar qatorida qo'shimcha terapiya sifatida eng samarali,zamonaviy, univeral dori vositasi Supermelkiy biokalsiy dori preparati. Supermelkiy biokalsiy yoshga qarab barcha yosh toifalarida kaltsiy yetishmovchiligining oldini olish uchun, tafsiya qilish mumkin. Supermelkiy biokalsiy bronxopulmonar tizim kasalliklari (bronxit, pnevmoniya). Gipertenziya, gipotenziya, aralash turdagi tomir distoni. Yurak ritmining buzilishi (taxikardiya, bradikardiya). Tromboflebit, varikoz tomirlari va qon aylanish tizimining boshqa kasalliklari, osteoporoz kabi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Hech qanday kontrendikatsiyaga ega emas (200 dan ortiq inson kasalliklari uchun tavsiya etiladi).Qo'llash usuli: 1-4 choy qoshiqdan kuniga 1-4 marta (yoshi, vazni, ovqatlanish tizimi va patologiyasiga qarab) ovqatdan 20-30 daqiqa oldin qabul qilinadi. Dasturning davomiyligi: 1-3 oy, yiliga 2-3 marta.

Vitamino terapiya. Reabilitatsiya davrida kasallikdan tuzalgan bemorlarga organizimni qayta tiklash uchun, vitamino terapiyalar eng ustuvor yo‘nalishlardan biri. Bu turdagi preparatlar: draje, tabletkalar, ampulalar, kukunlar ko‘rinishida chiqariladi. Qo‘llash shakli kasallikning xususiyatiga qarab davolovchi shifokor tomonidan belgilanadi. Ampulalarda in'ektsiya uchun eritma tayyorlanadi. Bir ampulada 50 mg va 100 mg mavjud bo‘lib, bu bir vaqtning o‘zida preparatning kerakli dozasi kiritish imkonini beradi. Dori preparatlaridan tashqari, kundalik ovqat ratsioni tarkibiga C vitaminiga boy mahsulotlar berish lozim. Moddaning asosiy manbalari: kivi, shirin qalampir, qovun, qora smrodina, piyoz, pomidor, apelsin, olmalar, shaftoli, xurmo, pishirilgan kartoshka, karam, bargli o‘tlar.

Shifokorlar postkovid davrida bemorlarning qonida (yurak og‘rig‘idan xotira muammolarigacha) D vitamini etishmasligiga tobora ko‘proq e‘tibor berishmoqda. Bu modda inson tanasining to‘liq ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Bemorlarda D vitamini ertalab ovqatdan keyin o‘n kun davomida, kuniga 50-100 mg dan 1 mahal buyuriladi. Bulardan tashqari kundalik iste‘mol mahsulotlari tarkibida: dengiz baliqlari, ikra, tuxum, jigar, smetana, pishloq, sariyog‘, sut bo‘lishini inobatga olish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, yuqoridagi asoratlarni davolash, bemorlarni oldingi sog‘lom hayotlariga qaytarish maqsadida, davolovchi shifokorlar tomonidan reabilitatsiya davrida aniq mexanizim asosida samarali davo choralarini ko‘rishlari lozim. Shuningdek, reabilitatsiyada postkovid asoratlarni oldini olish maqsadida, shifokor va bemor a‘loqasini mustahkamlash hamda sog‘lom hayotga qaytgan bemorlarni kundalik oziqlanish ratsioni tarkibiga: vitamin va tabiiy mahsulotlardan iborat taomlar buyurish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Коронавирусный синдром: профилактика психотравмы, вызванной COVID-19/ Соловьева Н.В., Макарова Е.В. , Кичук И.В. // РМЖ. – №9. – 2020.
2. Into the looking glass: Post-viral syndrome post COVID-19/ R. Perrin, L. Riste, M. Hann – Nov., 2020.
3. Post-COVID-19 Fatigue: Potential Contributing Factors/ Thorsten Rudroff, Alexandra C. Fietsam, Justin R. Deters, Andrew D. Bryant, John Kamholz// Brain Sci. – 2020, №10.
4. [https\www.vitaminic.ru\](https://www.vitaminic.ru/) internet sahifasi.



SMART EDUCATION AND ITS APPLICATION IN IOT

Ibrohimova Maftunakhon Nozimjon qizi

magistrant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

Annotation

Because of the rapid development of digital technologies, the use of digital technologies in the field of production, education, services, all socio-economic processes and even people's daily lives are developing and improving day by day. Digital technologies are evolving into smart devices, and smart devices are becoming smart objects (smart home, smart city, smart farm, smart board, etc.). Smart device interaction technology is implemented using IoT technology. The development of new technologies makes it possible for students to learn more efficiently, quickly, flexibly and conveniently. Over the past decade, the Smart Education system has become one of the most important and priority tasks not only in the Republic of Uzbekistan, but also around the world.

Keywords: Smart education, IoT, smartification, ICT, pandemic, distance learning, TCP / IP, UDP.

In today's fast-paced digital age, the concept of smart education has been the subject of much debate. Technology, which has been able to create its own environment on a large scale, has now penetrated into every field of medicine, engineering and even pedagogical education and created its own wave. It is now difficult to imagine the educational process without technology, which in turn is leading to an increase in the need for Smart education, which is a system of "Smart education".

The development of high technology and information technology in the twenty-first century is having a huge impact on today's education system.

In particular, the development of smart facts connected to mobile phones has made it possible to learn and share education from anywhere in the world. With these features, students have the opportunity to choose from a variety of information, and in turn, they become an independent provider of information.

Education and technology can never be imagined without each other. Following the outbreak of the COVID-19 pandemic around the world, distance education has expanded globally and the following questions have begun to be answered:

- What will happen to students if schools close?
- How can students get education without a physical teacher?
- How can teachers direct education in their homes with internet and technology problems?
- How to assess students' knowledge?

In many countries, the digital age has opened new doors of education, making it possible for every student to be educated anywhere in the world. However, universal education is not available in all regions. At least half of the world's population is still denied access to online education. World leaders must work together to bridge these gaps. The article also discusses the Smart Education System and the role of IoT in it.

First of all, the word "Smart" is derived from the English language, and its descriptions are as follows:

S – Specific the training to be given is clear and understandable, assigned to specific sources.

M – Measurable learning outcomes are measurable and understandable to both the student and the teacher.

A – Achievable tasks must be adequate for the student's level.

R - The knowledge of relevant (modern) specialists should be immediately included in the training courses for new learners.

T - Time bound knowledge can be obtained at any time.

What is smart education? is a pedagogical change, as well as a new global educational technology. It is simply replacing traditional types of books and pens with technology.

What is IoT (Internet of Things)? - IoT is an English term derived from the English word "Internet of Things", which means things or objects connected to the Internet. The meaning of IoT in the field is the use of various platforms, applications and technologies through radio communication services. Currently, IoT is entering social life very quickly.

A clear vision of IoT and its developmental aspects and more in technology.

A special model has been developed for the development of the IoT 4 model. In other words, the development of IoT is achieved through the development of these 4 objects. Here are some IoT development models:


- Integrated application model - this model is a model for the development of various applications, including mass messengers. Demand for simple, convenient, entertaining, commercial applications and messengers has always been high.
- Data exchange model - the main purpose of which is to process various data such as .txt, .doc, .pdf, .mp3, .mp4 and so on, improve the transmission process, and reduce data processing time. , in general, focuses on improving the process of using information.
- Network infrastructure model - the main goal of which is the development of various wired and wireless networks for the transmission of data, the means of data transmission in the network. Examples include TCP (Transmission Control Protocol) / IP (Internet Protocol), UDP (User Datagram Protocol), and wireless networking technologies.
- Inter-device synchronization, identification model - the purpose of which is to ensure the synchronous operation of devices with each other, to develop the identification process.

IoT and education: The education sector is one of the most flexible and effective areas in terms of using IoT devices to make education collaborative, interactive and open to all. IoT devices provide students with reliable access to everything from learning materials to communication channels, and they allow teachers to measure students' learning in real time. When it comes to education, the COVID-19 pandemic has sufficiently highlighted the important availability of educational resources. IoT allows for the transition from traditional to digital teaching methodologies with a number of additional benefits and increased efficiency.

Not only can these smart attendance devices, boards, built-in alarm systems in schools, assessment checks, cameras, school locks, everything move from the physical world to the world of central system-based management and automation.

Distance Learning: IoT-based systems have the ability to store, format data in the form of applications with special software, and allow website distance learners to access the website from anywhere with a user ID and password in the form of an access function.

It can help anyone who cannot be part of a legitimate educational institution, but still wants to continue his or her education. Live lessons, pre-recorded lessons, online timer-based assessment questions, time tracking on the portal help to create a comprehensive approach for distance learners. During the COVID19 pandemic, this was a whole course of educational institutions, with the online submission of materials and assessment based on an open booklet allowing the student not to miss their studies in junior classes and middle semesters.



IoT for Education has developed responses to improve the quality of education around the world by making it understandable and accessible to all. IoT is being implemented slowly in some schools at the rate of its adoption because such investments are expensive.

As for the advantages of IoT and the wide field of activity, it is worth investing in this field. Technology has recently changed the landscape of education. Increasing human knowledge and sustainable technology are leading universities (HEIs) to innovate in the efficient use of available resources and learning.

At a time when it is decided to create new ways of quality education, Information and Communication Technologies (ICT) will bring countless benefits. ICT facilitates many simple tasks and communication from almost anywhere in the

The use of ICT techniques in the educational process also has a very positive effect on the student's ability to learn. It was found that students have a very positive attitude to work and education in the use of computers in the performance of their tasks, motivate and encourage them to learn. Self-esteem and self-confidence of students who used technology to learn in educational institutions increased. As a result, a number of educational institutions are increasingly integrating ICT into their education systems. With the advent of technology, universities can now track resources, create smarter lesson plans, design safer campuses, and improve access to information. Learning from using mobile and tablets in the classroom looks very different today.

List of used literature:

1. Бодрик Александр “Умное” образование для “умного” города PC Week №11 (932) 29 августа 2017. Internet address: <https://www.itweek.ru/gover/article/detail.php?ID=196377>
2. Образование в «Умном городе» . Internet address: <http://citysmart.ru/napravlen/obrazovanie.html>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA YANGI DARSLIKNING AHAMIYATI

Yo‘ldasheva Gulirano, Rahmonova Nasiba

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti 2-bosqich

201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yurtboshimizning yoshlarga bo‘lgan e‘tibori, ta‘lim samaradorligini oshirishda ilg‘or g‘oyalari, ta‘lim sohasida kiritilayotgan o‘zgartirishlar, maktab ta‘limidagi sezilarli yutuqlar, shuningdek, yanggi nashrdan chiqqan darsliklar va ularning ahamiyati haqida so‘z boradi. Va bularning natijasi yanada a‘lo bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning malakasini yanada oshirish masalalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim sifati, o‘qituvchi malakasi, darslik, ona tili va o‘qish savodxonligi, islohotlar, ta‘limdagi o‘zgarishlar, amaliyot jarayoni

Kelajak- yoshlar qo‘lidadir. Shu bois ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning ta‘lim olishi, qiziqishlari, imkoniyatlariga nihoyatda katta ahamiyat bermoqda. „Eng yaxshi investitsiya ta‘limga kiritilgan investitsiyadir“- deb ta‘kidlaydi yurtboshimiz . Shu bois, ta‘lim tizimida, ayniqsa, maktablarda olib borilayotgan islohotlar ta‘lim sohasida tub burilish yasamoqda .

Biz Andijon davlat Pedagogika Universiteti talabalari o‘z amaliyot jarayonimizda oliy ma‘lumotli, mahoratli pedagoglardan o‘rnak olgan holda dars jarayonlarini kuzatib xulosa qildik. O‘zimiz o‘qigan boshlang‘ich sinflar va hozirgi kundagi boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini taqqoslab, bugungi kunda yurtimiz qay darajada yaxshi natijalarga erishganini tahlil qildik. Barchamizga ma‘lumki, nazariya boshqa amaliyot boshqa. Biz dars jarayonlarida o‘rgangan metodlar, nazariy bilimlarni esa bolalarda qo‘llash juda mushkul. Aytib o‘tish joizki, bugungi zamon yoshlarining

rivojlanishi ilgarilab ketmoqda. Avval o‘tiladigan ko‘plab bilimlar yoshlarimizning salohiyati uchun yetarli bo‘lmay qoldi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, bu akseleratsiya jarayoni bo‘lib, bolaning odatdagidan tezroq rivojlanishidir. Shu masalalarni hisobga olgan holda Ta’lim vazirligi tomonidan bir necha islohotlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, dars jarayonlari, maktab darsliklari, o‘tiladigan mavzular ko‘lami kabi. Albatta, bunda ta’lim sohasi rivojlangan, dunyo uchun namuna sifatida ko‘rsatilayotgan davlatlardan andoza olgan holda yo‘lga qo‘yilmoqda. Biz o‘z amaliyot jarayonimizda guvoh bo‘ldikki, maktablarda, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda yangiliklar katta bo‘lib, ulardan biri darsliklarga o‘zgartirishlar kiritilganidir.

Bular orasida e’tiborimni 1-2-sinflarning o‘quv darsliklaridagi o‘zgarishlar o‘ziga tortdi. Unga ko‘ra, 2021-yildan yangi nashrda chiqqan Ona tili va o‘qish savodxonligi kitobini oladigan bo‘lsak. Bu kitob mutlaqo o‘zgacha nashrda chiqqan bo‘lib, avvalgilarini umuman takrorlamaydi. Ona tili va o‘qish kitoblarining birgalikdagi jamlanmasi bo‘lib, bola uni o‘qish jarayonida til qoidalari bilan tanishmaydi, biroq mashqlarni bajarish orqali o‘zi uchun qoida yaratadi. Bu kitobning menga yoqqan jihati shundaki, o‘quvchi darslik orqali faqat aytilgan topshiriqlarni bajaribgina qolmay o‘zi mustaqil fikrlashga, kelajakdagi rejalarini aniqlashtirib olish imkoniyatiga, shuningdek, O‘zbekiston rivojlanishi uchun haqiqiy asos bo‘lib xizmat qiluvchi barkamol shaxs bo‘lib yetishadi. Darslik ustida bir necha olimlar, malakali rassomlar, o‘z ishining ustalari ishlagani bilinib turadi.

Berilgan matnlar bilan ishlash bilan bir qatorda o‘quvchi oldiga bugungi kun talablariga mos bir necha savollar qo‘yiladi. Misol tarzida aytiladigan bo‘lsa, agar qo‘lingizda katta sarmoya bo‘lsa, uni nimaga sarflaysiz yoki kelajakdagi biznes rejalaringgizni qay tartibda tuzishinggizni gapirib bering kabi. Bola bu savollarga javob berish jarayonida o‘z oldiga yoshlikdan maqsad qo‘yishni va shunga ertaroq harakat qilishga o‘rganadi. Shuningdek, kasblar va ularning bajaradigan ishlari bo‘yicha quruq hulosaga kelib qolmay, ularning mohiyati, zimmasidagi vazifalari

haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Darslikda bolalarning yoshiga mos tarzda mashqlar, topshiriqlar, qiziqarli muammoli masallar yoritilgan. Shuningdek yangilik tarzda aytish mumkinki , sinfda birgalikda bajariladigan topshiriqlardan tashqari o‘quvchining partadoshi bilan birgalikdagi bajariladigan toshiriqlar ham kiritilgan. Shuningdek, audio mashqlar ham mavjud. Bunda o‘quvchi audio matnni eshitadi so‘ngra esda saqlab qolgan ma’lumotlari asosida savollariga javob beradi, o‘zining mustaqil fikrini bildiradi. Bir gap bilan aytish mumkinki, ushbu darslik avvvalgilariga nisbatan taqqoslaganda o‘quvchini ko‘proq mustaqillikka, ahillikka, nutqiy qobilyatini rivojlantirishga undaydi. Mashq bajarish jarayonida sinfda guruh bo‘lib ishlash jarayonidagi kamchiliklar yopilib ketmaydi. Garchi boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarining dastlab ushbu darslikni o‘qitishda ayrim noqulayliklar bo‘lsa-da darslikni yaxshiroq mohiyatiga yetish maqsadida tinmay o‘zlaring ustida ishlamoqdalar. O‘ylaymanki, yangi Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining samarasi tez kunlarda sezilarli darajada bilinadi.

Biz talabalar mana shu amaliyot jarayonida o‘qituvchining bolalarga qanday ta’lim berishini, metodlarini kuzatdik. O‘quvchilar yanggi darslikka tez moslashmoqdalar. Albatta, o‘qituvchi har bir bolaning taqdiri uchun mas’uldir. Shuning uchun ham har bir bola bilan nafaqat guruh tarzida ishlash, balki dars jarayonida yoki darsdan tashqari ham individual ishlashi lozim. Faqat shundagina ta’lim jarayonining samarasi, pedagogning yuksak mahorati ko‘rinishi mumkin. Buning uchun esa, albatta, mana shu darslik ham katta yordam beradi.

Mening fikrimcha, ta’lim samarasining oshishi , ayniqsa, bizga – boshlan-g‘ich ta’lim o‘qituvchilariga bog‘liq. Shu bois ham biz o‘z ustimizda ko‘proq ishlashimiz, kasbimizning naqadar mas’uliyatli ekanini anglab yetishimiz lozimdir. Zero bola gul bo‘lsa, o‘qituvchi bog‘bondir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyounet.uz
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi 2-sinf Toshkent-2021y
3. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Qarshi:Nasaf 2005
4. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. -T:Fan 2009
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati -T: O‘qituvchi, 1978
6. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qarori



XALQARO TADQIQOT TURLARI ENDI O‘ZBEKISTONDA

Yo‘ldasheva Gulira’no, Rahmonova Nasibaxon

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich 201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro tadqiqot turlari: PISA, PIRLS TIMSS kabilar haqida batafsil ma’lumot berib o‘tilgan hamda bu tadqiqot turlarining O‘zbekiston rivojidagi muhim o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ushbu tadqiqot turlarining o‘tkazilishi batafsil bayon etilgan. Maqola orqali dunyo hamjamiyatining ilg‘or davlatlarining ta’lim tizimi va ta’lim sifati haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Kalit so‘zlar: Xalqaro tadqiqot turlari: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, dunyo ning ilg‘or 50ta davlatlari, 180ta maktab, 5948 nafar o‘quvchi, o‘qish darslari , matematika va tabiiy fanlar, savodxonlik darajasi.

So‘nggi 5 yillikdan xulosaga kelib aytish mumkunki, O‘zbekiston Respublika-si beqiyos darajada o‘zgarishlarga yuz tutdi. Bu o‘zgarishlar har jabhada, jumla-dan ta’lim sohasida ham o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda. Respublikamizni yanada rivojlantirish, dunyoning eng ilg‘or davlatlari qatoriga qo‘shish maqsadida eng avvalo ta’limda islohotlar o‘tkazildi. Dunyoning yetakchi davlatlarining ta’lim tizimini o‘rganib, yutuqlaridan namuna olindi. Yangicha dars uslublari joriy etildi. Shuningdek, mana shu islohotlar samarasini bilish va dunyoning yetakchi 50 taligiga qo‘shilish uchun yurtimizda ham xalqaro tadqiqotlar joriy etildi.

Vazirlar mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifati baholash sohasidagi Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori Respublika Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish , xalqaro aloqalarni o‘rnatish,

o‘qituvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini , eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida chiqarilgan. Qarorda quyidagi Xalqaro Baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar tashkil etilishi qayd etilgan:

Progress international reading and literacy study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun qo‘llanadi ;

Trends in international mathematics and science study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The programe for international student assessment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish , matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

Ushbu xalqaro baholash tadqiqot turlarining har biri bilan batafsilroq tanishib chiqsak. Dastavval, PISA tadqiqotidan boshlaymiz . PISA bu turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi test bo‘lib, 78ta mamlakatda o‘tkaziladi. Har bir mamlakatda 45mingdan 10ming nafargacha o‘quvchi test sinoviga jalb etiladi. PISA tadqiqotining asosiy maqsadi maktabni tugatgandan so‘ng, o‘quvchilar faol hayot pozitsiyani egallashganlariga imkon beradigan chuqur bilimga egalik darajasini baholashdir.

Keyingi Xalqaro dastur bu TALIS bo‘lib, inglizchada kenggaytmasi The Teaching and learning international survey – rahbar pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish hamda ta‘lim olish muhiti hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun xizmat qiladi.

PIRLS tadqiqotida esa dunyoning ilg‘or 50 dan ortiq davlatlari ishtirok etib kelmoqda . Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta‘lim tizimidan iborat bo‘lgan davrlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta‘lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan

iborat. Ma'lumki, mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham 2021-yildagi PIRLS xalqaro baholash dasturida 76 ga yaqin davlatlar qatorida ilk marotaba ishtirok etdi. Bunda Respublika bo'yicha jami 180 ta maktab tanlab olindi va 5948 ta o'quvchi qatnashdi. Bu dastur har 5 yilda o'tkaziladigan dasturdir.

Maktab matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi - TIMSS bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidan tashkillangan. Ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'limning 4-sinf o'quvchilari va 8-sinf o'quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar darajasini va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi. TIMSS xalqaro tadqiqoti 4 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Shu kunga qadar 6 marta o'tkazilgan. 1995-yildan 3 marotaba maktab bitiruvchilarining yutuqlarini aniqlashni o'z ichiga olgan holda kengaytirilgan tadqiqot ishlari olib borildi. TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta'limi sifatiga solishtirma baho berishdir. Har 4 yil davomida 4- va 8- sinf o'quvchilarining bilimiga baho berib boriladi va shu bilan birga nafaqat ularning bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanga bo'lgan munosabati, qiziqishi hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishtirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu tarzda maktabning boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining bilim va yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda va majmua ishlanmasida dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari va professional tashkilotlar ishtirok etadi. Ta'lim sohasidagi test xizmatlari: Kanadaning statistik markazi, Ta'lim yutuqlarini baholash Xalqaro Asotsiasiyasining sekretarianti, Ta'lim yutuqlarini baholash Xalqaro asotsiasiyasining ma'lumotlar markazi vahokazo.

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy o'sishining eng muhim omillari hisoblanadi. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlari uchun dolzarbdir. Shuning uchun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son” 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida “gi farmonida O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi belgilangan.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiyasi tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining „ Xalq ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini baholash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
2. Ziyonet.com
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son qarori.
4. 2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
5. Sariyev SH.U „ Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali xalqaro tadqiqotlarda samarali natijalarga erishish imkoniyatlari”

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH

Alimova Komila Dekanovna

Toshkent davlat stomatologiya institute

O'zbek tili va pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

komila.alimova13@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash. Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish tibbiy atamalarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, anatomiya, gistologiya, sitologiya, terapiya va stomatologiya hamda dorishunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье определены приоритеты системной реформы высшего образования в Республике Узбекистан, подготовка высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, независимым мышлением. Преподавание узбекского языка в высшей школе направлено на изучение медицинских терминов и должно быть тесно увязано с такими дисциплинами, как анатомия, гистология, цитология, терапия и стоматология, фармакология.

Annotation: This article identifies the priorities of the systemic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, the training of highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities, independent thinking. The teaching of the Uzbek language in higher education is aimed at studying medical terms and should be closely linked to such disciplines as anatomy, histology, cytology, therapy and dentistry, and pharmacology.

Kalit soʻzlar: Renessans, kredit-modul, tizim, modul, terminologiya, atama, metod, tafakkur.

Ключевые слова: Ренессанс, кредитный модуль, система, модуль, терминология, термин, метод, мышление.

Keywords: Renaissance, credit module, system, module, terminology, term, method, thinking.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston yoshlari forumida soʻzlagan nutqida shunday fikrlar bor: “Biz bugun oʻz oldimizga ulkan marralarni qoʻyganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha taʼlim, maktab va oliy taʼlimni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni boʻlgʻusi Renessansning eng muhim boʻgʻinlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz.”

Vatanimizda kechayotgan yangilanishlar ijtimoiy–iqtisodiy yoʻnalishlardagi ijobiy oʻzgarishlar Oʻzbekistonni jahonga tanitmoqda, yaʼni Oʻzbek modelini jahon tan olmoqda. Bu ayniqsa, ijtimoiy islohotlar sirasidagi taʼlim tizimini yangilash, xayotiy zaruriyat tufayli davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Taʼlim jarayonidagi oʻquv reja, dasturlar tajriba sinovidan oʻtkazildi va yangi taʼlim tizimi asosida darslik hamda oʻquv adabiyotlari jahon andozasi talabi darajasida mos ravishda tayyorlash ishlari jadal surʼatlar bilan olib borilmoqda. Jahon ilm fan va texnologiyasining rivojlanishi hamda mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan barcha yoʻnalishlarda, shuningdek, tibbiyot yoʻnalishidagi aloqalari shu sohadagi hamma fanlar kabi oʻzbek tili va tibbiy terminologiya fanining takomillashuvini taqozo etmoqda. Oliy taʼlimda oʻzbek tili fanini oʻqitish tibbiy atamalarni oʻrganishga qaratilgan boʻlib, anatomiya, gistologiya, sitologiya, terapiya va stomatologiya hamda dorishunoslik kabi fanlar bilan uzviy bogʻliq boʻlishi kerak.

Taʼlimga bunday yondashish talabalarning oʻquv jarayonida va kelgusi amaliy faoliyatlarida uchraydigan tibbiyotga oid lotin, ingliz, va rus tillaridagi

terminologiyani ongli ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Tibbiyot fanlari va tabobatda qo'llanuvchi tibbiy atamalarni mukammal o'rganib, o'zlashtirish o'zbek tili va tibbiy terminologiya fanining asosiy maqsadidir. Tibbiyot oliy ta'limgohlarida taxlis olayotgan talabalar ta'lim jarayonidagi har bir mashg'ulotda darslikdagi grammatik ma'lumotlar va mavzulardan tashqari yodlashlari zarur bo'lgan 30-40 tibbiy atamalar bilan tanishishlari lozim. Dastlabki dars mashg'ulotlarida anatomiya va stomatologiyaga oid so'zlar yodlashga berilsa, talabalarning talaffuzi, nutqi rivojlanadi, hamda fanga va kasbiga bo'lgan qiziqishi ortadi. Yodlashga beriladigan tibbiy atamalarni kasbiy yo'nalish xususiyatiga moslashtirish kerak. (masalan: stomatologiya va davolash ishi yo'nalishlarida inson anatomiyasiga urg'u berilsa, stomatologiya yo'nalishlari uchun og'iz bo'shlig'i sohasiga e'tiborni qaratish kerak). O'zbek tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitish yakunida talabalarning so'z boyligi 700-900 tibbiy atamalardan iborat bo'lishi kerak. Anatomik terminlar, fiziologik jarayonlar kasalliklarning nomlari patologik xolatlar dorivor moddalar va shifobaxsh o'simliklarning nomlari, dori-darmon hamda shunga o'xshashlar talaba lug'at boyligining asosini tashkil etishi lozim. Bugungi zamon pedagogikasida, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik yondashuvlar asosida yoshlarga tarbiya berishning maqsadi ta'limning barcha bosqichlarida barkamol shaxsni har tomonlama komil inson va intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Shuningdek, jahon hamjamiyatligida mamlakatimizning xalqaro andozalari zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, o'zining erkin fikriga ega bo'lgan, tafakkurli, malakali, bilimli, zukko mutaxassislarni tayyorlash nazarda tutiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilishda pedagoglar va tarbiyachilarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq keladi. Talaba qobiliyatini rivojlantirishda pedagogning roli muhim. Ta'lim sifatini oshirishda pedagog mahoratining ahamiyati betakrordir. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim

metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasining ko’tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligi tez-tez rag’batlantirilib turilishi kerak. O’quv materiallarini kichik – kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda “aqliy xujum”, “bahs-munozara”, “muammoli vaziyat”, “rolli o’yinlar” va “baliq skleti”, “nilufar guli” kabi o’nlab interfaol metodlardan foydalanishlari mumkin. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol yoki interaktiv metodlar o’zida an’anaviy ta’lim tizimidagi kamchiliklarni takrorlamasligi bilan, aksincha ta’lim oluvchini faol shaxsga aylantirib qo’yishi bilan, uning tafakkur taraqqiyotiga imkoniyat yaratib berishi bilan tavsiflanadi. Oldindan rejalashtirilgan o’quv- tarbiyaviy jarayonda innovatsion texnologiyalarni amaliyotda uzluksiz tadbiq etish ta’lim oluvchi uchun ham, ta’lim beruvchi uchun ham faqat koni foydadir. O’zbek til o’rganishda, amaliy mashg’ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o’zining ijobiy natijalarini ko’rsatmoqda. Yangi pedagogik usullardan foydalanish nafaqat talabalarga, balki pedagoglarga ham ta’lim berish jarayonini yengillashtirib bermoqda. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni yechishda o’z o’rnida ishlatilsa, u shubhasiz faoldir. Dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning yana bir foydali jihati shundaki, bu jarayon yordamida o’qituvchi ham o’z ustida ishlab, shu bilan malakaviy ko’nikma va kasbiy mahoratini oshiradi, natijada uning mashg’ulotlari qiziqarli olib boriladi. Bugunga kelib ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan o’qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o’qitiladigan fanlar bo’yicha sifatli bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilishni ta’minlovchi pedagogik usullarni qo’llay bilishi lozim. Zamonaviy

texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o‘rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan amaliy yo‘llanmalar ishlab chiqishi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirgandan so‘ng, uni ta‘lim tizimiga joriy eta olish kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda texnik vositalardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish talaba va pedagogning mehnatini yengillashtiradi. O‘qish, nutqni tinglab tushunish, gapirish va yozishni o‘rganishda o‘quv texnika vositalarining ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni. T, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». T, 1997.
3. Oliy va o‘rta maxsus kasb-ta‘lim kadrlar milliy va qayta tayyorlash me‘yoriy uslubiy hujjatlar 2008–y.
4. Reutova YE.A. *Primeneniye aktivnykh i interaktivnykh metodov obucheniye v obrazovatelnom protsesse vuzax. Metodicheskiye rekomendatsii dlya prepodavateley Novosibirskogo GAU.-N: izdvo NGAU, 2012-S-3-10 CHET*
5. Sulaymonov Y. Remarkalar haqida. «Til va adabiyot ta‘limi»jurnali, 2005 y, 5-son, 67-68-bet.

МЕВАЛИ ДАНАҚЛАР МАҒЗИНИНГ ХУЖАЙРАЛАРИ ВА СТРУКТУРА ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ ВА ЁҒЛИЛИҚДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШ

қ.х.ф.д проф. **Ибрагимов Алижан Аминович**

Фарғона давлат унверситети

докторант, **Мамажонов Иродахон Рахматовна**

Фарғона давлат унверситети

Аннотация

Мева данаклар мағзининг хужайралари ва структура элементларини ўрганиш ва ёғлилик даражаси ёш хужайралар мағз марказида, ёши каттасида хужайра девори яқинида жойлашади. Электрон микроскоп орқали хужайрани тадқиқот қилиш унинг мураккаб тузилишини ва цитоплазма органондларининг ҳар хил эканликларини кўрсатади. Замонавий усуллар хужайра деворининг юпқа тузилишини, унинг митохондрий, хлоропластлар, рибосомалар, асосий органондларнинг, шунингдек, мембраналар системаси ва бошқаларни аниқлаш ҳамда ўрганиш имкониятини берди

Калит сўзлар: мойли ўсимлик уруғлари, майонез, саломас, хўжалик совуни, атир совун, дистиляцияланган ёғ кислоталари, фосфатид концентратлари, глицерин, ёғ кислоталари митохондрий, хлоропластлар, рибосомалар.

Ҳозирги кунда республикамизда кўпгина мойли ўсимлик уруғларини қайта ишлайдиган корхоналар фаолият юритмоқда. Бу корхоналарда ёғ–мой ишлаб чиқариш озиқ–овқат саноатининг энг салмоқли соҳаларидан бири ҳисобланиб, унда хом ашёдан ёғ ишлаб чиқариш билангина чекланмайди, балки олинган ёғни саноат чиқиндиларини қайта ишлаб, турли хил мойли маҳсулотлар пахта чигити, соя, рапс мойлари, мева данаклари ва сабзавот

уруғларидан мой олиниб, бу мойлардан атир – упа, фармацевтика ва озик – овқат саноатининг турли соҳаларида ишлатиладиган маргарин махсулотлари, майонез, саломас, хўжалик совуни, атир совун, дистилляцияланган ёғ кислоталари, фосфатид концентратлари, глицерин, ёғ кислоталари, техника мақсадлари учун ва бошқа махсулотлар ишлаб чиқарилади. Мева уруғлари тўқималардан ташкил топган бўлиб, бу тўқималар ўсимликларнинг асосий функционал бирлигини билдирувчи бир неча минг хужайрадан иборат. Қўлланилиши ҳар хил бўлган тўқима хужайралари орасида катта фарқ кузатилади. Бу фарқ морфологик хусусиятлардан фойдаланиб тўқиманинг мойиллигини, унинг муайян ишда қўлланилиши, баъзан ўсимлик турини аниқлашга имкон беради. [1]

Асосий тўқиманинг специализацияси махсулиги уларда хужайралар таркибининг ривожланишини ва хужайра озуқа моддаларининг синтезини тақозо этади. Шу билан бирга шакли, катталиги ва кимёвий тузилиши бўйича фарқ қиладиган алоҳида олинган хужайралар тўқиманинг физиологик функцияси, ёғли ўсимликнинг тури ва ёшига нисбатан хужайра учун бир хил бўлган ягона тузилишини сақлайди. Хужайранинг ўзига хос хусусияти бўлиб унда мавжуд бўлган пўстлоқнинг қаттиқ қисмларини ўтказишга имконияти йўқлигидир.

Эволюциянинг бошланғич даражаларида ўсимликлар эгаллаб олган хужайранинг қаттиқ пўстлоғи хужайра таркибининг керакли бўлган ҳимоясини таъминлар эди ва унинг теварак атрофдаги муҳитдан озикланиши учун шароит яратади. Теварак атрофдан хужайрага озуқалар фақатгина эриган ҳолатида тушади. Хужайранинг пўчоғи остида цитоплазма жойлашган бўлиб, унга хужайра мағзи, ҳар хил тузилиш ва функцияга эга бўлган кўп сонли органондлар тўпланган. Оптик микроскоп орқали кўрилган вақтда ўсувчи хужайраларнинг цитоплазмаси, масалан, уруғларнинг пишиши, етилиши ва ўсишида тиниқ ярим суюқ уруғли тузилишли массани билдириб унда алоҳида органоидлар кўринади. Ёш хужайраларда мағз марказда, ёши каттасида

хужайра девори яқинида жойлашади. Электрон микроскоп орқали хужайрани тадқиқот қилиш унинг мураккаб тузилишини ва цитоплазма органондларининг ҳар хил эканликларини кўрсатади. Замонавий усуллар хужайра деворининг юпқа тузилишини, унинг митохондрий, хлоропластлар, рибосомалар, асосий органондларнинг, шунингдек, мембраналар системаси ва бошқаларни аниқлаш ҳамда ўрганиш имкониятини берди. Ўсимлик хужайрасининг цитоплазмасида эндоплазматик ретикулум (эндоплазматик тармоқ), Гольджи аппарати ажратувчи системаси ва бошқалар аниқланган. Ёғни механик усули ёрдамида олиш хужайра таркибини қисман бузиш учун хом ашёни янчиш зарурлигига, шунингдек, унинг сўнгги намлик, иссиқлик ишлов бериш жараёнини яхшилашга асосланган.

Данак мағзининг физиологик – биокимёвий хусусиятларининг ўзгариши ва иссиқлик таъсирида ишлов беришда ёғ сифатининг тахлили.

Данакдан ёғ ишлаб чиқариш технологик тизимида мағзларни иссиқлик ишлов бериш жараёни алоҳида ўрин тутаяди. Бу жараён ёғ ишлаб чиқаришдан олдин сўнгги жараён бўлиб ҳисобланади. Ажралиб чиқадиган ёғ миқдори ва сифати асосан температура режимида иссиқлик ишлов бериш жараёни ва бошқа шароитларнинг давом этишидан боғлиқ бўлади. Иссиқлик таъсирида иссиқлик ишлов бериш сифатининг асосий хусусиятларидан бири бўлган кислоталилик сонига таъсир қилади. Иссиқлик ишлов бериладиган данак мағзларига оленка кислотасининг оксидланиш жараёни ўтиб оксидлар, оксикислоталар, сўнгра паст молекулалар, кислоталар ҳосил бўлади ва улар мағзнинг температураси қанча юқори бўлса шунча даражада интенсив боради.

Паст температура остида иссиқлик ишлов бериш триациглицеринларни гидролизланиб ди ва моноациглицеринларни ҳамда эркин ёғ кислоталарини ҳосил бўлишига олиб келади. Шунинг учун иссиқлик таъсирида иссиқлик ишлов бериш оптимал температура остида олиб борилиши мақсадга мувофиқ бўлиб ҳисобланади, чунки бу гидролитик жараёнларни минимумга олиб келади

ҳамда оксидларнинг парчаланиши ва юқори температураларда липидларнинг боғланишини олдини олади.[3]

Маълумки, мева данаги мағзларининг катта қисмини глобулинлар (90 % гача) ташкил қилади [2]. Оксилларга ишлов беришда содир бўладиган оксиллар денатурациясининг тезлиги ва даражаси иситиш температураси, иссиқлик таъсирида ишлов беришнинг давомийлиги ва оксилларнинг намлигига боғлиқ бўлади. Оксиллар денатурация температураси қанча даражада юқорилиги, иссиқлик ишлов бериш вақти ва оксил намлигига қараб шунча интенсив боради.

Мева данаги мағзларнинг ҳужайралари ва тўқималарида уларнинг ҳаёти жараёнида муҳим аҳамияти бўлган минерал элементлар (моддалар) аниқланган.

Данак мағзларида алоҳида элементлар (моддалар) нинг миқдори ўсимлик турига боғлиқ бўлади. [3].

Минерал моддалар ҳужайра ичида биокимёвий жараёнлар боришида ҳар хил ферментларнинг активлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Углеводлар бажарадиган функциясига қараб захирадаги (крахмал), таркиблилар (целюлоза) ва ҳимояловчиларга бўлинади. Данакнинг ёш мағзларида крахмал деярли оз миқдорда бўлади. Мева данаги мағзлари ва унинг ҳар қайси қисмида мавжуд бўлган витаминлар юқори температура остида бузиладилар. Данакларнинг ўзига хос хусусияти бўлиб, уларнинг мағзида глюкозид амигдаминнинг $C_{19}H_{27}O_{11}CN$ борлигидир. У сув иштирокида фермент таъсирида бензальдегидциангидрин глюкозага ва сувга ажралади:



амигдалин бензальдегид глюкоза циангидрин

Сўнгра бензальдегидциангидрин бензалдегид ва водород цианид (синил кислотаси) га парчаланеди:



Температура ошишида юқорида кўрсатиб ўтилган жараёнлар кучаяди. Амигдаминнинг ферментатив гидролизи мағзнинг намлиги ва температурасига ҳамда иссиқлик таъсирида ишлов беришнинг давом этиш вақтига боғлиқ бўлади. Юқорида айтиб ўтилганидек мева данаги мағзида иссиқлик таъсирида борадиган биокимёвий жараёнларнинг интенсивлиги асосан иссиқлик ишлов бериш таъсирида ишлов беришнинг температураси ва давом этиш вақтига боғлиқ бўлади, иссиқлик ишлов беришнинг қанча вақт давом этишига ва мағз температураси юқорилигига қараб мағзда мақсадга мувофиқ бўлмаган биокимёвий жараёнлар шунча интенсив боради (ёғнинг мағзда оксидланиши оксиллар денатурацияси, амигдамин гидролизи, витаминлар бузилиши ва ҳоказо).

Мева данакларининг технологик характеристикаси

1-жадвал

| Кўрсаткичлар | Ўрик | Шафтоли | Олча | Бодом |
|---------------------------|----------|---------|---------|---------|
| Узунлиги | 18-27 | 20-31 | 10-13 | 23-44 |
| Кенглиги | 16-22 | 17-25 | 7-13 | 13-25 |
| Қалинлиги | 11-15 | 12-17 | 5-9 | 8-15 |
| Данак таркибидаги мағз, % | 20-33 | 10-15 | 12 | 30 гача |
| Мағз таркибидаги липид, % | 35-40 | 35-46 | 30 гача | 35-46 |
| Таркибидаги амигдалин, % | 8,8 гача | 1,8-3,6 | 1,8 | До 3,5 |

Буларнинг ҳаммаси биргаликда мағиз технологик хусусиятларининг ёмонлашувига, олинадиган ёғ сифати ва фойдали хусусиятларининг

пасайишига олиб келади. (кислоталилик сонининг ошишига, рангнинг ўзгаришига, аччиқ таъмга, ўткир ҳидга). Шунинг учун ёғли хом ашёнинг иссиқлик таъсирида ишлов берилиши шундай олиб борилиши керакки, бунда хом ашё температураси 75 – 80 °С дан ошмаслиги ва мағзнинг кейинги экстракциясида уни вальцовкадан инфрақизил нурлари таъсирида ишлов беришдан олдин қисмларга ажратилади.

Мева данаклари ёғининг физик – кимёвий характеристикаси

2-жадвал

| Кўрсаткичлар | Ўрик | Шафтоли | Олча | Бодом |
|-----------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Зичлик 15°С, кг/м ³ | 915-921 | 914-921 | 918-925 | 915-920 |
| Нурни синдириш курсаткичи 20°С | 1,470- 1,476 | 1,468- 1,471 | 1,471- 1,473 | 1,470- 1,472 |
| Қотиб қолиш температураси, °С | 12 -22 | 10-21 | 20-23 | 5-8 |

Хулоса қиладиган бўлсак бугунги кунда иқтисодиётимизнинг самараси ҳақида сўз юритар эканмиз, шуни тан олишимиз керакки, бу йўналишда эскидан қолган ва ҳали бери рўй бериб келаётган оқсоқлик ҳолатлари борлиги, биринчи навбатда ишлаб чиқарилаётган махсулотларнинг материал ва энергия сарфи юқори даражада сақланиб қолаётгани аён бўлади. Республикамизда яшовчи аҳолининг 60 % дан кўпроғи қишлоқ хўжалик махсулотларини етиштириш билан шуғулланади. Қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган махсулотларини қайта ишлаш, қайта ишлаш йўли билан олинадиган тайёр ва ярим тайёр махсулотларни экспорт қилиш, ҳамда халқимиз истеъмоли учун зарур бўлган юқори сифатли, арзон махсулотларни етказиб бериш,

етиштирилаётган махсулотларни узок муддатда саклаш учун янги техника ва технологияларни ишлаб чиқиш ва қўллаш долзарб муаммоли вазифалардан бўлиб келмокда.

АДАБИЁТЛАР

1. Сафаров А.Ф. Влаготепловая обработка масличных культур. Дисс...докт.техн.наук-Ташкент: 1992.
2. Гафуров К.Х. Совершенствование и интенсификация процесса сушки ядер плодовых косточек. // Дис...канд.техн.наук – Ташкент, 1994.
3. Ҳалимова У. Ҳ. “Ўсимлик ёғлари ишлаб чиқариш технологияси”. – Тошкент. “Ўқитувчи” 1982..
4. Артиков А.А., Маматкулов А.Х., Хамидов Н.И. Анализ и синтез биотепломассообменных процессов. -Ташкент.: Фан. 1994.
5. Артиков А.А. и др. Электрофизические методы воздействия на пищевые продукты. -Ташкент.: Фан АН Узбекистана. 1992.



YURTIMIZ TARAQQIYOTIDA TARBIYANING AHAMIYATI

Rahmonova Nasibaxon, Yo‘ldasheva Gulira’no

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, mana shu rivojlanishning omillari, shuningdek, hayotimizning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lmish tarbiya haqida so‘z yuritiladi. Prezidentimizning ushbu dolzarb masala yuzasidan qilayotgan islohotlari, oliy ta‘lim va maktab ta‘limida tarbiya fanlariga doir kiritilayotgan o‘zgarishlar, buyuk bobokalonlarimizning tarbiya haqidagi o‘z fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, Abdulla Avloniy, hikmatlar gulshani, tarbiya fan sifatida, boshlang‘ich sinflarda tarbiya fani, islohotlar.

Barchamizga ma‘lumki bugun biz texnika asrida yashamoqdamiz. Zamon bilan hamnafas yashash bilan birgalikda o‘zligimizni, ota-bobolarimizdan qolgan udumlarimizni ham unutmashimiz lozimdir. Biz, o‘zbek xalqining boshqa millatlardan ajralib turuvchi jihatlarimiz ham ayni mana shu milliy udumlarimiz, an‘analarimiz, tarbiyamizdir.

Bugungi kunda tarbiya biz uchun nihoyatda dolzarb masala bo‘lib qoldi. Boisi, yurtimiz taraqqiyotga erishish bilan birgalikda g‘arb madaniyati ham kirib kelmoqda. Barchamizga ma‘lumki inson ta‘nasiga qandaydir kasallik kelsa, uning tanasidagi immunitet bu kasallikka qarshi kurashadi. Bizning ham mana shu „kasallik“ka qarshi kurashuvchi immunitetimiz bu milliy tarbiyamizdir. Yurtboshimiz buni juda yaxshi anglagan holda, milliy tarbiyamizni targ‘ib qiluvchi islohotlar o‘tkazmoqda. Oliy ta‘limda va maktab ta‘limida maxsus tarbiya darslari tashkillashtirilgan. Albatta,

hamma o‘z sohasidan kelib chiqqan holda mavzuni bayon qiladi. Men ham bo‘lajak pedagog sifatida bu masalani boshlang‘ich sinflar yuzasidan tahlil qilmoqchiman.

Barchamizga ma‘lumki, avvallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun odobnoma fan sifatida o‘rgatilar edi. Ammo bir necha yillardan buyon bu darslikning samarasi sezilarli darajada bilinmadi. Ammo so‘nggi yillarda maktab ta‘lim tizimida bir qancha o‘zgartirishlar kiritilib, bu fan dars jadvalidan olib tashlandi. Uning o‘rniga esa tarbiya fani kiritildi. Bu kitob mutlaqo yangicha ko‘rinishda bo‘lib, o‘quvchiga tarbiya nima ekanini anglatgan holda, o‘z mustaqil fikrlarini bayon qilishga ham undaydi. Bola mustaqil fikrlash jarayonida tarbiyaning tub mohiyatini anglab yetadi. Shu bois ham men bu darslikning samarasi tez orada bilinishiga umid qilib qolaman.

Endi esa tarbiya tushunchasining tub mohiyatiga nazar solsak. Tarbiya bu- yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va va xulq atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib insonning jamiyatda yashashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptirishning jarayonlaridir. Ta‘kidlash joizki, buyuk jadidchi bobomiz Abdulla Avloniy ham tarbiyaga quyidagicha ta‘rif berib o‘tgan: „ Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”

Tarbiya bu keng qamrovli tushuncha bo‘lib, bizga ota-bobolarimizdan qolgan azaliy merosdir. Tarbiyasiz inson komil bo‘la olmaydi. Yaxshi tarbiya yetuklikka qo‘yilgan ilk qadamdir. Shu bois ham ajdodlarimiz tarbiyali insonlarni e‘zozlaganlar, hurmatini joyiga qo‘yganlar. Zero inson zoti Olloh yaratgan narsalarning gultojidir. Ota-onalarimiz ham bolalarining tarbiyali bo‘lishlari uchun jon jahdi ila harakat qiladilar. Xulosa qilib aytganda, tarbiya biz uchun, milliy mintalitetimiz uchun asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo bugungi kunda tarbiya masalasida biroz oqsamoqdamiz. Televideniya orqali ommaga havola etilayotgan ayrim chet davlatlarining kinolari, seriallari orqali

yoshlarimiz gʻarb madaniyatidan oʻrnak olmoqdalar. Oddiy bir misol tarzida aytish mumkinki, avvallari ota-bobolarimiz otasi oʻtirgan uyning tomiga chiqmaganlar, yuzlariga tik qaramaganlar. Ammo bugungi zamon yoshlarida bu hislatni kamd-kam uchratishimiz mumkin. Yoki boʻlmasam, qoʻshnichilikni olaylik. „Bir bolaga yetti mahalla - ota-ona” degan taʼbir bejiz aytilmas edi. Biror farzand ayb ish qilsa, unga qoʻshnilar ham tanbeh berishar, tarbiya mezonlarini oʻrgatishar edi. Biroq bugungi zamonga kelib koʻpchilik men senga tegmayman, sen ham menga tegma, qabilida ish tutuvchi boʻlib qoldi. Asli bu muammolarga biz, kattalar, sababchi emasmikinmiz? Bolalarni oʻzimiz tarbiyalarini buzmayapmizmi?

Fikrimcha kattalarning aybiga bolalar javob bermasligi lozimdir. Shuning uchun ham, avvalo, biz oʻzimizni tarbiyalashimiz kerak.

Yurtboshimiz ham buni chuqur anglagan holda, oʻquvchilarga tarbiya darslarini oʻqitishni buyurdi. Hattoki oliy taʼlimda ham tarbiya darslari kiritildi. Bola tarbiyani, eng avvalo, uyidan soʻngra birinchi oʻqituvchisidan oladi. Shu uchun ham boshlangʻich taʼlimda oʻquvchi talabalarga bu fan majburiy oʻtiladigan boʻldi. Men yurtboshimizning bu qarorlarini juda oʻrinli deb bilaman. Chunki davlatimiz rivojlanishi bilan birgalikda dunyoning boshqa mamlakatlariga oʻrnak boʻlishi lozimdir. Necha-necha asrlardan buyon bizga meros boʻlib kelayotgan tarbiyani aslidagidek bizdan keyingi avlodga yetkazishimiz darkor. Zero, tarbiyali insondan yomonlik, gʻaraz chiqmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyonet.com
2. Abdulla Avloniy „Turkiy Guliston yoxud axloq”
3. „Tarbiyaviy ishlar metodikasi” B.C.Abdullayev, H.N.Qodirova
4. O. Hasanboyeva, N.Qayumova „Tarbiyaviy ishlar metodikasi” oʻquv qoʻllanma

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Rahmonova Nasiba, Yo‘ldasheva Gulira’no

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh talabalari

Annotatsiya: Bugungi kunda o‘quvchilarda hisob-kitob ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik hayotda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang‘ich ta’limdagi matematika fani o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois, ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishning ahamiyati, maqsad va vazifalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: arifmetik, bilim, ko‘nikma, fan, raqamlash, algebra, geometriya, amallar, material, boshlang‘ich, miqdorlar, xususiyat.

Matematika – fanlar kalitidir. Matematikani bilgan har qanday kishi hayot yo‘lini to‘g‘ri va aniq rejalashtira oladi. Hech e’tibor berganmisiz, matematikada zehni o‘tkir insonlar boshqa fanlarda ham ilg‘orlar: adabiyotda ham, fizika-yu kimyoda ham va h.k. Shuning uchun ham, fikrimcha, kelajagi porloq bo‘lishni istagan har qanday davlat yoshlariga, eng avvalo, ushbu fanni o‘rgatishda tashabbuskorlik qiladi. Buyuk olimlardan biri o‘zining shogirlaridan biri haqida :
„ Uning matematik bo‘lishga tasavvuri yetmadi, shoirlikka o‘tib ketti”- deydi. Shundan ham bilib olish mumkunki, matematik bo‘lish uchun nihoyatda boy tasavvur kerak, hattoki, shoirlardanda tasavvurliroq. O‘z tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkunki, ko‘pchilik matematiklar adabiyot fanini ham teran anglagan holda, adabiyotshunoslar bilan ham tengma-teng bahs olib bora oladilar. Biz ham yurtimiz

taraqqiyoti uchun intiladigan bo‘lsak bolalarimizga eng avval boshlang‘ich sinflardan mustahkam matematik bilimlar berib bormog‘imiz lozimdir. Shu o‘rinda boshlang‘ich sinflarda matematika kurslari, ularning ahamiyati, maqsadi va vazifalari haqida bahs yuritamiz.

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang‘ich kursning asosiy o‘zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Boshlang‘ich sinf matematikasining tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementlarining propedivtik kurslari asosiy bo‘lim shaklida o‘qitilmasdan arifmetik material bilan qo‘shib o‘qitiladi.

2. Boshlang‘ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin o‘nlikni raqamlash o‘qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o‘qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin esa ko‘p xonali sonlar ichida. Bularni o‘qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo‘shib o‘qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari o‘zaro organik bog‘langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog‘lanishlarni ochish kursda o‘zaro bog‘langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi. Masalan, arifmetik amallarni o‘qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, so‘ngra komponentlar orasidagi bog‘lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog‘lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar o‘zaro bog‘lanishda berilgan. Masalan, qo‘shish asosida ko‘paytirish keltirib chiqarilgan boshlang‘ich matematika kursida arifmetik materialning konsentrik joylashuvi saqlanadi. Ammo amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan: o‘nlik, yuzlik, minglik, ko‘p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday katta

guruhlashganki, unda o‘zaro bog‘langan tushunchalar, amallar, masalalarni qarash vaqt jihatidan yaqinlashtirilgan.

Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o‘rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentlari orasidagi bog‘lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig‘indidan qo‘shiluvchilardan biri ayrilsa, ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘ladi). Komponentlaridan birining o‘zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o‘zgarishi kuzatiladi. Algebra elementlarini kiritish, chuqur, tushunilgan va umumlashgan o‘zlashtirish maqsadlariga javob beradi: tenglik, tengsizlik, tenglama, o‘zgaruvchi tushunchalar konkret asosda ochib beriladi.

2-sinfdan boshlab $(x+6)-3=4$ va shunday ko‘rinishdagi tenglamalar qaraladi. Tenglamalarni yechish oldin tanlash metodi bilan so‘ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog‘lanishlarni bilganlik asosida bajariladi. O‘zgaruvchi bilan amaliy tekshirish o‘quvchilarning funksional tasavvurlarini egallashlariga imkon beradi. Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog‘lanishlarni ko‘rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi. (Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchakning teng kvadratlarga bo‘lingan ko‘rsatmali obrazidan ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasi-ni bog‘lanishi ochib foydalaniladi).

1-sinfdan boshlab to‘g‘ri va egri chiziqlar, kesmalar, ko‘pburchaklar va ularning elementlari, to‘g‘ri burchak va hokozo kiritilgan. O‘quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishni, ularni nomlari katakli qog‘ozga sodda yasashlarni o‘rganib olishlari kerak. 1 va 2-sinf boshlang‘ich matematika dasligi yangi nashri chiqqan bo‘lib, bu darslikdagi mashqlari har bir mavzu uchun alohida sanoq tartibida berilgan. Yangiliklardan esa o‘quvchilarni, asosan, yakka tartibda bilim olishga yo‘nalitirilgan matematika kitobda ustoz bilan birgalikda bajariladigan topshiriqlar, partadoshi bilan birgalikda bajarishi kerak bo‘lgan

mashqlar, o‘quvchi mustaqil ravishda bajariladigan va og‘zaki, uyga vazifaga beriladigan topshiriqlar belgilar orqali tushunarli tarzda ifodalangan.

Darslikning bu tarzda tuzilgani o‘quvchilar yoshi uchun mos va xos, aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan va juda samarali. Bu bilimlarni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilar yuqori sinfda o‘qish uchun tayyor bilim bazalariga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyonet.com.
2. 1-2-3-4-sinf matematika darsliklari.
3. „Matematika o‘qitish metodik qo‘llanmasi” o‘qituvchilar uchun
4. N.Hamidova. „Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”

ISAJON SULTON IJODIDA RAMZIYLIK

Ro'zixon Xolmatova

Fargʻona davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Isajon Sulton qalamiga mansub “Qismat” hikoyasidagi predmetlar orqali inson ruhiyatidagi ramziylik aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: arilar, hovli, ustun, qamish, baliq.

ABSTRACT

In this article, the objects belonging to the pen of Isajon Sulton are reflected in the human psuche.

Keywords: wasp, court, post, reeds, fish.

Zamonaviy adabiyotimizning yorqin vakili bo'lgan Isajon Sulton o'z ijodida inson ruhiyatini ramziy obrazlar orqali mohirona tasvirlab bera olgan. Isajon Sulton ijodini tubsiz ummonga o'xshatish mumkin. Yozuvchining ijodi ummoniga sho'ng'iysan-u chiqishga yo'l topa olmaysan kishi.

¹Adibning "Munajat"(1990), "Oydinbuloq"(1995), "Boqiy darbadar" (2011), "Ozod"(2013), "Bog'i Eram"(2015) nomli kitoblari chop etiladi. Ozod romani uchun muallif O'zbekiston yozuvchilar uyishmasining "Vatan uchun yashaylik" Respublika tanlovi g'olibi bo'ldi(2012). Bir qancha hikoyalari xalqaro tanlovlarda sovrinli o'rinlarga loyiq ko'rildi. Shuningdek adibning "Qismat" hikoyasi AQSH ning Chikago shahrida chop etiladigan "Leksikon" adabiy jurnali tanlovida g'olib chiqqan. Ijodkorning "Qismat" hikoyasida

¹ O'zbek adiblari(S.Mirvaliyev,R.Shokirova Toshkend G'ofur G'ulom nomidagi adabiyotlar va san'at nashriyoti.2016)kitobidan.

adibimiz inson ruhiyati va ichki kechinmalarini turli detallar orqali mohirona tasvirlab bergan.

²Ramzlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati naqadar katta ekanligini buyuk faylasuf Konutsiyning "Olamni so'z va qonun emas, balki belgilar ba ramzlar boshqaradi", degan iborasi orqali izohlash mumkin. Umum inson madaniyati va tafakkuri o'ziga xos ko'rinishi hisoblangan ramziylik qadimgi mifologiyada, turli dinlarda, san'atning arxaik shakllarida ko'zga tashlanadi. "Adabiyotshunoslik lug'atida ramzga "ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'zlar birikmasi:obrazlilik turi.

³O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa ramzga quyidagicha ta'rif berilgan: Ramz (arabcha, "Ishora qilmoq"badiiy adabiyotda)- voqelikni badiiy aks etirishing shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridan Ramz majozdan farq qilib mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi.

"Qismat" hikoyasining syujeti o'ziga xos noodatiy tarzda qurilgan. Hikoyaning syujeti konsentrik tarzda ya'ni syujet voqealari bitta asosiy voqea asosida aylanishi. Hikoyada ota mehriqga zor farzand, o'z turmushidan ro'shnolik ko'rmagan ayol va farzand muruvvatiga zor ota obrazlari keltirilgan. Hikoyadagi asosiy voqelik bu ota qarg'ishi va ya'nikim otaning birgina qarg'ishi atrofida barcha voqealar rivoji aks etadi. "Qismat" hikoyasida ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar, o'sha davrdagi ijtimoiy muammolar o'z aksini topgan. Hikoya boshidagi uy tasvirlari orqali qahramonlarni ichki dunyosini belgilar orqali yoritib berolgan.

Ijodkorning "Qismat" hikoyasida "Hovli sho'rlashgan, oqarib qolgan" bu jumla orqali yozuvchi ramziy ma'no ifodalagan ya'ni uch aka-ukaning onasini ko'zlari ojiz, xiralashgan, qarib o'z yoshlik kuchini yo'qotgan va yillar davomida chekkan azob uqubatlarining ifodasi ramziy ma'nolar orqali

² Adabiyotshunoslik lug'ati (D. Quronov umumiy tahrir ostida) Toshkent Akademi nashr. 2010. 244-bet

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2010 y

ifodalangan. Uy tasvirlari esa katta o'g'ilning yillar davomida otasiga nisbatan yuragida yashayotgan nafratni tasvirlab berdi. Ustunlar vaqt o'tishi bilan to'q jigarrang qoramtir tus olib uzunasiga yorilgan. Ba'zi yoriqlarda mayda chumolilar o'rmalashadi. Kattaroq bir yoriqqa sariq arilar in qurgan. Bularing chaqishi erta bahorda kuchli bo'lmaydi. Yoz bo'yi kuch to'playdi. Zaxri kuzda o'tkirlashadi. Ustunlar katta o'g'ilning sabr-u toqati, ular vaqt o'tishi bilan yoriladi. Katta o'g'ilning otasiga nisbatan nafrati yillar sayin kuchayib boradi. Otasiga nisbatan nafrat kuchi qasos o'ti bilan yo'g'riladi. Biz bu holatni ustunlar orasiga in qurgan arilar orqali anglashimiz mumkin. Arilar shira va nektar yig'uvchi hashorot turi hisoblanadi. Hikoyada arilar kabi katta o'g'il ham ancha vaqt mobaynida kuch to'playdi. Zahri esa kuzda o'tkirlashadi. Bolalarning qalblari mehrga tashna. Ular yaproq kabi sal shabbodaga ham shildiraydi. Hikoya asli kichik o'g'ilning zovurda baliq ko'rib qolish voqeasi bilan boshlanadi.

Kichik o'g'il u baliqning tilla baliq ekanligiga, barcha tilaklarini u amalga oshirishiga ishonardi. U sirni kichik akasiga aytadi. Kichik akasining tushiga bir chol kirib juma kuni zovurga otang baliq bo'lib keladi, deb aytadi. U baliq onangning ko'zlarini ochadi deydi. U bu gaplarni akasiga aytadi. Katta o'g'ilning yuragidagi zaharli o'qlar o'sha kuni baliq kiyofasida kelgan ota ko'ksiga qadaladi.

U baliqni onasining ko'zlariga shifo bo'lishi uchun necha yillar davomida bergan azoblarga tovon sifatida onasi uchun uni qovuradi. Katta o'g'il o'z nafratini baliqni ayovsiz qovurayotganda izhor etadi. Baliq poklik ramzi. Suv ostida yashovchi hayvonot olami. Ana endi qozonda jizzillab kuyyabsan, ota. Do'zaxda shunaqa kuyishingni orzu qilgan edim. Xudoyi Taollo shunga belgi qilib seni jo'natdi, jo'natgandayam olovda qovuriladigan qilib jo'natdi. Enamni urganlaringda qo'lingga yopishganlarim esingdami? Mana senga jizzilla jizzillayver. Umr bo'yi ota deb yoningga

yaqinlasholmadim, bir bola bo'lib bag'ringda erkalangim kelsada, haybatingdan o'shqirishingdan cho'chidim.

Isajon Sultonning Qismat hikoyasida oilaviy muammolar turli ko'rinishda o'z yechimini topadi. Har bir kitobxon o'z dunyo qarashi orqali bu hikoyani turlicha tahlil qiladi. Ramz badiiy adimiyotda muhim o'rin tutadi. Isajon Sulton asarlarida keltirilgan predmetlar tasviri ramziylik asosida qurilganligi bilan Abdulla Qahhor ijodi bilan mushtaraklik kasb etadi. Bu ramziylik vositasida esa yozuvchi kitobxonga berishni istagan g'oya anchayin salmoqdorlik kasb etadi. Bu kabi tasvirlarda romantizmga xos xususiyatlari, lirizimining uyg'unlashuvini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek adiblari(S.Mirvaliyev,R.Shokirova Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi adabiyotlar va san'at nashriyoti.2016)kitobidan.
2. Adabiyotshunoslik lug'ati(D.Quronov umumiy tahrir ostida)Toshkent Akademnashr.2010.244-bet
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Toshkent. 2010 y

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АҚЛИЙ МЕХНАТ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Ходжаева Мавлудахон Латиповна

Андижон Давлат Университети Педагогика институти

Ижтимоий фанлар санъат ва жисмоний маданиятини ўқитиш методикаси
факультети концертмейстери

АННОТАЦИЯ

Мақолада ёш авлоднинг ақлий меҳнатини такомиллаштириш вазифалари ва унинг ҳар томонлама ривожланган шахсни қайта тиклашга таъсири кўриб чиқилади.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены задачи совершенствования умственного труда подрастающего поколения и его влияния в воспитании всесторонне развитой личности.

ABSTRACT

The aims in improvement of growing generation's brainwork and its influence on developed personality's education are considered in the article.

Калит сўзлар: Индивидуал таълим, интеллектуал, ақлий меҳнат, узлуксиз таълим, интерактив методлар

Ақлий меҳнат кишилиқ жамиятининг тараққиётини таъминловчи асосий куч сифатида ҳамма даврларда эътироф этиб келинган. Шу боис республикамызда амалга оширилаётган ислохотларни самарали кечиши давлатимизни ривожланган давлатлар ҳамжамиятига интеграциялашувида ёш авлоднинг ақлий меҳнат билан шуғулланиш қобилиятини ўстириш муҳим аҳамият касб этади.

Ақлий меҳнат ва фаолият инсон маънавий камолотининг асосидир. Президентимиз “Ўзбекистон XXI асрга интилоқда” асарида дунёвий билимларга эга бўлган, атрофида юз бераётган ҳодисаларга мустақил муносабат билдира оладиган, шахсий манфаатларини халқ манфаати билан уйғунликда кўрадиган баркамол инсонни тарбиялаш ҳозирги куннинг муҳим вазифаларидан бири эканлигини таъкидлаб ўтган.⁴

Биз тафаккурга, фикр мусобақасига эҳтиёж ҳар қачонгидан ҳам кучайган даврда яшамокдамиз. Бинобарин халқимизнинг онг ва тафаккурида кескин бурилиш яшаш, мамлакатимиз ёшларининг интеллектуал салоҳиятни янада юксалтириш, ҳар жиҳатдан баркамол ёшларни вояга етказиш иқтисодий жиҳатдан қудратли давлат барпо этишнинг асосий шартидир.

Жамият раванқ топган сари ақлий ва жисмоний меҳнат кишиларнинг билим савиялари ва иш унумдорлигини ўстиради. Бунда ижтимоий меҳнат тақсимооти асосий омил ҳисобланади. Чунки инсон ўқувчи – ёшлар шу жумладан индивидуал хусусиятларига кўра турли касб ва ҳунарларга моил бўлади. Ана шу сифатларни амалда рўёбга чиқариш, оз фурсатда билимли, иқтидорли ва касб маҳоратини тўла эгаллаган ёшларни тарбиялаш, вояга етказиш долзарб педагогик муаммодир. Бундай муҳим вазифаларни бажариш оила ва умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари зиммасига юклатилган. Уларнинг илмий жиҳатдан асосланган, тажрибада синовдан ўтказилган тавсиялар билан таъминлаш эса махсус педагогик-психологик тадқиқотларни амалга оширишни тақозо этади.

Ақл инсоннинг туғма руҳий ва физиологик хусусияти бўлиб, унинг ёрдамида одамлар дунёни билиб оладилар. Олдинги авлодлар томонидан яратилган илмларни ва мавжуд билимларни ўзлаштирадилар. Ақлий меҳнат шахсининг мавжуд илмларни ўзлаштириш жараёнида билиш ва фикрлашини, шунингдек

⁴ И.А.Каримов “Ўзбекистон XXI асрга интилоқда” – Т.,Ўзбекистон 1999 й. 17-18-бет

интеллектуал маданиятини ривожлантиришга йўналтирилган рухий ва физиологик фаолиятдир.

Таъкидлаш лозимки, таълим жараёнида халқ оғзаки ижоди ва анъаналаридан фойдаланиш муаммоси илмий ва услубий адабиётларда кенг ёритилган. Шу боисдан тадқиқот жараёнида бизни бу борадаги хулоса ва услубий кўрсатмаларнинг таълим жараёнида қўлланиши қизиқтирди.

Таъкидлаш жоизки, ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва такомиллаштиришга йўналтирилган тажрибалар ҳанузгача махсус ўрганилмаган. Шунинг учун илғор тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш ва фойдаланишда биз қуйидаги мақсадларни ўз олдимизга қўйдик:

- барча янгиликларни кенг ёйиб жорий этиш натижасида таълим усулларини бойитиш;
 - ўқитувчи ва тарбиячиларнинг ғоявий сиёсий ва касбий маҳоратини ошириш;
 - ўқувчиларга таълим ва тарбия бериш назарияси, усули ҳамда амалиётидаги ўқитувчи ва ўқувчилар муносабатини янада такомиллаштириш.
- Ўрганилган тажрибалар тадқиқот жараёнида умумлаштирилиб, қуйидаги учта гуруҳга бўлинди:

1. Индивидуал (алоҳида ўқитувчи, тарбиячи ёки раҳбар тажрибаси)
2. Гуруҳли тажриба (битта ўқув предмети бўйича бир неча ўқитувчининг тажрибаси)
3. Жамоат тажрибаси (ёки бутун таълим-тарбия муассасаларининг ўқитиш ва тарбиялаш жараёнида амалга ошириш борасидаги иш тажрибаси).

Натижалар таҳлили асосида қуйидаги хулосага келинди. Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини самарадорлигини оширишда мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасалари ҳамкорлиги илмий асосланган ҳолда ташкил этилиши керак. Шунинг учун ҳамкорлик мактаби тингловчилар курси машғулротлар режасига “Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этишда оила, мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасалари ҳамкорлиги” мавзуси

киритилди ва машғулотларга синф раҳбарлари, фан ўқитувчилари ва мактабдан ташқари таълим муассасалари ходимлари таклиф этилди. Мактабдан ташқари таълим муассасаларининг асосий вазифалари ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини такомиллаштиришдан иборат эканлигини инобатга олган ҳолда ушбу муассасалар ходимлари учун тавсиялар ишлаб чиқилди ва амалиётга тадбиқ этилди.

Олиб борилган кузатишлар натижасида таълим жараёнида ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини ошириш бўйича куйидаги илмий асосланган хулосаларга келинди:

1. Ўқувчиларни ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини ошириш шартларини белгилашда халқ таълими тизимида шаклланган тажрибаларни чуқур таҳлил қилиб, керакли хулосалар чиқариш муҳим аҳамиятга эга.

2. Таълим жараёнида ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини самарадорлигини ошириш учун куйидаги шартларни бажариш мақсадга мувофиқдир:

- илғор тажрибаларни аниқлаш, тизимлаштириш ва амалиётда кенг тадбиқ этиш учун оммалаштиришга тавсия этиш;
- ўқитувчининг шахсий намунаси, унинг ижодкорлиги ва изланувчанлиги;
- таълим жараёнида янги педагогик технология, ўқитишнинг интерактив методларидан фойдаланиш;
- оила, мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасалари ҳамкорлигини илмий асосда ташкил этиш.

3. Ўқувчилар ақлий меҳнат фаолияти самарадорлигини оширишга синфдан ташқари ишларнинг индивидуал ва амалий шакллари мақсадга мувофиқ йўналтирилган ҳолатда ташкил этиш;

4. Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини оширишда мактабдан ташқари таълим муассасалари ҳам

муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Бундай муассасаларнинг мураббийлари вилоят халқ таълими бошқармаси, туман ва шаҳар халқ таълими бўлимлари қошидаги ташхис марказлари психологлари билан ҳамкорликда ўқувчиларнинг интеллектуал қобилиятларини аниқлаб, уни такомиллаштириш бўйича изчил фаолият кўрсатишлари лозим.

5. Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолияти самарадорлигини ошириш ҳар бир педагог, мактаб раҳбари, албатта, ота-онанинг кундалик вазифаси эканлигини улар онгли равишда идрок этмоғи керак. Шундагина бу жараёндан кутилган пировард натижага эришиш мумкин.

Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини таъминловчи қуйидаги тавсияларни илгари сураемиз:

- узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш ва такомиллаштиришга йўналтирилган тадқиқотлар ўтказишни кенгайтириш, ҳамда бу йўналишда ўқув-методик қўлланмалар яратиш ва ҳаётга тадбиқ этиш;
- руҳий-педагогик ташхис марказларида интеллектуал қобилиятни аниқлаш хизмати фаолиятини кучайтириш;
- “Ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этиш” муаммосини илмий-педагогик ва методик нашрларда кенг ёритишни ташкил этиш;
- вилоятлар педагоглари қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтларида ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ўстириш борасида фан ўқитувчиларнинг илмий-методик тайёргарлигини изчил такомиллаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.Каримов. “Ўзбекистон XXI асрга интиломда”. Т., Ўзбекистон-1999
2. “Баркамол авлод орзуси”. Т., “Шарқ” нашр., 1998 й.
3. Рахмонов.Я. “Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятининг самарадорлигини ошириш шартлари”. “Халқ таълими” журнали. 2000 й, №6.
4. Рахмонов.Я. “Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этишнинг назарий ва амалий омиллари”. “Халқ таълими” журнали. 2001 й, №1.
5. Рахмонов. Я. “Ўқувчиларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этишда илғор педагогик тажрибалардан фойдаланиш”. Методик қўлланма. Наманган, 2003 й.



INTERNATIONAL EDUCATION SYSTEMS

Yuldasheva Gulira'no, Rakhmonova Nasibahon

2nd year 201 group students of Pedagogy Faculty of Primary Education
in Andijan State University

Abstract: This article provides detailed information on the education systems of Germany and Japan, the world's leading countries. Their similarities and differences with the Uzbek education system will be also discussed. There are changes in our national education system.

Keywords: Germany, Japan, Uzbekistan, education system, compulsory education, voluntary education, 6 years, primary education, primary school, gymnasium, evening education, full-time education.

The 21st century is the age of technology. During this time, humanity has undergone radical changes. Countries that once chose the right path of development have now become world-renowned leaders. If we look at their history, it all comes down to education. For example, Japan and Germany, are two of the world's leading countries in the field of education.

First of all, let's take Germany, one of the most developed countries in Europe. Germany is one of the centers of world science and culture. This country is world-famous for its centuries-old scientific schools, scientists, and creators such as Goethe, Gegel, Beethoven, Nietzsche, and Einstein. Particular attention is paid to the formation of independent thinking and a broad outlook in internationally recognized German educational institutions. It is impossible to have a place in a society that is moving towards development without knowledge. By the way, the strict discipline, the unanimity, and the qualities of the Germans are formed in the educational institutions. In Germany, preschools are not part of the public education system. The kindergarten is run by charitable foundations, local authorities, and the church.

Businesses and organizations can also have their kindergarten. The pre-school education system covers children from 3 to 6 years of age. Kindertans play an important role in developing the ability of children who have not yet developed their minds to express themselves, communicate with peers and adults, and prepare them for primary education. That's why Germans call kindertans "think tanks."

According to the German constitution, school education is state-controlled. There are 16 federal districts in the country, each with its education law. As a result, there are some differences in the school education system in the federal states. For example, in most areas, primary education is 4 years, and in the capital, Berlin, it is 6 years. However, despite these differences, the general rules apply to all regions. In Germany, schooling is compulsory and free. Citizens between the ages of 6 and 18 are required to receive compulsory education. The school education system is divided into primary, secondary, and higher levels. Children attend primary school from the age of 5-to 6. Students are not assessed in grades 1-2 in schools. Instead of assessing, students prepare information about the child's individual, psychological development. Children will be assessed from the 3rd grade. Germany has a 6-point grading system. Students must complete a minimum of 4 subjects. At the elementary level, children are taught German, science, music, and aesthetics. The peculiarity of the German education system is that students have to determine their future path as soon as they finish primary school. Based on that, he will continue his education in one of several types of schools. In primary school, children are taught until the 9th grade. Students who do not intend to study in higher education institutions in primary schools, and who intend to pursue a career, will study and receive a certificate of unfinished high school. With this document, access to vocational schools is possible.

Real schools, on the other hand, are attended by children who are interested in mathematics and science and who want to become highly educated professionals in the future. The graduates will continue their education in the gymnasium.

It is the most important part of secondary education and lasts for nine years - from 5th to 13th grade. Young people who have completed the 10th grade of a real school

study at the gymnasium for 3 years. The gymnasium is a crucial stage of preparation for higher education. Because a high school graduation certificate entitles you to enter a university without an exam. There are also special schools in Germany for the disabled and the mentally retarded. German educators believe that all students have talents and abilities. Accordingly, they seek to discover the undiscovered aspects of the student and to educate them in the spirit of novelty and invention. "If I think, then I live," said the famous philosopher Rene Descartes. In German schools, this transplant is accepted as a golden rule. Educators first and foremost aim to get the student to have an independent opinion, even if it is a mistake. The educational process is based on close cooperation between parents and teachers. There are universities in Germany that have been dreamed of by European princes since the Middle Ages. For centuries, their prestige has not diminished. Many of them have become Nobel Prize winners.

If we look at the Japanese education system, the formation of the Japanese education system began in 1867-1868. Japan has two tasks: to enrich itself in the first place and to introduce Western technology into Japanese production. And to do that, they say, we need to radically change the education system in the first place. In 1872, the Education Act was passed. In this case, Japanese education is combined with Western education. In 1908, compulsory primary education in Japan was changed to 6 years. Compulsory education includes children between the ages of 6 and 15. It includes 6 years of primary education and 3 years of junior high school, 9 years of compulsory education, and is free. Children from needy families are provided with free breakfast, school supplies, and medical care. High school has evening and daytime forms. The school year begins and ends on April 1. Classes last 7 hours. Admission to the university is carried out in 2 stages. Phase 1 will be held at the residence. To do this, they take tests in Japanese, Old Japanese, mathematics, physics, chemistry, sociology, and history. Students who pass these tests will be admitted to the university and take the test again. It is not possible to expel students from the university. But it can be extended. Many countries today follow the example

of the Japanese education system. Because it was through this education system that he escaped the post-World War II nuclear crisis and its result are still being felt.

Comparing these education systems, let's focus on the education system of Uzbekistan. We have some forms of education that are similar to those in these countries. Previously, the education system is divided into 4 years of primary education, 5 years of secondary education, and 3 years of vocational lyceums. However, the effectiveness of vocational colleges has not been known, leading to a decline in the education of young people and, consequently, a decline in the quality of education. Later, the education system was changed to 11 years of primary and secondary special education. Vocational colleges have also been set up for students who do not want to pursue higher education after 9th grade. These colleges are also free, offering free meals for students as well as scholarships for education. Students from far away are provided with dormitories. In the coming years, it is planned to provide additional points for admission to higher education to those who have passed the state exams for students studying in the 11-year education system. Some high school and college students are also expected to be admitted to universities and institutes in their field from the 2nd year if they graduate with honors. Of course, this has not yet been legalized. but we expect some more changes to the education system soon. These days, we students are also studying in a new form of education - the credit module system. Under this system, we have the right to choose the subjects we want, monitor the progress of the teacher, and change the teacher. Students who do not pass the exam will have to pay a certain amount of money to restudy the subjects they did not master. A graduate student earns a certain amount of credit. Depending on the amount of this loan, their employment will be easier. In addition, some fields of higher education, which do not require many skills, are set at 3 years. (e.g., music, arts, preschool, labor technology, primary education). I think that the reforms in the education system will have a positive effect in the coming years. develops as the above countries.

References:

- [1]. Ziyonet.com
- [2]. A.N.Sayfullayev "German education system"
- [3]. N. Khamidova "Methods of teaching mathematics in primary school"
- [4]. B.C.Abdullayev, H.N.Kadyrova "Methods of educational work"



QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

i.f.n. dotsent **Shoxo‘jaeva Zebo Safoevna**

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro
markazi doktoranti

Muxammadieva Yulduz Yusupovna

QarMII 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish borasida davlatimizning olib borayotgan siyosati va uning asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, dehqon va fermer xo‘jaliklari, diversifikatsiya, oziq-ovqat mahsulotlari, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, strategiya, barqaror qondirish, oziq-ovqat mustaqilligi

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida turli mulkchilikka asoslangan korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan bu islohotlar tufayli, dehqon va fermer xo‘jaliklarining jadal sur‘atlarda rivojlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda, qishloq aholisi bandligi va turmush darajasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan mahruzasida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratdilar: «Joriy yilda sizlarning peshona teringiz bilan 7 million 130 ming tonna g‘alla, 2 million 845 ming tonna paxta, 19 ming 600 tonna pilla, 21 million tonna meva-sabzavot, 400 ming tonna sholi, 2 million 600 ming tonna go‘sht va 11 million tonna sut mahsulotlari, 8,1 milliard dona tuxum olingani bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masala bo‘lib borayotgani sir emas. Shu-ning uchun ham biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga alohida e‘tibor bermoqdamiz»⁵.

Darhaqiqat, hukumatimiz tomonidan fermer xo‘jaliklariga katta e‘tibor berilishi, ularni har taraflama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha choratadbirlar va amaliy ishlar bajarilayotganligi bejiz emasligini tushunish qiyin emas. Aynan fermer xo‘jaligi tovar mahsulotini yetishtirib, respublika aholisini qishloq xo‘jalik mahsulotiga bo‘lgan ehtiyojini qondirib qolmay, tashqi iqtisodiy munosabatlarga ham ijobiy ta‘sir etmoqda. Chunki fermer xo‘jaliklari tomonidan 90 % yaqin paxta xom ashyosi yetishirilmoqda, paxta xomashyosi eksport qilinib, umumiy eksport hajmining salmoqli ulushini tashkil etadi. Shuningdek, fermer xo‘jaliklari rivojlanishi bilan bir qatorda ularga xizmat ko‘rsatish tizimi ham kengayib bormoqda va shu orqali yangi ish o‘rinlari yaratilib, qishloq aholisining bandlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois agrar sohada modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, xususan fermerlik institutini jahon talablari darajasiga ko‘tarish, raqobatbardoshlik mahsulotlarni ishlab chiqarish, faoliyat samaradorligini va rentabelligini oshirish, eng muhimi, aholining turmush darajasini yuksaltirish bo‘yicha olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar naqadar to‘g‘ri ekanligini hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga” bag‘ishlangan ma‘ruzasi. 2019 yil 6 dekabr.

Aksariyat qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i sifatida mahsulot yetishtirishning asosiy vazifasi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini oqilona iste‘mol stavkalari bilan qondiradigan darajada davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdir. Bu ishlab chiqarishni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharti bilan amalga oshirish mumkin. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i, xususan, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtiradigan xo‘jaliklar tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni o‘rnatilmaganligi sababli oddiy takror ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirib kelmoqda.

1-jadval

Fermer xo‘jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ko‘rsatkichlari, (ming tonna)⁶

| Mahsulot turlari | Y I L L A R | | | | | | | | 2020 yilda 2005 yilga nisbatan, % da |
|--------------------|-------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------------------------------------|
| | 2005 | 2010 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | |
| Paxta | 2460,5 | 3384,5 | 3344,9 | 3390,1 | 3393,7 | 3356,7 | 2632,0 | 3082,0 | 125,3 |
| Bug‘doy | 3625,7 | 6124,4 | 6588,2 | 6359,4 | 6087,7 | 6109,3 | 6128,7 | 6208,3 | 171,2 |
| Kartoshka | 45,9 | 337,2 | 632,1 | 599,8 | 511,8 | 475,7 | 497,9 | 506,0 | 1102,4 |
| Sabzavot | 480,3 | 2215,8 | 3458,5 | 3256,2 | 3070,3 | 3098,1 | 3104,2 | 3260,5 | 678,8 |
| Meva | 175,5 | 816,4 | 1260,1 | 1120,2 | 1091,8 | 1088,4 | 1098,2 | 1144,8 | 652,3 |
| Uzum | 89,3 | 556,6 | 843,8 | 713,1 | 680,7 | 699,8 | 703,5 | 704,8 | 789,2 |
| Poliz mahsulotlari | 205,7 | 595,9 | 907,2 | 908,1 | 910,2 | 912,4 | 920,5 | 939,9 | 456,9 |

1-jadval ma‘lumotlari tahlildan ko‘rinadiki, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda fermer xo‘jaliklari ildamlilik qilmoqda. 2005-2020 yillar davomida fermer xo‘jaliklari dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda barqarorlikka erishishmoqda. Bu esa mamlakatimizda fermerlarga beriladigan imkoniyatlar va olib borilayotgan islohotlarning natijasidir. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga,

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida hisob-kitob qilingan.

27,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 4,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2020 yilning yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand viloyatida (35,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (76,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (14,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Toshkent viloyatida (17,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (59,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xorazm viloyatida (2,1 %) kuzatildi.

Bugungi kunda fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligida asosiy va eng istiqbolli ishlab chiqarish sub’ekti sifatida to‘liq shakllangan bo‘lib, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasida: “fermer xo‘jaliklar, eng avvalo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlanayotgan, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish” masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimiz qayta ishlash korxonalarini xom ashyo resurslari bilan muntazam ta‘minlab turishi, ichki iste‘mol bozorini yil davomida sabzavotlar, kartoshka, meva va poliz mahsulotlari bilan barqaror to‘ldirib borishi, shuningdek, tashqi bozorlarda xaridorgir va raqobatbardosh bo‘lgan ho‘l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmini ko‘paytirib, turlarini

kengaytirish uchun ularni yetishtirish, ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha yagona tizimni shakllantirish belgilangan.

Bu va boshqa tadbirlar respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga, respublikamiz oziq-ovqat mustaqilligini yanada mustahkamlashni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror oshib borishi, aholi jon boshiga go'sht, sut va kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum kabi mahsulotlar ishlab chiqarishni, demak, iste'mol qilishni bir necha barobar oshirish imkonini berdi. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni dunyo jamoatchiligi ijobiy hol sifatida e'tirof etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi” to'g'risidagi Farmonining qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xarita»sida belilangan chora-tadbirlar, mubolag'asiz agrar-iqtisodiyot sohasida kontseptual xarakterdagi hujjat hisoblanadi.

Strategiyada, qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalariga ustuvorlik sifatida qayd etilishi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirishga va rag'batlantirishga, qishloq xo'jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalarini, jumladan klasterlar bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash masalalariga alohida urg'u berilganligi va bu borada o'zaro hamkorlik va integratsion aloqalarni kengaytirish asosida jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari

kuniga” bag‘ishlangan ma’ruzasi. 2019 yil 6 dekabr.

3. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
4. ZS Shoxo'jaeva. Problems and solutions in the water sector of the region. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020. Стр.21-24.
5. ЗС Шохўжаева, НЖ Маманазарова. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. “Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари.” Халқаро конференция.2020 й.
6. ZS Shoxo'jaeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012
7. Z.S.Shoxujaeva, A.B.Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8 Issue-6, August 2019.
8. Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
9. Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

УЙ ХЎЖАЛИГИДА БАЛИҚ ЕТИШТИРИШНИ МОЛИЯВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Хақимов Зафар Ибрагимович

Тошкен молия институти - мустақил тадқиқотчи

Аннотация: Аҳоли хонадонларида балиқ етиштиришни йўлга қўйиш ва уни молиявий қўллаб-қувватлаш орқали қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш озиқ-овқат хавфсизлиги муаммосини бартараф этиш имконини беради.

Калит сўзлар: Уй хўжалиги, балиқчилик тармоғи, диверсификация, сув солиғи, давлат бюджети, жаҳон банки.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш йилдан йилга кўпайиб, ишлаб чиқариш технологияси янгиланиб, такомиллашиб бормоқда. Айниқса, балиқчилик тармоғида маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада ўсди. Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг : “ Дунёда озиқ-овқат нархларининг ўсиши, инфляция хавф-хатарлари келгуси йилда озиқ-овқат хавфсизлиги энг долзарб масала бўлиб қолишини яққол кўрсатмоқда. Шу боис, вилоят ҳокимлари ўз худудида балиқ етиштириш ҳолатини таҳлил қилиб, тадбиркорлар ва аҳоли хонадонларига барча шароитларни яратиб бериш бўйича тизимли шуғулланиши зарур”⁷-деган сўзлари бу соҳага катта эътиборнинг бир нишонасидир. Охирги 4 йилда олиб борилган сай -ҳаракатлар натижасида мамлакатимизда балиқчилик тармоғида умумий қиймати 2,2 триллион сўмлик 1016 та лойиҳа амалга оширилиб, балиқ етиштириш ҳажми 6 бараварга ошди ва жорий йилда 400 минг тоннага етказилди. Балиқ истеъмол қилиш ҳажми 2016

⁷“Президент Шавкат Мирзиёев ҳузурида 20 декабрь 2021 йилда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, бу борадаги ишларнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида балиқчилик соҳасини ривожлантириш ва кооперация асосида балиқ етиштириш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан йиғилиш муҳокамаси- <http://lex.uz>.

йилга нисбатан 5,7 баробарга ошди⁸. Ушбу соҳани ривожлантирувчи ва самарадорлигини оширувчи ҳуқуқий асос сифатида Президентимиз томонидан балиқ маҳсулотлари турларини кўпайтириш, экспорт салоҳиятини оширишга йўналтирилган 13-январь 2022-йилдаги **“Балиқчилик тармоғини янада ривожлантиришнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”** ги қарори имзоланди. Қарор мазмунига кўра 2022-йил 1-февралдан бошлаб жисмоний шахсларга ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида ўз хонадонидан балиқ етиштиришни йўлга қўйишга рухсат берилди. Шунингдек, 2022-йил 1-февралдан 2025-йил 1-январга қадар балиқчиликни интенсивлаштириш учун зарур бўлган асбоб-ускуналар ва технологиялар (аэратор, бассейн, автокормушка) ҳамда қайта ишлаш ускуналарини ишлаб чиқаришни йўлга қўйган, бироқ даромадининг 80 фоизидан ортиғини ушбу ускуналарни ишлаб чиқаришдан оладиган субъектлар учун фойда солиғи, юридик шахслардан олинадиган ер солиғи, юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ ва сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ ставкалари 50 фоизга камайтирилади, балиқ етиштирувчи хонадон эгаларига ер солиғи ва мол-мулк солиғи ставкаси 50 фоиз миқдорида белгиланадиган бўлди. Амалдаги қонунчиликка кўра Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 9 декабрдаги «2020 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида» ги Қонунининг 11-иловасига мувофиқ, сув солиғи:

- 1 м куб учун ер усти манбаларидан фойдаланганда 140 сўм,
- ер ости манбаларидан фойдаланганда 170 сўм қилиб белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 мартдаги ПФ-5969-сонли Фармонида асосан, коронавирус пандемияси ва глобал инқироз ҳолатларининг иқтисодиёт тармоқларига салбий таъсирини юмшатиш мақсадида, сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ ставкалари 2020 йилда ўрнатилган ставкалардан 50 фоизга қисқартирилиши кўрсатилган.

⁸ Ўзбекистон республикаси давлат Статистик қўмитаси маълумотлари.

Ушбу яратилган имкониятлар аҳолини балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқариши ва ундан олинадиган даромаднинг янада кўпайишига сабаб бўлади. Аммо соҳани ривожлантириш учун берилаётган молиявий қўллаб-қувватлашнинг ўзи кифоя қилмайди. Шундай экан уларнинг самарадорлигини ошириш бўйича илмий - услубий ёндошган ҳолда етиштириладиган балиқни парваришlash бўйича “брашюра” шаклида тавсиянома билан таъминlash зарурияти келиб чиқмоқда. Бу жараён балиқ маҳсулотларини етиштиришда парваришlash технологиясининг кетма кетлигини ҳамда ўз вақтида овқатланиш рационларини кузатиб, таҳлил қилиш имкониятини яратади. Балиқларнинг ривожланиш даври ва кўпайиш мавсумлари инобатга олиниб, овлашни чекlash бўйича кўрсатмалар берилади.

Жаҳон банки эксперти Сергей Зарянинг таъбири билан айтганда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва самарадорлигини оширишда диверсификацияlashган ҳолда олиб бориш, маҳсулдорликни ошишига хизмат қилади. Балиқ етиштиришда соҳага замонавий кооперация тизмини жорий қилиш ва қўшилган қиймат занжирини узлуксизлигини таъминlash лозим. Яъни, етиштирилган балиқ маҳсулотларини қайта ишлаш, сақlash ва бренд остида сотишни йўлга қўйиш тизимини шакллантириш лозим. Қачонки, маҳсулот юқори нархда сотилса, ишлаб чиқарувчи олинган даромад эвазига ташқи харажатларни қопlash имкониятига эга бўлади. Аҳоли уй хўжалигида балиқ етиштириш самарадорлигини ошириш ва молиявий қўллаб-қувватlash бўйича қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Балиқ етиштириш учун қулай бўлган ҳудудда балиқни қайта ишлаш саноатини ривожлантиришда чет эл инвестициясини жалб қилиш;
2. Балиқ етиштирувчи аҳолининг кам таъминланган, ижтимоий ҳимояга муҳтож қисмини балиқ етиштириш харажатларининг бир қисмини давлат бюджети маблағлари ҳисобига субсидияlash;

3. Етиштирилган балиқ маҳсулотлари савдосида экспортга мўлжалланган логистика тармоғини шакллантириш ва транспорт харажатларини бир қисмини қоплаш бўйича механизм яратиш;
4. Сифатли балиқ маҳсулотлари етиштирувчилар ўртасида “Йилнинг энг яхши тадбиркори” номинцияси бўйича тадбирлар ташкил этиш ва моддий рағбатлантиришни йўлга қўйиш;
5. Балиқ етиштириш бўйича Олий таълим муассасаларида алоҳида йўналишлар ташкил этиб, соҳани яхши тушунадиган ёш кадрларни жалб қилиш;
6. Соҳани молиялашда паст фойзли Халқаро Молия Институтлари маблағлари ва грантларини жалб қилиш.
7. Суний ҳавзаларда етиштирилган балиқ маҳсулотлари ҳажмидан келиб чиқиб, балиқ етиштирган хонадонларга солиқдан (тўла еки қисман) имтиёзлар бериш;
8. Мамлакатимизда меҳнат ресурслари улушида ёшларнинг салмоғини эътиборга олиб, улар учун “Стартап лойиҳалар” яратиш ва молиялаштириш механизминини ишлаб чиқиш.

Яратилган имкониятлар тадбиркорлик билан шуғулланувчилар сонининг ошишига хизмат қилади. Улар тадбиркорликнинг сир асрорларидан хабардор бўлиш билан бирга, халқаро даражада тан олинган янги инновацион усулларни амалиётга жалб қилиш бўйича тажрибага эга бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Балиқчилик тармоғини янада ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори. 13.01.2022. ПҚ-83-сон <http://lex.uz>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. 23.10.2019.ПФ-5853-сон.<http://lex.uz>.

Интернет ресурслари

1. www.infocom.uz: Infocom.uz электрон журнали.
2. <http://learnenglishkids.britishcouncil.org/en/>
3. www.uznature.uz



PR - CRISIS COMMUNICATIONS TARGET AUDIENCE

Makhmudova Shokhsanam

Uzbek University of Journalism and Mass Communication,
Faculty of International Journalism

ANNOTATION

The scientific article analyzes how to reach target audience in times of crisis and key lessons from KFC company

Keywords: PR, anticrisis, target audience, crisis management, KFC, mass media

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada inqirozli vaziyatlarda maqsadli auditoriya bilan ishlash, jamoatchilik bilan ishonchli aloqa oʻrnatishning inqiroz oqibatlarini oldini olishga qaratilgan tadbirlari tahlil etilib, qolaversa, OAV bilan eng muhim vosita ekanligi mashhur KFC kompaniyasi misolida ochib berilgan

Kalit soʻzlar: PR, inqiroz, maqsadli auditoriya, inqiroz menejmenti, KFC, ommaviy axborot vositalari

INTRODUCTION

PR - INQIROZLI VAZIYATLARDA MAQSADLI AUDITORIYA BILAN ISHLASH

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisning eng birinchi vazifalaridan biri maqsadli auditoriya va ular bilan bog'lovchi kanallarni aniqlashdir. Ayniqsa, inqiroz sharoitida maqsadli auditoriya bilan oqilona munosabatni yo'lga qo'yish muhim masalaga aylanadi. "Inqiroz - bu kompaniyaning ommaviy axborot vositalari va boshqa tashqi maqsadli auditoriya, shu jumladan u yoki bu sabablarga ko'ra tashkilot faoliyatidan qonuniy manfaatdor bo'gan aksiyadorlar, siyosatchilar, kasaba

uyushmalari, atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari e'tiboriga tushishi, noxush holatda diqqatga markaziga aylanishidir.”⁹

Maqsadli auditoriya esa - bu kompaniyaning mahsulotlari yoki xizmatlariga qiziqishi mumkin bo'lgan odamlar. Ular mijozlar, potentsial mijozlar, manfaatdor tomonlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Auditoriya bilan muloqot qilish uchun maxsus PR strategiya tuziladi. Bundan asosiy maqsad, ma'lumotlarni maqsadli auditoriyaga yetkazish va axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar bilan doimiy nazorat o'rnatishdir. Inqirozning tabiatiga qarab, asosiy auditoriyaga davlat idoralari, mahalliy aholi, yoki tashkilotning o'z xodimlari, jamoat tashkilotlari, agar u tijorat tashkilotlari bo'lsa, investorlar, yetkazib beruvchilar, dillerlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Biroq, barcha holatlarda inqirozga qarshi kommunikatsiya dasturidan maqsadli auditoriya sifatida ommaviy axborot vositalari va xodimlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, inqiroz davrida qoidaga ko'ra ish yuritish, ko'p o'ylab o'tirishga vaqt yo'q. Qarorlarni imkon qadar tezroq qabul qilish kerak va barcha zarur resurslarni tezda safarbar qilish muhimdir. Inqiroz har doim tez rivojlanadi, shuning uchun kompaniyaning aloqalari darhol murakkab va tez o'zgaruvchan vaziyatlarda qanday harakat qilishni biladigan odamlar qo'lida bo'lishi kerak. Bunday vaziyatda maqsadli auditoriyani ushlab turish hayot mamot masalasidir. Inqiroz paytida maqsadli auditoriya bilan ishlashning eng yorqin namunalaridan biri sifatida dunyoga mashhur fast food tarmoqlaridan biri KFC, ya'ni ("Kentucky Fried Chicken", "Kentuku Qovurilgan Jo'jalari") tarixida bo'lgan edi. Xo'sh, qanday qilib KFC hazil orqali inqirozni ijobiy PRga aylantirdi?!

2018-yilning fevral oyida KFC ta'minot bilan bog'liq muammolarga duch keldi. Brendning Britaniyadagi idorasi tovuq yetkazib beruvchi tashkilotini o'zgartirdi va afsuski, pudratchi ishonchsiz bo'lib chiqdi, butun mamlakat bo'ylab KFC tarmog'idagi ta'minot buzildi. Mahsulotlar va tovuq yetishmasligi 16-fevraldan boshlandi. Natijada iste'molchilarda salbiy kayfiyat yuzaga keldi, ommaviy axborot

⁹ Чумиков А.Н. Связи с общественностью. Паблик рилейшнз. М., 2001. С.128.

vositalarida tinmay shu haqida yozilardi va brend inqirozga yuz tutdi. KFC mahsulot yetishmovchiligi bois, o‘z tamaddixonalarini yopishni boshladi, ya’ni 18-fevralga kelib, Buyuk Britaniya va Irlandiyada 870 ta restorandan atigi 266 tasi ochiq edi. Brandwatch ijtimoiy media monitoring xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 21-fevral kuni “#ChickenCrisis” va “KFCCrisis” kabi heshteglar bilan bir qatorda KFCning tovuq go‘shiti tugab qolgani haqida 53 000 ta izoh qoldirilgan.

KFC qanday yo‘l tutdi? U , avvalo, ma’lumot tarqatish uchun kanallarni aniqlash kirishdi.

Soha mutaxassisi M.G. Fedotovanning “Inqirozga qarshi boshqaruv sifatida jamoatchilik bilan aloqalar” o‘quv qo‘llanmasida yozilishicha, ushbu kanallarga quyidagilar kiradi: ¹⁰

Ommaviy axborot vositalari. Ular har qanday ma'lumot va qolaversa, tahliliy xarakterga ega bo‘lgan (axborot, qolaversa, axborot eslatmalari, tahliliy maqolalar, sharhlar, reklamalar va boshqalar) tashuvchisidir.

Ommaviy tadbirlar. Bunga boshqaruv organlari va yoki jamoat sektori vakillari, asosiy PR subyektlari va uning raqobatchilari bilan o‘tkaziladigan har qanday uchrashuvlar kiradi. Bu kanal auditoriya uchun eng ishonchlisi hisoblanadi. Inqirozli vaziyatlarda noxush oqibatlarining oldini olish uchun barcha asosiy ommaviy tadbirlardan xabardor bo‘lish va ularning nazorat olish muhimdir.

Sahna ortidagi elita ichidagi aloqa. Bunga boshqaruv organlari, boshqa kompaniya va birlashmalar o‘rtasida ma'lumotlar tarqalishini ta’minlovchi kanallar kiradi. Odatda, ularga faqat o‘z manfaatlarini lobbi (lobbizm (ing . lobby — kluarlar, xosxonalar) — davlat idoralari, qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatlarining mintaqalar iqtisodiyoti ayrim tarmoqlari va sohalarini, korxonalar, ijtimoiy guruhlarni ob’yektiv zarurat taqozosi bilan emas, balki ma’lum bir manfaatlarni ko‘zlab, ba’zan mansabdor shaxslarni sotib olish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati.¹¹) qilish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali ta'sir o'tkazish mumkin.

¹⁰ Федотова М.Г.. Связи с общественностью как антикризисный менеджмент: учеб. пособие - Омск: Изд-во ОмГТУ. - 64 с.. 2009

¹¹ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Korporativ ichki aloqa. Bu ma'lumotning tashkilot xodimlari orasida tarqalishiga xizmat qiluvchi kanaldir. Uning asosiy sifatlaridan biri, kanal ochiq bo'lishi, chunki ma'lumot nafaqat bevosita muloqot ishtirokchilari, balki ularning oila a'zolari, do'stlari, tanishlari va boshqalarga ham yetib boradi. Shuningdek, norasmiy kommunikatsiya auditoriya bilan bog'lovchi kanallarga kiradi.

KFC bu kanallarning har biridan mohirona foydalandi. Avvalo, maqsadli auditoriya bilan bog'lovchi kanallardan biri bo'lgan norasmiy kommunikatsiyadan boshladi. His-tuyg'uga ta'sir o'tkazdi. Bunda, asosiy sifat-axborotning ishonchliligida emas. Unda ma'lumotlar sog'lom fikr nuqtai nazaridan baholanmaydi, balki, tashkilot imiji uchun muhim bo'lgan hissiy qarashlarni shakllantirishni maqsad qiladi. Albatta, bu kanallar guruhini boshqarish biroz qiyin, biroq ayni paytda bu eng muhimidir. Buning uchun KFC hazildan foydalandi. Avvalo, brend ijtimoiy tarmoqda tvit qoldirdi: "Tovuq yo'lga chiqdi, faqat bizning restoranlarimizga emas ..."

Inqiroz sharoitida **ommaviy axborot vositalari** asosiy auditoriya hisoblanadi. Sababi, birinchidan, ommaviy axborot vositalari sensatsiya, munozarali bahslar, faktlar, mish-mish, g'iybatlarni qidirish va tarqatishga moyildirlar – chunki bu ularning ishining bir qismi. Ikkinchidan, OAV uchun kim birinchi bo'lib shov-shuvli faktni e'lon qilishi va qizg'in mavzuni ko'tarishi muhim. Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari axborotni tez tarqatadi va keng jamoatchilikni qamrab oladi, salbiy mish-mishlar tez tarqaladi. KFC ham shu bois, ayni paytda mavjud bo'lgan salbiy ma'lumotlar sohasi muammosini hal qiladigan o'z axborot oqimlarini yaratishda OAVdan foydalandi. Vaziyatning yumshatish uchun KFC Britaniya gazetalarida hazil tarzida o'z logotipi harflarini tartibini o'zgartirib, e'lonlar joylashtirdi. Keyinchalik esa matbuotda KFC barchadan uzr so'radi va qolaversa, kompaniya kamtarinlik bilan o'z jamoa a'zolari va sheriklariga qiyin vaziyatda qo'llab-quvvatlagani, barcha mashaqqatli mehnatlari uchun minnatdorchilik bildirdi. Shu bilan birga, ular ushbu daqiqadan mijozlarga, agar restoranda tovuq vaqtida yetkazib berilmagan taqdirda, ularga juda ko'p bonuslar berilishini eslatib o'tdi. Qolaversa, u

ushbu minnatdorchilik orqali murojaat orqali **korparativ ichki aloqani** ham ijobiy tomonga o'zgartira oldi. Ya'ni, xodimlariga stress paytida inqiroz sharoitida tashkilotda o'zining ahamiyatini his qildirishga erishdi.

Kompaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, inqirozli vaziyatda to'g'ri va o'z vaqtida javob berish juda muhimdir. Ba'zi holatlarida maqsadli auditoriyani tushunish, ularga xayrixohlik bildirish va kamtarlikla aybini tan ola bilish muammoni falokatga aylantirishining oldini oladi. Shuningdek, hazil auditoriyaga mos bo'lsa inqirozidan qutulishning kuchli usuli bo'lishi mumkin, qachonki, u u Buni aniqlash uchun esa, avvalo, maqsadli auditoriyani o'rganish va tahlil qilish, doimiy monitoring olib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Федотова М.Г..Связи с общественностью как антикризисный менеджмент: учеб. пособие - Омск: Изд-во ОмГТУ. - 64 с.. 2009
3. Чумиков А.Н. Связи с общественностью. Паблик рилейшнз. М., 2001. С.128.
4. Ольшевский А.С. Антикризисный PR и консалтинг. / А.С. Ольшевский – СПб: Издательский дом «Питер», 2003
5. <https://medium.com/thrive-global/6-lessons-in-handling-a-pr-crisis-as-taught-by-kfc-e348234b7fc9>
6. https://spravochnick.ru/reklama_i_pr/antikrizisnyy_piar/

**JISMONIY TARBIYA DARSİ YOKI SPORT MASHG‘ULOTLARIDA
HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA O‘TKAZILGAN
SAVOLNOMA NATIJALARI**

Xidirov Mehridin Asriddinovich

Samarqand shahar 14-maktab jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Rafiqov Sardor Sayfiddinovich

Samarqand shahar 14-maktab jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotasiya: Hozirgi kun sport amaliyotida yosh sportchilarni tayyorlash jarayoni qanchalik o‘z tarkibiga harakatli o‘yinlarni kiritganligini o‘rganish uchun biz murabbiylar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanlov jarayonida aksariyat murabbiylar harakatli o‘yinlardan umuman foydalanmas ekanlar. Ma`lumki, har bir sport turiga xos harakatli o‘yinlar mavjud bo‘lib, ulardan tanlov jarayonida foydalanish bolaning shu sport turiga xos harakat qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Harakatli o‘yinlar, “Ha”, “Yo‘q”, “Qisman”, Umumiy va maxsus tayyorgarlik, Tayyorlov qism, Asosiy qism, Yakunlovchi qism, Sport to‘garagi,

Yosh sportchilarni tayyorlashda harakatli o‘yinlardan (HO‘) foydalanish darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan savolnoma natijalari, n= 30

| T/r | Savollar | Ha | Yo‘q | Qisman |
|-----|--|----|------|--------|
| 1. | O‘quvchilarni sport to‘garagiga tanlab olishda HO‘ dan foydalanasizmi? | 6 | 20 | 4 |

| | | | | |
|----|---|----|----|----|
| 2. | Mashg‘ulotlar davomida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida HO‘ dan foydalanasizmi? | 14 | 16 | 0 |
| 3. | Sakrovchanlik sifatlarini rivojlantirishda HO‘ dan foydalanasizmi? | 8 | 7 | 15 |
| 4. | Mashg‘ulotning tayyorgarlik qismida HO‘ ni qo‘llaysizmi? | 11 | 13 | 6 |
| 5. | Mashg‘ulotning asosiy qismida HO‘ ni qo‘llaysizmi? | 3 | 18 | 9 |
| 6. | Mashg‘ulotning yakuniy qismida HO‘ ni qo‘llaysizmi? | 7 | 21 | 1 |
| 7. | Sport tayyorgarligini oshirishda harakatli o‘yinlardan foydalanasizmi? | 13 | 9 | 8 |

Hozirgi kun sport amaliyotida yosh sportchilarni tayyorlash jarayoni qanchalik o‘z tarkibiga harakatli o‘yinlarni kiritganligini o‘rganish uchun biz murabbiylar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik.

Savolnoma natijalari 3-jadvalda aks ettirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, savolnomada ishtirok etgan 30 nafar murabbiylardan 6 tasi (20%) 1 savolga (o‘quvchilarni sport to‘garagiga tanlab olishda harakatli o‘yinlardan foydalanasizmi?) «Ha» deb javob berishgan bo‘lsa, 20 tasi (66,7%) «Yo‘q» deb, 4 tasi (13,3%) esa «Qisman» deb javob berdi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanlov jarayonida aksariyat murabbiylar harakatli o‘yinlardan umuman foydalanmas ekanlar. Ma‘lumki, har bir sport turiga xos harakatli o‘yinlar mavjud bo‘lib, ulardan tanlov jarayonida foydalanish bolaning shu sport turiga xos harakat qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Muhimi shundaki, harakatli o‘yinlar davomida muayyan harakat vazifasini hal etish ixtiyoriy

ravishda mustaqil qaror qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Shu harakatni ijro etishda bolaga berilgan erkinlik imkoniyati undagi qobiliyatlarni namoyon etilishiga qulay vaziyat tugʻdiradi.

2-savolga (mashgʻulotlar davomida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida harakatli oʻyinlardan foydalanasizmi?) 14 ta murabbiy (46,7%) «Ha» va 16 ta (53,3%) «Yoʻq» deb javob berdilar. «Qisman» degan javob qayd etilmadi.

Demak, savolnomada ishtirok etgan murabbiylarning deyarli teng yarmi «Ha» va «Yoʻq» deb javob berganliklari ularning ikki toifaga mansub pedagogik yondoshuv asosida mashgʻulot oʻtkazishlaridan darak beradi. Birinchilari – jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun harakatli oʻyinlardan foydalanishsa, ikkinchilari bu imkoniyatdan foydalanmay mashgʻulotlarda faqat standart va anʻanaviy jismoniy mashqlardan foydalanadi deb xulosa qilish mumkin. Binobarin, ikkinchi guruh murabbiylari harakatli oʻyinlarning oʻta muhim amaliy ahamiyatiga eʼtibor qilmaydilar yoki ehtimol, harakatli oʻyinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishda samarali vosita deb bilmaydilar. 3-savolga berilgan javoblar ham yuqorida qayd etilgan koʻrinishda, lekin kamroq foizda kuzatildi (jadvalga qarang). Bu savolga «qisman» deb javob berganlar soni koʻproq boʻlib, 50% ni tashkil etdi.

4, 5, 6-savollar tayyorlov mashgʻulotlarini oʻtkazish, oʻrgatish va sportchilarni murabbiylarning jarayoniga bevosita aloqador boʻlib, faoliyatida va xususan kasbiy-pedagogik mashgʻulotlar samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Jumladan, respondent murabbiylar «Mashgʻulotning tayyorgarlik qismida harakatli oʻyinlarni qoʻllaysizmi?» degan savolga 36,7% «Ha», 43,3% «Yoʻq» va 20% «Qisman» deb javob berishdi.

Mashgʻulotning asosiy qismida faqat 3 tagina murabbiy harakatli oʻyinlardan foydalanishlarini bildirdilar. Bu savolga 60% murabbiylar «Yoʻq» va 30% - «Qisman» deb fikr bildirishdi.

Mashgʻulotning yakuniy qismida esa harakatli oʻyinlardan foydalanadigan murabbiylar soni nisbatan koʻproq boʻldi (43,4%) 30% murabbiylar - «Yoʻq» degan javobni bildirdilar. 26,7% respondentlar mashgʻulotning yakuniy qismida harakatli

o‘yinlardan qisman foydalanar ekanlar. So‘rovnoma davomida olingan natijalar va ularning qiyosiy qismida harakatli o‘yinlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat respondent murabbiylar yosh sportchilarni tayyorlashda, ayniqsa jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan standart mohiyatga ega umumiy yoki maxsus jismoniy mashqlarga ko‘proq etibor qaratar ekanlar. Bu borada harakatli o‘yinlarga kulay vosita sifatida ikkinchi darajali o‘rin berilishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.B.B.Kipchokov, T.S.Usmanxadjayev, I.I.Burnashev, X.A.Meliyev-500 harakatli o‘yinlar:Uslubiy qo‘llanma . - T. 2010. - 248 b.
- 2.Qurbonova M.A., Qosimova M.U. Milliy va harakatli o‘yinlar: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2009. - 66 b.
- 3.Goncharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish”. T., O‘zDJTI matbaa nashriyoti bo‘limi, 2005 y. 57-b
- 4.Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Prof. R.Salomovning umumiy tahriri ostida. 1 tom. T., “ITA Press” nashr., 2014. 78-b.



**«ҰЛЫ ӘУЛЕТТІҢ ЛАЙЫҚТЫ ҰРПАҒЫ-ЗАХИРИДДИН МҰХАММЕД
БАБЫР»**

Абдурахимова Гүлнұр Айғали қизи

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институты

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының I курс студенті.

Ғылыми жетекшісі: **Нүркелді Абдурашид ұлы Жарасбаев**

Аннотация: Ұлы әулеттің өкілі, Бабыр әулетінің негізін қалаушы, 13 жасында үкімет басына шығып, өзге елде сұлтан бола алған ел билеуші, әрі ақын Бабырдың өмірі мен шығармашылығы.

Кілтті сөздер: Бабыр әулеті, Үндістан, Шыңғысхан, "Ұлы марғұлан империясы", шежіре, "Бабыр-наме", Таж-маһал, отанға деген сағыныш.

Annotation

A representative of a great dynasty, founder of the Babur dynasty, at the age of 13 he came to power and became the sultan of another country, and the life and work of the poet Babur.

Keywords: Babur dynasty, India, Genghis Khan, "Great Margulan Empire", genealogy, "Babur-name", Tajmahal, nostalgia

"Бабыр құрған мемлекет ата-бабалары сияқты кең болмаса да, ол өз патшалығының сұлтаны, ұлы император дәрежесіне дейін көтерілді. Ол өз мүлкін басқару жүйесін берік ұстанып, оны шебер басқарды. 332 жыл ел билеген ұлы әулеттің негізін қалады"

Румер Годен

Кіріспе бөлім: XV ғасыр соңы мен XVI ғасыр бастары Орта Азия халықтары тарихының ең маңызды дәуірі болып саналады. Бұл кезеңде Мәуреннаһрда әлеуметтік-экономикалық, саяси жағдай едәуір дамыған еді. Осы орында айтып өту

керек, дәл осы уақытта өзбек әдебиетінің дамуына, кеңеюіне үлкен үлес қосқан екі ұлы тұлға өмір сүрген. Олардың бірі Мір Әлишер Науаи болса, екіншісі Захириддин Мұхаммед Бабыр болмақ. Атап өтілген екі ақын да тарихта өшпес із қалдырды.

Бабырдың да көптеген шығармалары бар. Дегенмен оның әдебиет саласындағы емес, тарих саласындағы иелеген орны айырықша. Сонымен қатар Бабыр екінші ренессанстың ірі қайраткерлепіннің бірі болып саналады.

Негізгі бөлім: Захириддин Мұхаммед Бабыр хандар жанұясынан шыққан. Бабырдың шежіресіне үңіліп болсақ, оның арғы атасы Әмір Темір екендігін білеміз. Анық санап айтқанда шежіре мынадай көріністе болады: Бабыр - Сұлтан Умаршайх Мырза - Сұлтан Мұхаммед Мырза - Сұлтан Мираншах - Әмір Темір Короған.

Бірақ кейбір деректерде Бабырдың қанында моңғол қаны да бар екендігі айтылады. Бұған басты себеп Әмір Темір Шыңғысхан әулетінен қыз алғандағы. Осы дерекке негізделе отыра Шыңғысханнан саналса Бабыр оның 16-шы ұрапғы болып шығады. Дегенмен Шыңғысханның қаны ана тарапынан ғана келіп қосылған деген тұжырымды ғалымдар да қолдайды. Оған мына шежіре дәлел бола алады: Құтлық Нинарханым - Жүнісхан - Вайсхан - Шер Алихан - Мұхаммед Қожахан - Қызылорда Қожахан - Тоғлуқ Темурхан - Есен Бұғажан - Дава Шыған - Барақхан - Сокач уғлу - Қамғор - Шығатай - Шыңғысхан. Осыдан келіп шығып Европа ғалымдары Бабырды Шыңғысханның ұрпағы деп санайды. Бірақ бұл пікір дұрыс емес. Егер шежіре бойынша қаралғанда да алғашқы шежіре Бабырдың Темурилер әулетінен екендігінің айқын дәйегі болмақ.

Мұндай пікір қайшылықтар Бабырдың туған жері жайында да кездеседі. Ғалымдардың бір тобы оны Ахси қаласында туылған десе, енді бір тобы Әндіжанда туылған деп санайды. Бұл екі пікір ішіндегі Әндіжан деген пікір шындыққа жанасымдырағы. Себебі кейіпкеріміздің "Бабыр-наме" атты шығармасында Әндіжан 58 рет, ал Ахсин 29 рет айтылады. Сөйтіп Бабыр 1483 жылы 14 ақпан күні Әндіжанда туылған деген тұжырымға келеміз.

Шайбанихан 1499 жылы Жизақ пен Самарқанд арқылы Қаршы мен Шахрисабзға жорық жасап, көп олжамен Дешті Қыпшаққа оралды. Көп ұзамай Шайбанихан үлкен күшпен Мовароуннахрға оралып, Бұхара мен Қаракөлді жаулап алды (1499), ал сұлтан Әли Мырза сақтықпен Самарқанды шайқассыз Шайбаниханға берді (1500). Алайда қала тұрғындары мен дворяндарының бір бөлігі Тимуридтер билігін қалпына келтіруді жақтады. Олар Ферғана губернаторы Бобурға хат жолдап, Самарқанды басып алуға шақырады. 1500 жылдың кеш күзінде Бабыр әскерімен (240 адам) Самарқандқа келгенде халық оны қарсы алып, қала қақпасын ашты. Шайбаниханның қаланы қорғауға қалдырған 600 сарбазының көзі жойылады. Шайбанихан Бұхарға шегінеді. Аз уақыттың ішінде Бабырдың әкімдігі Самарқанның барлық уездерінде, Қарши, Ғұзар қалаларында мойындалды. Бірақ қалада азық-түлік таусылып, ашаршылық басталды. Мұны білген Шайбанихан үлкен жасақ жинап, Самарқандқа қайта жорыққа шығады. 1501 жылы сәуірде Зарафшан жағалауындағы Сарипул ауылы маңындағы шайқаста Бабыр әскері жеңіліске ұшырады. Бобур Самарқандқа шегінеді. Қала қайтадан қоршауға алынып, төрт айға созылды. Қоршауда қалған қала аштыққа ұшырайды.

1494 жылы Омар Шейх мырза қайтыс болады да, Ферғана әмірінің орны бос қалады. Осы кезде Омар Шейх мырзаның інісі, Самарқан әмірі Ахмет мырза осы орынға ауыз салып, Ферғана әмірінің тағына таласады. Алайда Омар Шейх мырзаның беделді бектері оған қарсы шығып, Омар Шейх мырзаның 11 жасар баласы Бабырды Ферғана әмірі деп жариялап, асығыс таққа отырғызады. Бабыр үкімет басына келген кезде, Самарқанды Темір тұқымдары өзара жауласып, бір кездегі аса қуатты Темір мемлекетін әбден әлсіреткен еді.

Соның салдарынан Шайбанихан шабуыл жасайды. Оның шабуылына төтеп бере алмаған Бабыр нөкерлерімен Ауғанстанға келеді. Онан соң Үндістанға қарай бет алады да 1525 жылы Делиді басып алады, Үндістан сұлтаны болады.

Бабыр 1530 жылдың 26 желтоқсанында Агра қаласында дүниеден озады.

Бабыр әулиеті Үндістанда үш жүз жыл өз билігін жүргізеді. Бабыр әулиетінің қирауы Үндістанды ағылшындар басып алу дәуіріне тұра келеді. Бабыр Үндістанға

көптеген өзгерістер енгізеді. Оның шығармалары ішінен Бабыр-наме дүниеге ең танымалы деуге болады.

Қорытынды: Қорыта айтқанда Бабыр дүниежүзі тарихында алған орны айырықша. Оның өмірбаяны басқа сұлтандардың өміріне ұқсамайды. Бабырдың даналығымен ер жүректігі әлі де бізді таң қалдыруда.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ (REFERENCES)

1. УзМе бірінші басылым Ташкент 2000
2. Гулбаданбегім, Хумаюннама Ташкент 1959
3. Джавахрлал Неру Үндістанды ашу 1955

“SAB’AI SAYYOR” BAG’RIDA BADIYLIK JILOSI

Bahronova Zarina Ilhomovna

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada soʻz sanʼatining buyuk dahosi Navoiy hazratlarining “Sabʼai sayyor” dostonida qoʻllanilgan sheʼriy sanʼatlar vositasida badiiyat masalasiga alohida eʼtibor qaratildi.

Kalit soʻzlar: “Sabʼai sayyor”, misra, bayt, sheʼriy sanʼat, hamd, naʼt munajat, mubolagʻa, tashbeh, rujuʼ, mohiyat, badiiyat.

“Maʼlumki, sheʼriy sanʼatlar badiiy asarda ifodalangan gʻoyalarning hayotiyroq, taʼsirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini taʼminlashga xizmat qilgan. Sheʼriy sanʼatlar shoir badiiy salohiyatini koʻz-koʻz qilish, uning xilma-xil sanʼatlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining koʻlami, yuksak ijtimoiy-axloqiy gʻoyalarni jilolantirish sanʼatkorligi ifodasi boʻlib kelgan. Sheʼriy sanʼatlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi, sheʼriy sanʼatlarning asar mazmuni bilan uzviy bogʻliqligi sanaladi. Sheʼriy sanʼatlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega boʻlishi, yaʼni qoʻllanayotgan sanʼat hayot mantigʻiga mos kelishi, unga zid bormasligi shart.”(1,4-5b)

Navoiy dahosidek buyuk soʻz sanʼatkorining asar badiiy qimmatini, novatorligini yaratishdagi mahorati barchaga birdek maʼlum boʻlgani kabi, uning nasr hamda nazmda yaratgan jamiki asarlari, cheksiz merosi biz avlodlar uchun beqiyos xazinadir. Hazrat Navoiy - cheksiz bir ummon. Uning qalami lutfidan toʻkilgan har bir misra mana shu hadsiz dengiz tubiga choʻkkan

marvaridlardir. Quyida biz marvaridlar ichidan “Sab’ai sayyor” deya atalmish dur bag’rida jo bo’lmish badiiyat jilolariga nazar tashlaymiz:

*Sen-sen ul mehri beadilu badal,
Kim, sanga matla’ o’ldi subhi azal.
Chunki ul subh nurung etti zuhur,
O’ylakim, tiyra shom jabhayi hur.
Harnekim qatmi adamda erdi nihon,
Xoh ahli jahonu xoh jahon.
Borisi kiydilar libosi vujud,
Bud xaylig’a kirdi har nobud.
Zohir etti adam shabistoni,
Yuz ming ozod sarvi bo’stoni.
Avtomatlashtirilgan ro‘yxatga olish tizimini yaratishdan asosiy maqsad hudud va ko‘chmas mulk bilan ish olib boruvchi hamda shu sohalarni boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilish bo‘yicha turli-tuman masalalarni hal qiluvchi turli darajalardagi ma‘muriy-xo‘jalik xizmatlarini ishonchli ko‘p qirrali axborotlar bilan ta‘minlashdan iborat. Shvetsiya dunyoda birinchi bo‘lib EHM tarmoqlari asosida ko‘chmas mulklarni ro‘yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga to‘la o‘tishni yakunladi [2].


Aholi yashash joylari avtomatlashtirilgan tizimini yaratish uchun axborotli asos bo‘lib, quyidagilar xizmat qiladi.

- Xaritashunoslik materiallari:
- Izohli reyestrlar ko‘rinishidagi matn axborotlari:
- Parametrik ma‘lumotlarning sonli qiymatlari: masalan,
- Norvegiyaning avtomatlashtirilgan tizimi uchta reyestrda tashkil topgan:
- Yer egaliklarining reyestr - munitsipal nazorat tashkilotlari tomonidan tuzilgan va mahalliy sudlov muassasalarida ro‘yxatga olingan mavjud yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi:
- Manzillar reyestri – markaziy statistika byurosi tomonidan shakllantiriladi.

Avtomatlashtirilgan axborotlar tizimini yaratishda, eng avvalo, avtomatlashtirilgan funksiyalarni to‘g‘ri izohlash muhimdir.

Shunday ekan aholi punktlari yerlarining kadastrini yaratish har bir foydalanuvchida o‘rnatiladigan avtomatlashtirilgan ish joyini ishlab chiqarish va

qo‘llashni ko‘zda tutadi. O‘rnatilgan avtomatlashtirilgan ish joyidan foydalanish jarayonida ham alohida (lokal) tarzda ma’lumotlar bazasi shakllanadi[3].



1-rasm. Kadastrini yuritishda avtomatlashtirilgan tizimi

Keyingi yillarda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham aholi yashash joylari ma’lumotlarini avtomatlashgan tizimga keltirishda zamonaviy Geografik axborot tizilari (GAT) dan keng foydalanilmoqda. Chunki hozirgi zamonaviy GAT dasturlari aholi yashash joylarini xaritalarini yaratish va boshqa kadastr ishlarini olib borish ishlovchi va foydalanuvchilarga katta qulayliklar tug‘diradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yuqorida qayd qilingan qator mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish asosida mamlakatimizda ham aynan shunday tizimni vujudga keltirish yer va ko‘chmas mulk bozorini oqilona shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov A., Ro‘ziboyev S. Aholi yashash joylari kadastr. Toshkent.: Tafakkur. 2011 y.
2. Artemenko V., Loyko P., Ogarkov A i dr. Kadastr zemel naselyonnqx punktov M.: Komes. 1997 g.
3. Abdurazaqov A.T., Bobojonov A.R., Denisov V.V., Yer tuzish asoslari. T., TIMI, 1997
4. Avezboyev S. A, Balkov S.N, Yer tuzish va loyihalash T. Yangi asr avlodi, 2004
5. Bobojonov A.R., Ro‘ziboyev S.B., Abdurahmonova I.K. Yerdan foydalanish asoslari T.TIMI, 2006 y.

SUN'IY YO'LDOSH GEODEZIK TARMOQ PUNKTLARIDA KUZATISHLAR USULLARI

Abdinazarov Azizjon Chorikulovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi.

Dustqobilov Asliddin Boboqul o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy yo'ldosh geodezik tarmoq punktlarida kuzatishlar usullari, sun'iy yo'ldosh navigatsion tizimlari va GPS/GLONASS tizimlardan foydalanishning o'z usullarini tashkil etilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: GPS, GLONASS, sun'iy yo'ldosh navigatsion tizimlari, geodezik o'lchashlar va geodezik tarmoqlar.

Hozirgi vaqtda geodezik o'lchashlarni bajarishda asosan ikkita sun'iy yo'ldosh navigatsion tizimlari qo'llaniladi – AQSH ga tegishli NAVSTAR (Navigation Satellite Timing And Ranging), yoki aniqroq qilib aytganda GPS (Global Position System) .Ushbu ikki tizimdan tashqari, Yevropa agentligiga tegishli Galileo sun'iy yo'ldosh navigatsion tizimi ham mavjud.

Ma'lumki hozirgi kunda nuqtalarni planli o'rnini qisqa vaqtda aniqlash uchun GPS/GLONASS tizimlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Sun'iy yo'ldoshlar orqali geodezik o'lchashlar ko'pincha nisbatan pozitsirlash (o'rnini aniqlash) usulida bajariladi. O'lchash natijalarini ishlab chiqish jarayonida rover o'rnini baza punktga nisbatan aniqlab beruvchi fazoviy vektorlar shakllanadi.

Bu usullar o'lchash talablari ya'ni, aniqlik darajasi, punktlar orasidagi masofa va s'yomka masshtabiga ko'ra tanlanadi. Yuqori aniqlikdagi o'lchashlarni bajarish uchun albatta statika usulidan foydalangan ma'qul. Bu usul boshqa usullarga

qaraganda ko‘proq vaqt talab qilsa ham, lekin aniqligi bo‘yicha yuqori turadi va sun‘iy yo‘ldosh geodezik tarmoqlarni barpo etishda tavsiya etiladi.

Sun‘iy yo‘ldosh o‘lchashlarni statika usuli “klassik” (an’anaviy) usul hisoblanadi. Bu usulda o‘lchashlar bir vaqtning o‘zida 2 ta yoki undan ko‘proq priyomniklar bilan bajariladi. O‘lchashlar vaqtida sputniklarning geometrik joylashuvi o‘zgarib turadi va bu o‘zgarishlar bajariladigan ish natijasiga ta’sir qiladi.

Statika usuli yuqori aniqlikdagi o‘lchashlarni bajarishda, 20-30 km ga yaqin vektorlarni o‘lchashda, hamda kam sonli sputniklar bilan kuzatishlarda qo‘llaniladi. Statika usulida kuzatishlarni olib borishda GPS/GLONASS priyomnikni punktga o‘rnatish tartibi quyidagicha:

- 1) asbob punkt ustiga eng qulay holatda o‘rnatilishi kerak;
- 2) o‘rnatilgan asbobdan fazoni kuzatish burchagi 15° dan kam bo‘lmasligi kerak;
- 3) punktga o‘rnatilgan asbob balandligi yerdan 1,2m dan past bo‘lmasligi kerak;
- 4) punktlar oralig‘i 1-2 km dan qisqa bo‘lmasligi kerak;

Statika usulida kuzatishlar olib borishda quyidagi asosiy talablarga rioya qilish lozim:

- punktda 4 tadan kam bo‘lmagan sputniklarni kuzatish;
- ma’lumotlarni yozib olish oralig‘i 20 sekund.

Bekatlarda bajariladigan ish antennalarni o‘rnatishdan boshlanadi. O‘lchash vaqtida antenna balandligining o‘zgarmasligini ta’minlash uchun antenna o‘rnatilayotgan shtativ keraklicha maxkamlanishi kerak. Antennani markazlashtirish optik markazlashtirgich orqali ± 1 mm aniqlikda bajariladi. Mavjud oriyentirlash o‘qlari orqali antenna shimolga oriyentirlanadi. Barcha sputnikli o‘lchashlar antennaning fazoviy markazi bilan munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun antennaning balandligini sinchiklab o‘lchash kerak. Antenna balandligini o‘lchashdagi xatolik punktlar kordanatalarini topish aniqligiga ta’sir etadi. Balandlik rulteka yoki maxsus asbob bilan 2 marta o‘lchanadi: kuzatuvdan oldin va keyin.

Priyomnikni yoqish, o‘lchashlarni bajarish va priyomnikni o‘chirish mutaxassis ishtirokida bajariladi. O‘lchashlar kelishilgan va tasdiqlangan “sputnik o‘lchashlar jadvali” asosida boshlanadi. Priyomnikni yoqish uni markazlashtirgandan keyin

ruxsat beriladi. Yozuvlar ishjurnaliga rasmiylashtirilgan namuna bilan birga olib boriladi. Kuzatuv jarayonida priyomnikning ishlashini har 15 minutda tekshirish tavsiya etiladi. Tekshirilgan natijalar dala jurnaliga yozib boriladi.

Ishlash jarayonida har bir punktda bittadan priyomnik oʻrnatiladi va bir vaqtning oʻzida oʻlchashlar boshlanadi. I-klas suniy yoʻldosh tarmogʻini qurish uchun 4 soatdan 2 seans oʻlchanadi, II-klas suniy yoʻldosh tarmogʻini qurish uchun esa 2 soatdan 2 seans oʻlchanadi. Priyomniklar qancha koʻp ishlasa ular orasida bir-biri bilan vektorlar hosil boʻlib aniqlik darajasi yanada oshadi. Punktlar orasidagi masofalar 50-100 km boʻlsaham hech qanday qiyinchiliksiz ularni oʻrni aniqlanadi.

Seans vaqtida quyidagi meteoparametrik oʻlchashlar kerak boʻladi: havo harorati, bosimi va namligi. Natijalar dala jurnaliga yoziladi.

Atmosferadagi yogʻin-sochin, tuman va boshqa muhitlar priyomnikning ishlashiga taʼsir qilmaydi. Atmosferadagi elektr razryadlari oʻlchashlarni yomonlashtirishi mumkin. Sovuq ob-havoda akkumulyatorlarning ishlash vaqti pasayadi.

Tez statika usuli – ushbu usul sputnikli oʻlchashlarda statika usulidan ishlash vaqtining qisqaligi bilan ajralib turadi. 2 chastotali barcha hammabob sifatli oʻlchashlardan optimal foydalanishga imkon beradi. Tez statika usuli 2 chastotali priyomniklardan mavjud oʻlchash ishlarining dasturlari bilan birga amalga oshiriladi.

Tez statika usuli oʻlchashlarda vektorlarning 10-15 km gacha oraligʻi qoʻllay oladi, tarmoqlarda punktlarning (nuqtalarning) koʻp sonini qoʻllaydi.

Seansning davom etishi seansdagi chiziqlarning uzunligini oʻzgarishiga bogʻliq.

Tez statika usulining asosiy talablari:

- punktda 5 tadan kam boʻlmagan sputniklarni kuzatish;
- maʼlumotlarni yozish oraligʻi 5-10 sek.

Tez statika usulining bekatdagi ishlarni bajarish tartibiva koʻrsatmalari statika usuli bilan bir xil. Biroq tez statika usulning aniqlik darajasi davlat geodezik tarmoqlarini qurish talablariga toʻliq javob bera olmaydi. Shuning uchun bu usulni faqat sʼyomka asosini qurish va rivojlantirishda qoʻllash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Gʻ.N.Aliqulov., M.M.Aralov., N.A.Abdiraxmatov, Z.M.Qilichev. Yer va bino inshootlar xatlovi. Oʻquv qoʻllanma. Qarshi-2021, 175 b.

2.Aralov M.M., Berdiyev D.F., Abdiraxmatov N.A. Geodezik ishlarda sunʼiy yoʻldosh orqali oʻlchash usullari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL 2021, aprel.



TEXNOLOGIK XARITA YARATISH VA GEOGRAFIK KARTANI TAYYORLASH USULLARI

Aralov Muzaffar Muxammadiyevich,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

Berdiyev Dilshod Faxriddin o‘g‘li,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik xaritalarni yaratish va tayyorlash usullarini bajarishda GIS texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Barcha GISlarda ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, xotirada saqlash, yangilash, tahlil qilish va ma‘lumotlarni kompyuterda yoki yetarli darajada tasvir xususiyatini qayta ishlay oladigan maxsus dasturda texnik vositalar orqali ushbu jarayonlarni bajarish usullari e‘tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: Xarita, Gis, geodezik ishlar, geografiya, kartografiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается широкое использование ГИС-технологий при создании и подготовке технологических карт. Все ГИС учитывают способы сбора, обработки, хранения, обновления, анализа данных и выполнения этих процессов техническими средствами в специальной программе, способной обрабатывать данные на компьютере или достаточном свойстве изображения.

Ключевые слова: Карта, ГИС, геодезические работы, география, картография.

Ayni vaqtda topografik-geodezik ishlarni ana‘naviy usulda bajarishdan voz kechilib, bu ishlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan xolda bajarish ishlari mamlakatimizda izchil ravishda yo‘lga qo‘yilmoqda va bu jarayonni amalga

oshirishda bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Ushbu mavzuda davlat geodezik to‘rlarini zamonaviy GPS texnologiyalaridan foydalanilgan holda barpo etish taklif etiladi. Davlat geodezik to‘rlarini ananaviy usulda barpo etish bir muncha noqulaylik va muammolar tug‘dirishi mumkin. Davlat geodezik to‘rlarini GPS texnologiyalaridan foydalanib barpo etish esa an’anaviy usuldan farqli o‘laroq tezroq bajarilishi, aniqligi va iqtisodiy samaradorligining yuqoriligi bilan e’tiborlidir.

Hozir mamlakatimizda davlat geodezik to‘rlarini GPS texnologiyalaridan foydalanib yaratish yaqin vaqtlardan buyon yo‘lga qo‘yilmoqda. Mavzuning amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bunda taklif etilayotgan davlat geodezik to‘rlarini GPS texnologiyalaridan foydalanib barpo etishda yangicha bir usulni ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri bu usul davlatimiz geodeziya-topografiya tizimida tajriba sifatida ham va ayrim obyektlarda ham qo‘llanilgan va ma’lum natijalarga erishilgan. Agarda davlat geodezik to‘rlari zamonaviy GPS texnologiyalari yordamida barpo etilishi keng qamrovlarda yo‘lga qo‘yilsa, bu to‘rlardan foydalangan holda bajarilgan geodezik-topografik ishlarning samaradorligi va aniqligi yuqori bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Shuningdek texnologik xaritalarni yaratish va tayyorlash usullarini bajarishda GIS texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Barcha GISlarda ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, xotirada saqlash, yangilash, tahlil qilish va ma’lumotlarni kompyuterda yoki yetarli darajada tasvir xususiyatini qayta ishlay oladigan maxsus dasturda texnik vositalar orqali ushbu jarayonlarni bajarish usullari e’tiborga olingan.

Albatta, har bir ishni bajarish uchun alohida geografik asos tanlanadi. Barcha GISlarning markaziy qismini GPS texnologiyalari yordamida avtomatlashgan kartografik tizim (AKT) tashkil etadi - bu texnologik kartalarni yaratish, tayyorlash va ulardan foydalanish, turli masalalarni yechishga moslashgan dasturlar va kompyuter uskunalari birlashmasidan iborat bo‘ladi.

Texnologik xarita - ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog‘liq texnologik ishlar majmuidir. Ishlab chiqarish resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar, ulardan foydalanish va boshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, shuningdek,

belgilangan ishlab chiqarish dasturini bajarish bo‘yicha tashkiliy iqtisodiy tadbirlar aks etgan normativ reja hujjatidir. Texnologik xarita jadval shaklida bo‘lib, unda ketma-ketlikda barcha turdagi ishlar, asosiy agrotexnik tadbirlar, mashina, mexanizm va agregatlar tarkibi, urug‘lik materiallar sarfi normalari, bajariladigan ishlar hajmi, baholari va boshqa ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi, shuningdek, mahsulot tannarxini hisoblashda qishloq xo‘jaligida qabul qilingan uslubiyat bo‘yicha harajatlar turlari aks ettiriladi. Texnologik xarita asosida barcha mahsulotlar bo‘yicha bevosita harajatlar, bo‘linmalardagi doimiy va mavsumiy xodimlar soni, texnika, urug‘lik, ozuqa va boshqa moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlar aniqlanadi. Texnologik xarita yordamida bo‘linmalar ishlab chiqarish topshiriklari shakllantiriladi, zarur harajatlar limiti hisob kitob qilinadi, mahsulotning reja tannarxi hisoblanadi, mahsulot birligiga narx belgilanadi, rejalashtirilgan ishlarni bajarilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Texnologik xarita barcha ekin turlari, chorva turlari yoki turdosh ekinlar va chorva mollari guruhlari yoki ayrim ish turlari bo‘yicha tuziladi. Texnologik xaritalarni xo‘jalik mutaxassislari xo‘jalikdagi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda namunaviy shakllar asosida ishlab chiqadilar. Texnologik xaritalar tezkor, yillik va istiqbolli turlarga bo‘linadi. Fan texnika taraqqiyotining ilg‘or yutuqlarini qo‘llashni etiborga olib tuzilgan texnologik xaritalardan texnika, texnologiyadagi yangiliklarni, o‘zgarishlarni kiritish bilan bir necha yil foydalanish mumkin.

Geografik kartani tayyorlash haqidagi bilimlar, geografik kartaning xususiyatlarini o‘z ishida etiborga olishga geograflarga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida uning uchun zarur kartalarni tayyorlashda asoslangan topshiriqlarni berishga qaratiladi.

Kartografik ishlarni ilmiy asosda qurishda, yani umumgeografik va mavzuli rang – barang karta va atlaslarni yaratish bo‘yicha olib boriladigan davlat kartografik xizmati ishlarida geograflarning ishtiroki talab etiladi. Ko‘rilayotgan ishlarda kartalarni tayyorlash masalalarida zaruriy bilimlarni egallashga geograflar majbur va shuningdek, kartografik ishlar ko‘p hollarda kartalarni pechat qilish bilan yakunlanadi, kartani nashr qilish haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi.

Geografik kartalar ikki usul yordamida olinadi: bevosita dala syomkasi va ulardan olingan materiallarni qayta ishlash. Dala syomka ishlari joyda kartalashtiriladigan obyektlarning aniq ko‘rinishini tadqiq qilishdan iborat. Topografik karta tuzish uchun joyda olib boriladigan syomka va uni qayta ishlash usullari topografiya va aerotopografiyada qaraladi va ishlab chiqiladi.

Geografik kartalar ikki xil yo‘l bilan tayyorlanadi:

1. Dalada olib boriladigan syomka vositasi bilan olingan materiallar va ularni qayta ishlash asosida;

2. Turli xil manbalarni qayta ishlash asosida xona yoki laboratoriya sharoitida.

Syomka - dalada, kartalashtiriladigan voqea va hodisalarni asl ko‘rinishida tadqiqot qilishdan iboratdir. Topografik karta yaratish uchun olib boriladigan syomka va ularni qayta ishlash usullari topografiya va aerofototopografiyada ishlab chiqiladi va qaraladi. Mavzuli syomkalar - geomorfologik, geologik, tuproq va boshqalar - geomorfologik, geologik, tuproq va sh.k kartalashtirish ishlari vazifasiga kiradi.

Laboratoriya sharoitida kartalarni tayyorlash - aniq masalalarni yechish uchun belgilangan, borliqning obrazli - belgili modelining fazoviy holatining yangi modelini yaratish maqsadida unga mos bo‘lgan manbalarni sintez va umumlashtirishdan iboratdir. Har qanday kartaning muvofaqiyatli ishlanmasini ikkita sharoit oldindan belgilaydi: birinchidan, masalaning mohiyatini to‘g‘ri qo‘yilishi - kartalashtiriladigan hodisalarning to‘g‘ri belgilanganligi va mavjud borliqni chuqur tushunishga va kartalarning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligini hisobga olishga asoslanganligidir; ikkinchidan, kartografiya fanining norma va qoidalari, prinsiplari bo‘yicha modellarning to‘g‘ri qo‘yilganligiga.

Kartaning asl nusxasini, yani uning dastlabki nusxalari laboratoriya sharoitida yaratish ikki asosiy bosqichda ajratiladi - kartani loyihalash va uning asl nusxasini tayyorlash. Kartani loyihalash - hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat, kartaning asl nusxasini tayyorlash bo‘yicha bajariladigan barcha ishlar va uni tashkil etish uchun zarur bo‘ladigan ishlar va qachonki, bu zarurot, uni ko‘paytirishni talab etganda

bajariladi. Kartani tuzish - kartalar asl nusxasini grafik qurilmasini bajarish maqsadini o‘z ichiga oladi.

Kartani loyihalashning asosiy natijalari kartalar dasturi hisoblanadi - hujjatlar, maqsadini belgilovchi, kartalarning turlari va tiplari, uning matematik asosi, mazmuni, generalizatsiya prinsiplari, tasvirlash usullari va grafik simvollar tizimi, manbalar va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek, kartalarni texnologik tayyorlash jarayonlari. Karta dasturi, qo‘shimcha texnik va iqtisodiy hisob kitoblar, smeta va shu kabilar karta loyihasini tashkil qiladi.

Hozirgi kartografik ishlab chiqarish jarayonida kartalarni yaratish - har xil malakali mutaxassislarning kollektiv mehnati, katta mehnat samaradorligini taminlaydi, bu esa o‘z navbatida karta ustida ishlash muddatini va sarf harajatlarning qisqarishini taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirzaliyev T. Kartografiya Darslik T.: 2002.
- 2.Egamberdiyev A. Geodeziya asoslari va topografiya Toshkent, ToshDU 1989.
- 3.<http://www.geopribori.Ru>



ЭКОЛОГИК КАРТАЛАРНИ ТУЗИШДА ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдурахмонов Сарвар Нарзуллаевич

ТИҚХММИ. МТУ, PhD, доцент.

Бердиев Дилшод Фахриддин ўғли

ҚарМИИ.ўқитувчиси.

Аннотация. Ушбу мақолада экологик карталарини тузишда маълумотлар тўплаш ва унда замонавий методлардан фойдаланиш, фазовий маълумотларни ГАТларда визаллаштириш, интеграциялаш ҳамда ижтимоий-иқтисодий карталарни тузиш ишлари юзасидан фикр-мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: Экология, карта, интеграция, статистик маълумотлар, картографик маҳсулот, рақамли карталар, план.

Кириш. Экология муаммоси давримизнинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолди. Асрлар туташ келган паллада бутун инсоният, мамлакатимиз аҳолиси - жуда катта экологик хавфга дуч келиб қолди. Бунини сезмаслик, қўл қовуштириб ўтириш - ўз-ўзини ўлимга маҳкум этиш билан баробардир. "Экология ҳозирги замоннинг кенг миқёсдаги кескин ижтимоий муаммоларидан биридир. Уни ҳал этиш барча халқларнинг манфаатларига мос бўлиб, цивилизациянинг ҳозирги куни ва келажаги кўп жиҳатдан ана шу муаммонинг ҳал қилинишига боғлиқдир". Бугунги кунимизда экология муаммоси давримизнинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолди. Экологик мувозанатнинг характери ҳудудда экологик вазиятнинг хусусиятини аниқловчи энг мақбул ва самарали мезон ҳисобланади. Мувозанатнинг ҳолатига қараб табиатда қандай ўзгаришлар юз бераётганини ва бунинг натижасида нималар содир булиши мумкинлиги тўғрисидаги ахборотларни билиб олиш мумкин. Экология

соҳасига хос бўлган комплекс ёндошувда, одатда, атроф - муҳитнинг умумлаштирувчи тавсифларига таянилади.

Муаммонинг қўйилиши. Экологик муаммоларни ижобий ҳал қилиш кўп жиҳатдан уларнинг мажмуали ва мавзули карталарининг сифатиغا, ҳаққонийлигига ва барча илмий жиҳатларни қай даражада қамраб олганлигига ҳам боғлиқ [1]. Худудий экологик вазиятни тўла мазмунда акс эттирадиган карталар вазиятни илмий баҳолаш, ривожлантирувчи омиллар, шароитларни аниқлаш, башорат натижаларидан бохабар бўлишга имкон беради.

Тадқиқот услуби. Экологик вазиятлар карталарининг асоси дала шароитида жойларда олиб борилган мажмуали ландшафт-экологик тадқиқотларнинг натижалари негизида тайёрланади. Бунинг учун аввало ландшафт тадқиқотлари, сўнгра экологик вазиятнинг ўзгаришига оид барча қўшимча тадқиқот ишлари олиб борилиши зарур, чунки тўла ва барча хусусиятларни қамраб олувчи маълумотлар фақат даладаги тадқиқотларда йиғилиши мумкин. Кўпчилик ҳолларда экологик муаммолар тезкор ва аниқ ҳаракатларни амалга оширишни талаб қилади, бу эса маълумотларни географик ахборот тизимлари дастурларида яратилиши лозимлигини кўрсатади. Географик ахборот тизимлари аҳамияти анъанавий соҳалар каби экология йўналишида ҳам сезиларли устуворликка эгаллиги кузатилмоқда. Географик ахборот тизимлари турли хил сўровлар орқали тегишли маълумотларни тезкор равишда олиш, уларни картада акс эттириш, экотизимларнинг ҳолатини баҳолаш, уларнинг ривожланишини олдиндан башорат қилиш каби вазифаларни ечиш имконини беради. Худди шундай принцип Ўзбекистон давлати олиб бораётган экологик сиёсатда, Олий Мажлис томонидан қабул қилинган табиий атроф муҳитни муҳофаза этишга бағишланган қонунларда ўз ифодасини топган. Бунинг юридик ифодаси сифатида экологик экспертизани, хўжалик ва бошқа фаолиятни амалга оширишда экологик талабларни, экологик

талабларга жавоб бермайдиган корхоналар ва объектларни фойдаланишга киритиш ман қилинишини кўрсатиш мумкин. [2] Географик ахборот тизимлари ёрдамида:

- рақамли картографик ва экологик маълумотларнинг компьютер хотирасига киритиш, тўплаш, саклаш ва қайта ишлаш;
- маълумотлар асосида экотизимларнинг ҳолатини ақс эттирувчи мавзули карталарни тузиш;
- турли муҳитларда экологик вазиятнинг ривожланишини моделлаштириш ва экотизимларнинг иқлим шароитларига боғлиқлигини ўрганиш,
- ифлосланиш манбаларини тавсифлаш, ифлослантирувчи моддаларнинг концентрация қийматларини аниқлаш.

Географик ахборот тизимлари турли маълумотлар билан табиий атроф - муҳитнинг объектлари ҳолатини мажмуали баҳолаш каби ишларни амалга ошириш мумкин.[2]

Рақамли картографияда аниқлик географик ахборот тизимлари пакетларининг қай даражада мукамал тузилишига боғлиқ.

Қуйида рақамли картографиянинг муҳим технологик хусусиятлари келтирилган:

1. Ахборотлар билан таъминланиши даражаси;
2. Ахборотларни узатиш (бу параметр Рақамли карталарни тузишда асосий ўрин эгаллайди. Бу ахборотларни сифат баҳосини аниқлайди).
3. Аниқлик (рақамли картада аниқлик тушинчаси карталарни рақамли ҳолатга ўтказишда ўлчамларнинг аниқлиги тушинилади.
4. Ички структурани тузатилиши даражаси (тайёр рақамли карта ички структураси тўғри ташкил этилган бўлиши керак.

Географик ахборот тизимларида тематик картографияни методологик, методик ва технологик имкониятлари кенг соҳада қўлланилади. Географик ахборот тизимларини қоғозли картографиядан фарқи унинг

автоматлаштирилганлигидадир. Қуйида ГАТ да тематик картографияни бир қанча имконият параметрлари келтирилган:

1. Компьютер графикаси-ГАТ да компьютер алгоритмлари ёрдамида махсус тематик карталар тузиш мумкин. Буларни қўл билан тузиш имконсиздир.

Буларга картограммалар, картографик кўрсаткичлар ва картографик шартли белгилар мисол бўла олади.

2. Юқори фаолиятлилик-ГАТ да бу 3 турга бўлинади:

1) маълумотларни излаш (справочник)

2) назарий ҳисоблаш

3) расмийлаштириш.

3. Кўп ўлчовли параметрлар-бунда уч, тўрт ва беш ўлчамли сохалар тушинилади.

4. Мултимедия-ҳозирги вақтда электрон тематик карталар товуш ва видео тасвир билан таъминланган.

3. Фойдаланувчи карта билан ишлаганда қуйидаги имкониятларга эга:

1) экранда бир нечта тематик карталарни исталган бир шаклда қўриш;

2) тематик карталарни тузатиш ёки янгисни яратиш;

3) картани исталган масштабда қўриш имконияти;

4) картада белгиланган объектни ажратиб кўрсатиш имконияти;

5) тематик шароитда географик танлашларни тузиш;

Натижалар. Ҳозирги вақтда электрон тематик карталар Atlas*GIS пакетида тузилади.

Картографик ишларни яхшилаш, картографик асарларни яратиш тезлатиш ва уларни илмий-мантқиқий кетма-кетликда қатъий режа асосида босқичма-босқич амалга ошириш учун бу ишларни амалий координация қилиш лозим. Бунинг учун “Ергеодезкадастр” қошида Ўзбекистоннинг махсус миллий-информацион картографик маркази ташкил этилиши керак, у ерда барча зарур фазовий-худудий информация бир жойга тўпланади ва мунтазам янгилаб турилади.

Карта тузиш жараёнлари икки босқичда, дала ва камерал ҳолатларда амалга оширилиши ҳаммамизга маълум. Камерал ҳолатда карта тузиш жараёнлари бир неча мушкул босқичларни ўз ичига олади. шулардан бири карта тузишда тайёргарлик ишларидир. Биз илмий, таҳлилий изланишлар натижасида энг самарали ишлар сифатидаги қуйидагиларни эътироф этишимиз мумкин:

❖ карта янгиланишига зарур бўладиган аэрофотосъёмка, геодезик, картографик ва адабий-ахборот материалларни йиғиш ва тизимлаштириш ҳамда уларнинг даражасини ва фойдаланиш тартибини аниқлаш.

❖ йиғилган материаллар асосида янгиланаётган картани аниқлиги текширилади ва жойдаги ўзгаришлар миқдори ва характери, янгилаш керак бўлмаган ва рельефи ўзгарган участкаларининг варақлари аниқланади. Ўзгаришлар таҳлили асосида картани янгилаш усули бўйича қарор қабул қилинади.


❖ карта аниқлигини таҳлили кейинроқ олинган съёмка материаллари билан таққослаш асосида ёки картага янгиланаётган картани нашр этилгандан сўнг олинган геодезик пунктларни киритиш йўли билан амалга оширилади.

Бундан ташқари аниқликни текшириш фотограмметрик тармоқ қўриш йўли билан амалга ошириш мумкин.

Техник лойиҳани, камерал ишларининг лойиҳасини ва картани янгилаш бўйича таҳририй кўрсатмаларни ишлаб чиқиш.

Камерал ишларининг лойиҳаси техник лойиҳасига мувофиқ ва ўзгаришлар характери ва миқдорини таҳлил қилиш ва картани аниқлигини инобатга олган ҳолда тузилади.

Лойиҳада ишлар технологияси аниқланади, зичланиш усуллари, сақланган контурлардан фойдаланиш, идоравий материаллардан фойдаланиш бўйича кўрсатмалар берилади. Таҳририй кўрсатмалар тузилади [2].



1-расм. ArcGis дастурида экологик ҳолати танг туман массивларининг ажратиб кўрсатилиши.

Хулоса. Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, экология ҳозирги замоннинг кенг миқёсдаги кескин ижтимоий муаммоларидан биридир. Уни ҳал этиш барча халқларнинг манфаатларига мос бўлиб, цивилизациянинг ҳозирги куни ва келажаги кўп жиҳатдан ана шу муаммонинг ҳал қилинишига боғлиқдир. Экологик карталар қайси ҳудудда вазият танг ҳолга яқинлашаётганини аниқлаш ва бунинг олдини олиш учун тадбирлар тизимини ишлаб чиқиш, уларни ўз вақтида амалга ошириш учун асосий қурол бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Т. Мирзалиев, И Мусаев. Картография. Тошкент: “ИЛМ ЗИЁ”, 2007.
2. “Картография” илмий ишлаб чиқариш давлат корхонаси ташкил топганлигининг 80 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 28 март 2014й. www.mapping.com.
3. Мирзалиев Т., Мусаев И. Картография, Т., Илм зиё, 2007, -160 б.
4. Интернет маълумотлари.

YOSHLAR TARBIYASIDA O‘ZBEK XALQI KUY QO‘SHIQLARI AXAMIYATI

Mirzaqulova Nigora Azimovna

Qashqadaryo viloyati Koson tumani 94-maktabning ijodiy madaniy masalalar
bo‘yicha targ‘ibotchisi hamda musiqa fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolamizda o‘zbek xalqi ijodida jangchiga jasorat bergan kuy, kuyning inson hayotidagi o‘rni va ruxiyatiga tasiri haqida fikir mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: kuy, hikoya, kuyning turlari, cholg‘u, ohang,

Annatsiya: in this article, we reflect on the effect of the melody, which gave courage to the warrior in the creativity of the Uzbek people, on the role and authorship of the melody in human life.

Key words: melody, hikoya, types of melody, instrumental, melody,

Аннотация: В этой статье мы подробно расскажем об овце, которая дала мужество воину в творчестве узбекского народа, о роли овцы в жизни человека и ее влиянии на психику.

Ключевые слова: овца, рассказ, виды овцы, инструмент, мелодия,

Agar rahbarlar, muallimlar yangi O‘zbekistonga munosib harakat qilsa, farzandlarimizni davr talabiga mos o‘qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib berayapti. Bu juda katta mas’uliyat. Shuni his qilib, o‘zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin





yaratamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Avvalo bu maqolamizda kuy haqida qiqacha ma'lumotlarni taxlil qilsak maqsadga muvofiq bo'lar. Kuy - (yunoncha: melodia-ashula aytish, melos-ashula va ode-kuylash) turli baland va uzunlikdagi tovushlarning ma'lum bir ritm va ladda badiiy holatda kelishi. Musiqa asari bir yo bir necha kuydan tuzilishi mumkin. Kuy asarning asosi hisoblanadi.

Kuyning eng xarakterli o'rni uning ohangdor bo'lishidadir. Cholg'u musiqa kuylari vokal musiqa kuylari bilan yaqin bo'lishiga qaramay, bular turlicha tuzilishda va kengayib, rivojlanib borishida farq qiladilar. Ashula aytishga nisbatan, katta imkoniyatlarga ega bo'lgan cholg'u asboblarda kuy murakkab bo'ladi. Demak, kuy musiqadagi asosiy ifoda vositalari bo'lgan lad, ritm, metr va tembrni o'z ichiga oladi. Shuning uchun birovzli musiqa ham, ko'povozli musiqa ham asosan kuy bilan esda qoladi. Yuqoridagi ma'lumotlarni o'qib be-ixtiyor bobom aytib bergan bir rivoyatdan tulqinlanib shu maqolani yozishga jazim ayladim.

Aytishlaricha jang maydoni, hamma joyda bombalar potlagan, kimning boshidan tinmay qon oqar, kimningdir qo'li yo'q. Dushman istihkomigacha esa anchagina masofa bor, shunda birdan kuchli portlash bo'ldi-yu hamma yoq jim-jit tus oldi. Ko'zimni ochdim va birdan yonimdagi sherigim Komiljonni ahtara boshladim, biroq topa olmadim. Yarador askarlarga yordam ko'rsata turib o'rmon ichidan entikib-entikib kelayotgan Komiljonga ko'zim tushdi va u tomon yugurdim. Bir oz o'ziga kelgach so'radim, -yonimda eding qanday sen dushman qarargoxidan kelyapsan? U esa samimiy jilmayib qo'lini lablarini juft qilib ustiga bosib “jimmm” dedida, eshit.... eshit...

- Nimani? Ajablandim. -Onam alla aytyapti. Biroz ajablandim, chunki hech kim alla aytayotgani yo'q edi. Yana so'radim va unga -o'zinga kel deb yuziga suv



sepdim. U esa qo‘llarini o‘zatib elas - elas eshitilayotgan kuy tomon o‘zatib, menga o‘sha musiqa ovozi kuch berdi o‘rtoq deya takidladi. Bir oz quloq tutib turdim, uzoqdan jang maydonida jangavor kuy matihni eshitib tanam jimirlab ketdi.

Komiljon esa shu kuydan o‘zida kuch topib dushman qarargohini portlatib kelgan ekan. Qarang azizlarim musiqaning shunchalik qudratli kuchi borki, asti quyaverasiz. Allomalarimiz musiqa haqida shunday deydilar, “Musiqa muvazanatdan chiqayorgan insonlarni muvazanatga solidi”.

Darhaqiqat agar tushkunlikka tushgan inson yaxshi qo‘shiq eshitib yana o‘zida yashashda kuch topa olishi bejiz emas. Azizlarim biror bir sanat ahlini ko‘rganmisiz yomon niyat qilishganini, elimiz tinch bo‘lsin, doim honadonlarda to‘ylar bo‘lsin, bizlar hizmatingizda bo‘laylik, diya niyat qilishadi.

Farzandlarimizni musiqaga oshufta qilib tarbiyalasak hech qachon jahildor, qurs bo‘lishmaydi. Chunki yaxshilikka chorlaydigan qo‘shiq, kuy bola ruhiyatiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatishi olimlarimiz tomonidan ham takidlab o‘tilgan. Biroq hozir yoshlarimiz eshitayotgan har-xil chet el musiqalarni ham ijobiy diya olmayman. Ohangi ajab tovur, asab tolalarini taranglashtirishi bilan bir qatorda ruhiyatni ham salbiylashishiga, bunda bolada jizzakilik, qurslik o‘zbiarmonlik kabi salbiy illatlar o‘z -o‘zidan shakillanib borishi bejiz emas.

Aziz ota onalar bolangizni qanday kino ko‘rishi bilan qiziqishingiz turgan gap, ammo bosh miyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri boradigan quloqchinni taqib olib qanaqa musiqa tinglayotganiga ham be‘etibor bo‘lmang.

O‘tgan pandimiya davri barchamizning hayotimizga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Keling azizlarim biz tushkunlikka tushmasdan har tong yahshi musiqani ovozini balandlatib mazza kilib raqs tushaylik. Binobarin imun tizimi mustahkamligi kayfiyatimizning yaxshiligiga ham bog‘liqdir. Momolarimizning

aytishicha jin, ajinalar ham doira-yu, dumbiralarning g‘umbaraqasar ovozidan qochishar emish.

Xulosa o‘rnida quydagicha tariflarni keltirishimiz mumkin yaniy o‘zbek xalqi yozma ijodiyotida o‘ziga xos tarbiyaviy axamiyatga egadir. Tarbiya avvalo oiladan boshlanishi barcha muammolarga yechim avvalo oiladan boshlanishi oilada ayollarning bola tarbiyasiga etibori yuksakligi yuqorida takidlab keltirgan qisqa xikoyamizda ham o‘z aksini topgan. Zero ayolning allasi bola qalbiga orom berishi muqaddas kuy alla nolasi bo‘lgani takidlanmoqda. So‘zimizni so‘ngida davlatimiz rahbari tabiri bilan aytganda quydagi fikir muloxaza bilan yakunlaymiz. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Avesto” tarixiy-adabiy yodgorlik. - T.: Sharq NMAK, 2001.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. - T.: Fan, 1974.
3. Badiy terma kitob: /Tuzuvchi S.G‘ozeva, D.Ochilova, L.Dolimova.-T.: O‘qituvchi, 1996.-224 b.
4. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari Hamidulla Boltaboev talqinida. 1 kitob. – T.: O‘z.Milliy ensiklopediya, 2006.-426 b.
5. Jumanazarov U. O‘zbek folklori va tarixiy voqelik. - T.: Fan, 1991.
6. Jo‘raev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – T.: Fan, 2008.
7. Jo‘raev M. Folklorshunoslik asoslari. -T: Fan, 2009. -189 b.
8. www.prezident.uz
9. <http://navoi.natlib.uz/>
10. <http://www.falsafa.dc.uz.>
11. [http://www.lex.uz/.](http://www.lex.uz/)
12. www.e-darslar.net

SHAVKAT RAHMON SHE’RLARIDA NOODATIY BOG‘LANISHLAR

Mallaboyeva Sadoqatxon Hamdamovna

Farg‘ona viloyati Quva tumani 35-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada noodatiy bog‘lanishlar Shavkat Rahmon she’rlari misolida izohlangan.

Kalit so‘zlar: noodatiy bog‘lanishlar, allofroniya, oksyumoron, g‘ayriodatiy birikmalar.

Noodatiy bog‘lanishli birikmalarning mohiyati va tabiati masalasida boshqa tilshunosliklarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham bir qator izlanishlar olib borilgan. Bunday birliklarning adabiyotlarda turlicha nomlar bilan qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Boshqird tilshunosi B.T.Ganeev esa mantiqiy termin sifatida qaraladigan “ziddiyat” terminiga lingvistik “allofroniya” (yunoncha “boshqacha”+ “o‘ylamoq, sezmoq”) terminini kiritadi, bu terminning ziddi o‘laroq ziddiyatsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanish mazmunida “ortofroniya” (yunoncha “to‘g‘ri” + “o‘ylamoq, sezmoq”) terminini taklif etadi. Allofroniya va ortofroniya, u haqli ravishda ta’kidlaganidek, tilning ikki ajralmas aspektini tashkil etadi.¹² “Allofroniya” termini ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda lisoniy birliklardagi har qanday semantik siljishlarni, lisoniy birlik va uning ma’nosi o‘rtasidagi o‘zgarishlarni, to‘g‘rirog‘i, o‘zgachaliklarni, ya’ni “boshqacha o‘ylash” mahsuli bo‘lgan hodisalarni ham ifodalashi, umumlashtira olganligi uchun bu termini ma’qullash mumkin.¹³ Allofroniyaning asosiy ko‘rinishlari sifatida tadqiqotchilar, asosan, quyidagi leksik-semantik va lingvostilistik hodisalarni qayd etadilar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, paradoks, ironiya, antifrazis, oksyumoron,

¹² Ганеев Б.Т. Противоречия в языке и речи. Автореф.дисс...докт.филол. наук. – Уфа,2004//<http://www.dissercat.com/content/protivorechiya-v-yazyke-i-rechi>

¹³ Махмудов Н.,Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати.Т.: Академнашр, 2014. Б.13.

giperbola, litota, pretsedent matn, enantiosemiya, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, tautologiya, frazeologik ibora, matal, topishmoq va boshqalar.¹⁴

Noodatiy bog‘lanishlar ko‘plab adabiyotlarda oksyumoron deb ham izohlanadi.

H. Abdurahmonov va N. Mahmudovlar tomonidan nashr qilingan “So‘z estetikasi” nomli kitobda noodatiy bog‘lanishlar “g‘ayriodatiy birikmalar” deb ataladi va unga quyidagicha ta‘rif beriladi: ”So‘zlarning bir-biri bilan qo‘shilib, muayyan birikmalar hosil qilishining o‘ziga xos qonunlari va shart-sharoitlari bor. So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash uchun ularning konkret ma‘nolarinigina bilishning o‘zi yetarli emas. Ayni paytda har bir so‘zning boshqasi bilan qo‘shilish imkoniyatlari, ularning umumiy qonuniyatlarini ham bilish mutlaqo zarurdir. Har bir so‘zning boshqasi bilan qo‘shilish imkoniyatlari esa o‘ziga xos bo‘ladi. So‘zlar ayrim so‘zlar bilan qo‘shila olsa, ayrimlari bilan qo‘shila olmaydi. So‘zlarning boshqa so‘zlar bilan qo‘shilishidagi bunday chegaralanganlik, albatta, u yoki bu sabab bilan bog‘langan. Avvalo, ma‘nolarining bir-biriga nomuvofiqligi, zidligi sababli so‘zlar o‘zaro bog‘lanmasligi mumkin. Masalan, *yashil o‘tloq* birikmasi mantiqan to‘g‘ri, lekin *yashil navo* birikmasi mantiqan noto‘g‘ri yoki *baqirgan odam* - mantiqan to‘g‘ri birikma, *baqirgan sukunat* esa mantiqan to‘g‘ri emas. Shuningdek, so‘zlarning grammatik tabiatiga ko‘ra ham ular o‘zaro bog‘lana olmasliklari mumkin. Nihoyat, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga ularning har biriga xos bo‘lgan leksik xususiyatlari ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Masalan, *yutuqqa erishmoq*, *muvaffaqiyatga erishmoq* deb ishlatish mumkin, biroq *kamchilikka erishmoq*, *muvaffaqiyatsizlikka erishmoq* deb aytilish mumkin emas va hokazo...”¹⁵

Noodatiy bog‘lanish asosida hosil qilingan birikmalar nutqning, matnning ta‘sirchanligini yanada oshiradi. Bunday holatlarga bir qator badiiy matnlarda, shu jumladan, Sh. Rahmon she‘rlarida ham ko‘plab o‘rinlarda duch kelamiz.

Eng baxtiyor lahzalarda ham

Uning sokin isyoni so‘nmas. (Sh. Rahmon)

¹⁴ Ганеев Б.Т.Ко‘rsatilgan doktorlik dissertatsiyasi. Хатмуллина Р.С.Аллофрония в русском и английском дискурсе отраслевого журнала. Автореф.дисс...канд.филол. наук. – Уфа,2011//<http://www/disstrcat.com/content/allofroniya> -v-russskomy-i-angliyskom-diskurse-otraslevogj-zhurnala; Массальская Ю.В. Ко‘rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasi.

¹⁵ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.,1981.Б.38-39.

Isyon soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1. Sinfy, milliy, huquqiy manfaatlarni himoya qilib koʻtariladigan qoʻzgʻolon, gʻalayon. 2. koʻchma Qarshilik, norozilik bilan qoʻzgʻaluvchi, tugʻyon uruvchi histuygʻu. (OʻTIL, 2, 228-bet). Yuqoridagi sheʼriy parchada *sokin* va *isyon* soʻzlari birikma hosil qilgan. Soʻzlarning maʼnolari bir-biriga zid boʻlsa-da, shoir “isyon” soʻziga aniqlovchi sifatida “sokin” leksemasini qoʻllagan va bu orqali noodatiy bogʻlanish hosil qilingan. Bunda badiiy matnning poetik taʼsiri yanada ortgan.

Bundan tashqari shoir ijodida “*Har kun davom etar bu goʻzal yovlik*” misrasi qoʻllangan. *Yovlik* soʻzi “biror kimsaga dushman, gʻanim, muxolif boʻlishlik; birovga yomonlik qilishlik; koʻrolmaslik” maʼnolarini anglatadi va odatdagi bogʻlanishda *goʻzal* soʻzi bilan bogʻlanish hosil qilmaydi, chunki “yovlik” soʻzi salbiy boʻyoqdorlikka ega soʻz boʻlib, ijobiy maʼno anglatuvchi “goʻzal” belgi bildiruvchi leksemasi bilan birika olmaydi. Bu birikmadagi soʻzlar aynan oʻz maʼnosida tushunilsa, mutlaqo mantiqsiz boʻlib tuyuladi. Ammo ular badiiy matnga oʻzgacha taʼsir kuchini bergan.

Quyidagi parchada ham noodatiy bogʻlanish orqali sheʼrning taʼsir kuchi oshirilgan:

Ishonmasang, oʻq otib koʻrgin,

Boʻkirvorar sanoqsiz qoya. (“Ne davrlar...”)

Boʻkirmoq soʻzi “ovozi boricha baqirmoq”, “hayqirmoq” maʼnolarini ifodalaydi va asosan hayvon nomini ifodalovchi soʻzlar bilan bogʻlanadi. Shavkat Rahmon bu soʻzni *qoya* soʻzi bilan sintagmatik munosabatga kiritadi.

Kuymoq feʼli “alanga chiqarmay yonmoq” maʼnosini anglatadi. *Kuydirmoq* esa “alanga chiqarmay yondirmoq” maʼnosida qoʻllanadi va *olov, oftob* kabi soʻzlar bilan bogʻlanish hosil qiladi. Shoir esa bu feʼlni quyidagicha holatda qoʻllaydi:

Bu qoʻshiq ajoyib qoʻshiqdir.

Soʻzlari kuydirar tomoqni. (“Ozodlik qoʻshigʻi”)

Bundan tashqari Shavkat Rahmon ijodida bir qator boshqa noodatiy tarzda bogʻlangan birliklarni uchratishimiz mumkin: *xayolimning tirishlari, koʻnglimning siniqlari, armon toʻla jom, yalangoyoq daraxt* va h.k.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, til birliklarining nutqda kutilmagan birikuvlarni hosil qilishiga asosiy sabab ijodkorning his-tuyg‘ularidir. Bunday qo‘llanishlar asar ta’sirchanligini oshiradi va uning badiiy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishini ta’minlaydi. Noodatiy bog‘lanishlarga odatdagi me’yordan chekinish deb qaraladi. Lekin ana shunday holatlarning ham tilda o‘z o‘rni bor. Ular ma’no taraqqiyotiga, til rivojiga xizmat qilibgina qolmasdan, ayni paytda, tilning shirasini quyushtiradi, ta’sir quvvatini oshiradi, estetik vazifa ijrosi imkoniyatlariga zamin bo‘ladi. Noodatiy bog‘lanishlar tilning boyishi, taraqqiyoti va go‘zallashuvi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.,1981.Б.38-39.
2. Ганеев Б.Т. Противоречия в языке и речи. Автореф.дисс...докт.филол. наук. – Уфа,2004//<http://www.dissertcat.com/content/protivorechiya-v-yazyke-i-rechi>
3. Махмудов Н.,Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати.Т.: Академнашр, 2014. Б.13.
4. Хатмуллина Р.С.Аллофрония в русском и английском дискурсе отраслевого журнала. Автореф.дисс...канд.филол. наук. – Уфа,2011//[http://www/disstrcat.com/content/allofroniya -v-russkomu-i-angliyskom-diskurse-otraslevogj-zhurnala](http://www/disstrcat.com/content/allofroniya-v-russkomu-i-angliyskom-diskurse-otraslevogj-zhurnala).
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – II ж. 228 б.
6. Ziyo.net

DRYING AND STORING APRICOTS IN HOME CONDITIONS AND MEASURES TO COMBAT PEST INFECTION

Eshonkulov Najim

Candidate of Biological Sciences,

Associate Professor of the Department of Storage Technology and Primary Processing of Agricultural Products of the Karshi Engineering-Economics

Karshiev Alisher Eshmamatovich

Senior Lecturer of the Chair

of Technologies for Storage and Primary Processing of Agricultural Products

Institute, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city

E-mail: khurshid8502-a@mail.ru

Abstract: In the article, the results and follow-up of the preparation and storage of dried apricots in plastic dishes are presented. The expediency of preparation for storage of dried apricot in plastic dishes by keeping them for 9 days in places where direct sunlight falls has been substantiated. After such preparation and storage, dried apricots are stored for more than 3 years without being damaged by pests. When apricot dried apricots are placed in plastic containers and stored in direct sunlight for 9 days, the plastic does not kill the worms due to the increased pressure inside the plastic container and high temperatures, killing insect eggs, fungi and bacteria.

Key words: apricot, plastic utensils, degradation, storage, larvae.

Introduction

Fruits are essential food for their nutritional value, sweet taste and medicinal properties. They are an additional source and saturation of the human body with carbohydrates, vitamins and minerals. The nutritional value of the most consumed fruits is 300-500 c / calla. They contain a large amount of biological active substances,

drugs, pectins, enzymes, organic acids, essential oils, flavors, so they have a healthy and high taste.

To fully meet the needs of the population in these products throughout the year, it is important to develop modern methods of storage and processing.

According to the Resolutions № 3978 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 17, 2018 "On additional measures to increase efficiency of fruit and vegetable export" and № 4236 dated March 20, 2019 marked the turning point in fruit growing of the Republic, as well as in the field of storage and processing of fruit products.

It is known that apricots are a valuable stone culture. Apricots occupy a special place among fruit crops due to their tenderness and wide range of processing possibilities. Many of its varieties are used to prepare juices, jams, compotes, as well as dry products.

Main part

Apricots, grown in the Republic of Uzbekistan, are notable for their sweetness, nutritional value and rich medicinal properties. Apricot in medicine is the treatment of cardiovascular diseases, consumed apricots act as pistachio coal in the body, absorbing various harmful liquids, turning them into gas and displacing them from the body. People exposed to radiation are also encouraged to consume apricot acid [4].

A tourist from a European country, who came to the Fergana Valley, saw ripe apricots in the valley and said: "These apricots are more valuable than all the gold in Central Asia. [5]

Fresh apricots contain 8.4-19.0% sugar, 0.3- 1.7% apple and very small amounts of tartaric acid, 0.1-1.6% pectin, and medicines A and C. Oats contain 80% or more sugar [7].



1 picture. Process of drying apricots.

Most of the apricot bones grown in Uzbekistan are sweet and are eaten like almonds. Contains 45-85% fat and 28-30% protein. These data show that apricot fruit has a rich biochemical content, and therefore it is important for maintaining human health [6]. According to literature data, apricot kernels contain 30-50% fat, which contains oleic and lenolic acids. Fruit pulp contains up to 27% of sugar, C, nutrients and starch. Since apricots contain provitamin A, nicotinic acid, vitamins C and B5, as well as 305 mg /% potassium salts (1717 mg /% in dried fruits), it is a cure for cardiovascular diseases. Also apricots are consumed as a source of vitamins A, PP and B5 [5]. Popular varieties of apricots are: *Jubilee Navoi, Corsadic, Subkhoni, Hurmay, Iskandarium, Mohtobi, Bodommi and others*. Apricots with 22- 26% dry matter are selected for drying.

Depending on the drying method, apricots are obtained from apricots. Before drying, pest infested, crushed and raw apricots are separated and cleaned from impurities [5,7]. In some regions, it is smokable with sulfur. Such products are not considered ecologically clean [7].

In our country, apricots have long been used at home in the form of kuraga. But after 2 months, worms from apricot moth fall on currag, making the product completely useless. That is the reason why scientifically and practically the actual processing is the way of preparing curragas without these shortcomings.



Hozirgi globallashib borayotgan dunyomizda odamlar o‘zgaryabdi, fikrlar o‘syabdi. Bu foniy dunyoda har bir ota-ona o‘zidan ezgu nom qoldirish maqsadida farzandlariga yaxshi ta‘lim tarbiya berishga harakat qiladi. Kelgusida farzandlari el-yurt xizmatiga kamarbasta insonlar bo‘lib tarbiyalansa, ularning baxti oilada, ayniqsa qiz bola o‘zining odobi, yurish-turish munosabati bilan boshqalardan alohida ajralib turadi. Qiz bola tarbiyasi o‘ta nozik tarbiyadir. Xalqimizda Onasini ko‘r, qizini ol, degan ibora ham bor. Bu gapning zamirida katta ma‘no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turishi munosabati, hunarmandligidan dars oladi, shu xislatni hayotga tatbiq etishga harakat qiladi. Bunda qizlarning alohida tarbiyalari onalariga topshiriladi. Ularda yetuk qiz, kelin, uy bekasi, xotin, ona bo‘lish qobiliyatlarini

onalar tarbiyalashlari va kamolga yetkazishlari talab etiladi. Madaniy merosimizga murojaat qiladigan bo‘lsak, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ko‘plab go‘zal namunalarni ko‘ramiz.

Imom Ali roziyallohu anhuning xotinlari, Payg‘ambar alayhissalomning qizlari bo‘lmish Fotimai Zahroni ranglari oqargan, holdan toygan holda ko‘rib: Senga nima bo‘ldi Fotima?- deb so‘radilar. Fotima onamiz: Uch kundan buyon uyda yegulik narsa topilmaydi, dedilar. Imom Ali:Shunday ekan, aytsang bo‘lmasmidi? desalar : To‘yimiz kuni otam Allohning rasuli alayhissalom Hoy Fotima! Agar Ali biror narsa topib kelsa, yegin, bo‘lmasa, so‘ramagin, degan edilar, deb javob berdilar.²⁰ Qanday buyuk hurmat, chiroyli tarbiya va go‘zal qanoat. Agarda insonlar,ayniqsa xotin-qizlarimiz Fotimai Zahrolardek Pay‘ambarimizga mos ummat bo‘lganida kunda bu qadar ajrimlar, kelishmovchiliklar va noshukurlik hissi bo‘lmasligini anglaymiz. Amoma binti Horis ismli ayol ham o‘z qizining kelin bo‘lib, kuyovning oldiga kuzatishdan oldin quyidagi nasihatlarini qilgan ekan:

1. Qanoat sohibasi bo‘l, undan hayiqib tur. Ering uyga nimani ko‘tarib kelsa, xushfe‘llik va odob- nazokat bilan qabul qilib ol, tashakkur ayt.
2. Eringga hamisha itoatda bo‘l, amrlarini yaxshilab tingla va bajar.
3. Eringning nazari tushadigan joylarga e‘tibor qil. Uy ichi va hovlilarni ozoda tut.
4. Xojangning moli va dunyosiga e‘tiborli bo‘l, isrof qilma, avaylab asra va boshqalar²¹.

Amoma binti Horisning qanoat to‘g‘risidagi bu nasihati yuqorida bayon etgan rivoyatimizning yorqin misollaridandir. Itoat to‘g‘risidagi jumлага kelsak, Alloh Taolo Niso surasida, eriga itoatkor ayollarning maqtovida quyidagilarni aytadi: Soliha ayollar itoatkor va Allohning hifzi-himoyasi bo‘yicha g‘oyib (er)larining muhofazasini qiluvchilaridir²² deya ta‘kidlaydi. Ya‘ni mo‘mina, soliha ayollarning tabiatida eriga itoatkorlik bordir. Bu itoat eridan qo‘rqqanidan, majburlikdan emas

²⁰Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf □Baxtiyor Oila□ Hilol nashr Toshkent-2021 253-b

²¹Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf □Baxtiyor Oila” Hilol nashr Toshkent-2021 129-b

²²Niso surasi 34-oyat

balki o‘z mas’uliyatini tushunganligidan kelib chiqqan. Ozodalik, tejamkorlik va bu kabi foydali maslahatlarni bugungi kundagi yosh oilalar o‘zlariga shior qilib olsalar nur ustiga a`lo nur bo`lar edi. Chunki oilaning mustahkamligi kuyov barobarida kelinga ham birdek yuklatiladi.

Muqaddas dinimiz Islomda ham barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo‘yilmagan. Shuningdek Islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko‘zlagan bo‘lib, u himoya deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, ayollarning sha’ni, ularga taalluqli bo‘lgan barcha narsa Islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur’oni karim va sunnati nabahiyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik ta’riflar alohida e’tirof bilan keltiriladi. Zero, Rasululloh alayhissalom bir hadisda: Albatta, ayollar erkaklarning yarmi (sherigi, tug‘ishganlari)dir,- deganlar²³ Yoki Rasululloh salallohu alayhi vasallamning Vidolashuv hajida sahobiylarga qarata ayollar haqida aytgan vasiyatlarini keltirib o‘tishimiiz juda ham o‘rinli bo‘ladi: Ayollar borasida Allohdan qo‘rqinglar. Chunki sizlar Allohning omonati ila ularni qo‘lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o‘zlarigizga halol qilib oldingiz (Buxoriy rivoyati)

Qur’oni karimda shunday deyilgan: Alloh shundayin zotki, Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratdi va u orom osoyish topsin, deb uning o‘zidan juftini vujudga keltirdi²⁴. Yana Qur’oni majidda shunday deyiladi: Ular (ayollar) Sizlarning libosingiz. Sizlar ular uchun libossiz (ya’ni, er-xotin bir-biriga kishi libosga muhtoj bo‘lgani kabi.

Ammo jaholat va kufr hukmron bo‘lgan zamonlarda ayolning holiga voy edi. Unga bir buyum sifatida qaralardi. Islomgacha bo‘lgan arab dunyosida qiz farzandlarni tiriklay ko‘mish odat tusiga kirgandi. Ammo Islom qonunlari asosida yashay boshlagan o‘lkalarda ayolning mavqei oshdi, sha’ni ulug‘landi, huquqi kengaydi.

²³Imom Abu Dovud rivoyati

²⁴A’rof surasi 189-oyat

Sharqda ayolni ulug‘lamagan, uning sha‘niga biror og‘iz madhiya, maqtov bitmagan allomayu shoirni, fuzalo-mutafakkirni topish qiyin. Mavlono Jaloliddin Rumiyl dunyoni hayratga solgan shoh asari Masnaviysida shunday yozadi:

«Ayol Alloh nuri, oddiy jononmas,
Yaratur, yaralgan oshufta jonmas».

Olmoniyalik taniqli olim Annamari Shimmel xonim “Jonon mening jonimda” nomli kitobida yozadi: - Islom jamiyatida eng katta hurmatga loyiq zot ayol, aniqrog‘i, ona hisoblanadi. Bu hol Payg‘ambar alayhissalomning Jannat onalarning oyog‘i ostidadir, degan hadisi shariflarida ham yaqqol bayon etilgan. Islom dini nozil etilgan kundan boshlab hozirgi kungacha taqvodor, o‘qimishli va yolg‘iz Alloh taoloni sevguvchi ayollar bo‘lgan, bor va bo‘ladi. Aslida ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma‘naviy barkamolligi ham ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e‘zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir. Muborak hadisi sharifda keltirilgan - Jannat onalar oyog‘i ostidadur, Avval onangizga, yana onangizga, so‘ngra otangizga yaxshilik qiling,- degan Benazir so‘zlarda ham ana shu adoqsiz ehtirom namoyon bo‘lib turibdi.

Hatto Amir Temur hukmronligi yillarida ham ayollarning mavqei yuksak bo‘lgan. Xon avlodiga mansub Saroymulxonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, kata xonim yoxud Bibixonim degan unvonga noil bo‘lgan. Davlat va mamlakat idorasiga oid qurultoy, kengash ishlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri qatnashish huquqi bo‘lmagani holda Saroymulxonim u yoki bu masala yuzasidan Amir Temurga yozma tarzda murojaat etish imkoniga ega shaxslardan biri bo‘lgan. Odatda xat bilan davlat boshlig‘iga murojaat etish huquqiga faqat chet ellik hukmdorlar ega ekanligini inobatga olsak, Saroymulxonimning saroydagi mavqeyi naqadar baland bo‘lganligini idrok etish qiyin emas. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e‘tibor berdi. Ayol eng munosib o‘rnini Islomdan topdi.

Qur’oni karimning: «Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir qilmasa,) ularni yotoqlarida tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa,) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar. Albatta, Alloh juda oliy va ulug‘ zotdir»²⁵ oyatida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin, Muhammad (s.a.v.) o‘zlari ayollarini urmaganlar va xotin kishini urganlarga ham qarshi turganlar. «Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar», degan hadis ham so‘zimizning isbotidir. Shuningdek, ayollarga ham erlariga ozor bermaslik amr etilgan. Maoz ibn Jabaldan (r.a.) aytilganiga ko‘ra, Rasululloh (s.a.v.) shunday marhamat qiladilar: Qaysi bir ayol (mo‘min) eriga ozor berganda, u kishining hur jufti (bu ayolga): «Alloh sening joningni olsin, u kishiga ozor, aziyat berma. Chunki, shubhasiz, u sening yoningda mehmon-musofirdir, sendan ayrilib, tezda yonimizga keladi», deydi. Islomda ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Qur’oni karimda shunday marhamat qilinadi: (Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz, ularga ham, sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir²⁶ O‘z bolalarini ilmsizlik qilib, johilona o‘ldirgan va Allohga tuhmat qilib, ular uchun Alloh rizq qilib bergan (hayvonlar)ni haromga chiqarganlar, albatta, (o‘zlariga) ziyon qildilar. (Ular) haqiqatdan adashdilar va to‘g‘ri yo‘lga yuruvchi bo‘lmadilar.²⁷ Islom huquqida, hatto, urush vaqtida ayol va bolalarni o‘ldirish taqiqlangan. Hazrat Payg‘ambar (s.a.v.): - Kimki ikkita qizni voyaga yetguncha boqsa, jannatga men bilan birga kiradi, deb o‘rta va ishora barmoqlarini yonma-yon qilib ko‘rsatdilar. Ayollarning ilm olishlari. Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzi ayndir. Qur’oni karimda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, fitratiga muvofiq kelgan Allohning xitoblaridan tashqari (masalan, avratlarini to‘sis, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida va hokazo) qolgan barcha oyatlar Alloh taoloning bashariyatga, erkag-u

²⁵Qur’oni Karim Niso surasi 34-oyat

²⁶Qur’oni Karim Al-Isro surasi 31-oyat

²⁷Qur’oni Karim An’om surasi 140-oyat

27

ayolga qilgan xitoblaridir. Ilm haqidagi chaqiriqlar ham shular jumlasidandir. Islomda iymondan keyingi farzi aynlardan biri ilm olishlikdir (farz bajarilishi shart degan ma'noni ham anglatadi). Zero, Jabroil (a.s.)ning Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga yetkazgan birinchi kalomi ham O'qi! bo'lgan. Alloh taolo bandasini tafakkur qilib, borliqqa qarab, tahlil bilan O'zini tanishini xohlaydi. Ko'r-ko'rona, taqlidiy iymon keltirishlikni xush ko'rmaydi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) Ilmni Chinda bo'lsa ham borib, olinglar, deganlar. Vaholanki, o'sha paytda Chin (Xitoy) butlar va butparastlar o'lkasi bo'lgan. Lekin ular bunday deyishga qo'rqmadilar, chunki borliqda Allohning qudratini namoyon etib turguvchi son-sanoqsiz dalillarni aqli bilan taammul qilgan inson Uning vahdoniyatiga iymon keltirgach, Robbisiga shirk keltirmaydi, aksincha, Haq talabida bo'ladi. Hozirda musulmonlar orasida ilm deganda, faqat diniy ilmlar tushuniladi. Bu xato tushuncha. Islomda diniy, dunyoviy, degan gaplar bo'lmagan. Ilm sohalarga bo'lingan, xolos: fiqh, hadis, faroiz, tib, handasa, tarix, falakiyot ilmlari va hokazolardir. Musulmonlar Qur'on va sunnatga amal qilgan vaqtlarida ularning orasida ilmning barcha sohalarida dunyoga tanilgan allomalar yetishib chiqqan. Bunga o'zimizning vatandoshlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek, Zamaxshariy va boshqa ko'plab olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Ayolni, onani qadrlash va ardoqlash, hurmatini joyiga qoyishdan iborat Temur va Temuriy qadriyatlar mustaqillik yillarida yangicha mazmun bilan boyidi. Yurtimizda xotin-qizlarning davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar deya e'tirof etilishi mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarida keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, davlatimiz inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan, 1995-yili Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga qo'shishilishi ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy

e'tibor berilganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish ham ayollarga bo'lgan e'tibordan dalolatdir. Bu mukofot 1999-yil 10-iyunda ta'sis etilgan bo'lib, maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida a'lo xulqi, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida istedodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqloq g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Yoki sportchi xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyos. Jahon arenalarida yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilishida, davlatimiz madhiyasi baralla yangrashida ularning ham munosib hissasi bor. O'zbekistonlik Olimpiya va Osiyo o'yinlari g'oliblari, jahon va qit'a chempionlari deganda ko'z oldimizda bugunda yurtimiz faxriylari opa-singillarimiz keladi.

Ammo: Guruch kurmaksiz bo'lmaydi,- deganlaridek hali-hamon oramizda eskilik tarafdorlari yo'q emas. Ular barchasini o'zlarining fikrlaricha bo'lishini xohlashadi. Haqiqatan ham, qizlar ilm olishlari kerakmi? Ba'zi bir eskilik tarafdorlari, o'zlarining hukmlarini barchasidan ustun qo'yadigan insonlar bunday fikrlarni eshitib o'tirishni ham xohlashmaydi. Ammo, men ularga bu masala bo'yicha bir necha isbotlar keltirmoqchiman. Avvalo, Fitrat shunday degan: Ma'lumki odamzot diniy mehnatlar yuki ostida qolib ketgan va umr davomida, asosan, dunyoviy ishlarni bajarib yurishga majbur bo'ladi²⁸. Biz dunyoviy ish deganda kiyinish, yeb-ichish, uy qurish, uylanish va shu kabilarni tushunamiz. Bu xildagi ishlarni bajarish uchun yelib-yuguramiz, biror mashg'ulot bilan shug'ullanamiz. Shu ishlarimiz davomida insonlar bilan muloqotda bo'lamiz. Muomala vaqtida suhbat quramiz, agar bahslashib janjal bo'lsa, murosaga kelamiz. Ayollar esa uyda erlari olib kelgan pulni ro'zg'orga taqsimlaydi, yoki bo'lmasa o'zi ham ro'zg'or ishlariga yordam berib biror kasb-hunar ketidan tutadi. Bu hayot mashaqqatlariga eriga yelkadosh bo'ladi. Ya'nikim, dunyoviy ishlarda er va ayolning o'rni bir xil.

²⁸Abdurauf Fitrat "Oila" Cho'lpon nashriyoti. Toshkent-2013 124-b

Biz bu masalaning dunyoviy tomoni bo'lsa endi diniy tomonini ko'ramiz. Biz musulmonlarning diniy masalalarini o'rgatadigan kitob bu Qur'oni karimdir. Ollahning kalomi sanalmish bu kitobda ba'zi bir hukmlardan tashqari barcha hukmlar ayol-u erkakga bir xil qilib qo'yilgan. Masalan: Ey, mo'minlar, o'zlaringiz va ahlingizni do'zax olovidan muhozifat qilinglar²⁹. Ey, imon keltirgan, Allohdan qo'rqingiz va boshqalar. Bundan ko'rinib turibdiki ayollar ham erlari barobarida diniy hukmlardan xabardor bo'lishlari kerak. Allohning ularga yuklatilgan vazifalarini bilishlari zarur. Avvalo, ayollar farzand tarbiyachisi, sizdan qoladigan naslga tarbiya beradi. Shunday ekan qanday qilib diniy va dunyoviy bilimlarda bexabar, ularni bilmagan inson farzand tarbiyalaydi. To'g'ri uning badan tarbiyasini berishi mumkin, ammo aqliy va axloqiy tarbiyani yetuk darajada bera olmaydi. O'zi dindan bexabar ona qanday qilib bolalariga Allohni tanitadi?

Jadid ma'rifatparvarlaridan So'fizoda ham xotin - qizlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratib qator asarlari orqali vaziyatga baho beradi. Uning O'zbek xonimiga, Muslimalar, O'qing onalar, Chust bayonlarining bir gapxonada bir-biriga maqtanishganlari kabi she'rlarining markazida ayollar obrazi turadi. So'fizodaning O'qing onalar she'rida quydagi satrlarni keltirib, o'zbek ayollarini ilm olib ma'rifatli bo'lishga chorlaydi va Turkistondagi xotin-qizlarning ilm olishlariga munosabat salbiy bo'lib, ular undan ko'ra ro'zg'or ishlarini qilishlari, tikish-bichish ishlarini o'rganishi lozim deb hisoblaganlar, adib vaziyatni notog'ri ekanligini o'z she'ri orqali isbotlab berishga harakat qiladi. Abdulla Avloniyning Advokatlik osonmi dramasi³⁰ da o'lka hayotidagi muammolar yevropada o'qib kelgan turkistonlik advokat oldiga o'z muammolari bilan kelgan aholi vakillari orqali ochib beriladi, shu o'rinda dramada turkistonda xotin-qizlar masalasiga ham to'xatib o'tiladi. Jadid ziyolilarining eng yosh vakili Abdulhamid Cho'lponning o'lkadagi oila-nikoh va xotin-qizlar masalasiga doir qator asarlari yaratilgan, masalan Cho'lponning Qurboni jaholat, Oydin kechalarda, Qor qo'ynida lola, Novvoy qiz, Oq podshoning inomi

²⁹An'om surasi 128-oyat

³⁰A. Avloniy Tanlangan asarlar-T.: Ma'naviyat, 1998. 226-b

hikoyalari³¹da va Yorqinoy dramasi³² da o‘zbek xotin-qizlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni keskin tanqid ostiga olinib tasvirlangan. Cho‘lponning Yorqinoy dramasida o‘zbek xalqining erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari gavdalangan, Yorqinoyning xalq ozodligi uchun kurashi, uning qonida To‘marisning qoni jo‘sh urib turganday tasvirlanadi. Adibning: “Yana uylanaman” , “Cho‘rining tangriga isyoni” dramalarida oila-nikoh muammolari yoritiladi va uning fojiali yakuni kulguli tarzda xalqqa yetkaziladi.

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos hisoblanadi. Bunda o'sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma'rifatga, jaholat botqog'idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o'sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi-hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi. Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdir-dosh, qismatdosh, darddosh bo'lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo'lishiga mamlakatdagi zulm zo'rovonlik ustuvor ekanligidadir. Cho'lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlarini bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukmron bo'lgan va ayollar qadr qimmatini oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. O'lkada xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish, ularni ma'rifatga va ilm-u fanga jalb etish, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini zamonaviy taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emasligi, oxir-oqibatda millat taqdiri

³¹Quronov.DCho'lpon nasri poetikasi-T. : Sharq, 2004- b-43

³²Cho'lpon. Yorqinoy.-T.: G'afur G'ulom, 1991

uning xotin-qizlariga, oilalariga bog‘liq ekanligi kabi g‘oyalarni ilgari surmasligi mumkin emas edi. Oila, xotin-qizlar masalasida ma’rifatparvarlar yondashuvining o‘ziga xos va farqli tomoni shundaki, ular muammoni xalqlarning ayanchli ahvoli, ularning butunjahon mamlakatlaridagi o‘zgarishlardan orqada qolib ketganligi, mahalliy xalqlarning erki, ozodligi, mustaqilligi, hurriyatga intilishi iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy hayotdagi turg‘unlik va depsinish holatlari bilan bog‘ladi. Oilaning asosi bo‘lgan ayollarning huquqini erkaklar bilan tenglashtirish, ularning m’naviy-ma’rifiy qiyofasini o‘zgartirishni o‘ta zaruriy vazifalar deb tushundilar.

A. Fitrat bu borada quyidagilarni yozadi: qaysi millatning umumiy say-harakati va amali ko‘p bo‘lsa, kuch-qudrati va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, Yevropa hukmdorlari o‘z millatlarining sonini ko‘paytirishga harakat qiladilar, Yevropa olami o‘z xalqining nufuziga putur yetsa: Ey! Mamlakatimiz sharafi va e’tibori qolmayapti, millatimiz nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringlar, deya dod solinadi degan fikrlarni keltirib boshqa mamlakatlarda ayollarga munosabat Turkistondagidan ancha yaxshi ekanligini aytib o‘tadi. Bu chaqiriq aynan o‘sha davr Turkistoni uchun dolzarb masala edi.

Yana bir misol tariqasida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" asari qahramoni Maryam timsolida ham ko‘rishimiz mumkin. Maryam ilmga tashna ayol timsoli. "Yangi saodat" asarida Olimjonning ma’rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o‘z baxtidan boshqa kishilarning ham bahramand bo‘lishini tasvirlagan bo‘lsa, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasida ma’rifatli insonning jaholat va g‘aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko‘rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza "Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o‘zlariga munosib bo‘lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko‘rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta’siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o‘z zamoniga sig‘may qolgan yoshlar o‘rtasidagi ziddiyat nish uradi.

Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan yoyidek uchib boradi-da har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi.

Shunday qilib, jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasi ra'yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo'yin egishi asarlarda bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Xususan, Abdurauf Fitratning "Advokatlik osonmi?" asaridagi ayollar timsoli ham, Cho'lponning kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha-barcha ma'rifatparvar ijodkorlar ijodida ayollar timsoli o'ziga xos mavzuga aylana oldi. O'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarni qul sifatida baholash, ayollarni nazir sifatida taqdim etish, ularni o'z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko'plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi paytda Tolibon qizlarning ta'lim olishini cheklamoqda, Kobulda davlat xizmatidagi ayollar ishga chiqishi taqiqlanib, faqat ayrim kasb egalarigagina ishlashga ruxsat berildi. Tolibon rasmiylari bu holatnixavfsizlik nuqtai nazaridan deb izohlamogda. Rasmiy shaxslar esa

ayollarning vazifasi faqat bolani dunyoga keltirish va voyaga yetkazish deb hisoblashyabdi. Ammo kelajak bunyodkorlarini tarbiyalash uchun ham ayollar ta'lim olishi kerakku. Hatto ta'lim va savodxonlik Islomda shu qadar ulug'lanadiki, Tolibon qizlarning ilm olishini islomga muvofiq taqiqlay olmaydi.

Kasbim bo'lmasa, o'qishimga ruxsat berishmasa, tolibonlar vada qilayotgan xavfsizlikning men uchun hech qanday ahamiyati yo'q. Bu xavfsizlik faqat Tolibonga kerak,-deydi tibbiyot sohasida ta'lim oluvchi afg'on qizi.

Darhaqiqat, nega butun bir millat savodsiz bo'lishi kerak. Nega ayollar o'qimasligi kerak. Axir Islomda ilm yuksak o'rinlarda turadiku, axir jamiyatda ayollarning roli, o'rni kattaku. Biz shu narsani yodda tutishimiz kerak: agar o'g'il farzandni o'qitmasak, bir insonni savodsiz qilamiz, agarda qiz bolani o'qitmasak butun bir millatni!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni karim oyatlari
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Baxtiyor oila"
4. Abdurauf Fitrat "Oila" asari
5. Imom al-Buxoriy rivoyatlari
6. J. Rumi " Masnaviy"
7. Abdulla Avloniy "Tanlangan asarlar"
8. Cho'lpon " Yorqinoy"
9. Annamarie Shimmel " Jonon mening jonimda"
10. Quronov D " Cho'lpon nasri poetikasi"



SHAVKAT RAHMON ASARLARIDA LINGVOPOETIK PRETSEDENT NOMLARI

Ismatova Mahliyo

BuxDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shavkat Rahmon sheʼrlariga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashilib, uning sheʼrlarida berilgan pretsedent nomlarga alohida toʻxtalinadi. Shu oʻrinda pretsedent nomlarning oʻziga xos xususiyatlari, badiiy talqin nuqtayi nazaridan guruhlariga ajratilishi Shavkat Rahmon ijodi orqali ochib berishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, pretsedent nomlarning izohi va namunasi sifatida Shavkat Rahmon sheʼrlaridan parchalar keltirilib, birma-bir tahlil qilinadi. Aytish joizki, Shavkat Rahmon ijodidagi pretsedent nomlar oʻziga xos boʻlib, ularning qoʻllanilishi muallif mahoratidan daolat beradi.

Kalit soʻzlar: Shavkat Rahmon ijodiyoti, badiiy talqin, lingvopoetik yondashuv, shoir mahorati, pretsedent nomlarning muallif asarlarida aks ettirilishi.

NAMES OF LINGUOPOETIC PRESIDENTS IN THE WORKS OF SHAVKAT RAHMON

Annotation. In this article, Shavkat Rahmon's poems are approached from a linguopoetic point of view, with special emphasis on the precedent names given in his poems. At the same time, Shavkat Rahmon tries to reveal the peculiarities of precedent names, their division into groups in terms of artistic interpretation. In addition, excerpts from the poems of Shavkat Rahmon are cited and analyzed one by one as explanations and examples of precedent names. It should be noted that the precedent names in the works of Shavkat Rahmon are unique, and their use testifies to the skill of the author.

Keywords: Shavkat Rahmon's creativity, artistic interpretation, linguopoetic approach, poet's skill, reflection of precedent names in the author's works

ИМЕНА ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИХ ПРЕЗИДЕНТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШАВКАТА РАХМОНА

Аннотация. В этой статье стихи Шавката Рахмона рассматриваются с лингвопоэтической точки зрения, с особым акцентом на прецедентные имена, данные в его стихах. В то же время Шавкат Рахмон пытается выявить особенности прецедентных имен, их деление на группы с точки зрения художественной интерпретации. Кроме того, отрывки из стихов Шавката Рахмона приводятся и анализируются один за другим в качестве пояснений и примеров прецедентных имен. Следует отметить, что прецедентные имена в произведениях Шавката Рахмона уникальны, а их использование свидетельствует о мастерстве автора.

Ключевые слова: творчество Шавката Рахмона, художественная интерпретация, лингвопоэтический подход, поэтическое мастерство, отражение прецедентных имен в авторских произведениях.

Barchamizga ma`lumki, badiiy matnni shakllantiruvchi turli vositalar mavjud bo`lib, ular matnni har qaysi jihatiga monand holda yuzaga keltiradi. Aytish joizki, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar turli-tuman hisoblanib, ular orasida pretsedent birliklar alohida o`rin tutadi. Pretsedent birlik nima?

Pretsedent birlik bu kishilarning lisoniy xotirasida til birligi sifatida mavjud bo`lgan, badiiy matnni shakllantirishda qayta-qayta murojaat qilinadigan vositalar hisobalanadi. Pretsedent birliklarni aniqlash uchun kontekst bilan ishlash zarur, undan olinadigan ma`no pretsedent birliklarning oydinlashuviga xizmat qiladi. Pretsedent birliklar turlaridan biri pretsedent nomlar hisoblanadi. Rus tilshunoslaridan biri Maslovaning ta`kidlashicha, pretsedent birliklar sifatida faqat har bir xalqning xalq

uchun ma`lum bo`lgan qahramonlarining nomlari matn tarkibida ishlatilgandagina qabul qilinishi mumkin[5]. Pretsedent birliklar o`zbek mumtoz adabiyotida talmeh san`ati bilan o`xshashlik hosil qiladi. Pretsedent nomlar ikki vazifani yuzaga keltirishga xizmat qiladi:

- a) Matnda taniqli shaxs bilan aloqador hodisaga ishora qilish;
- b) Matn yaratilishida matnning egasi sifatida ishtirok etish.

Pretsedent nomlarning vazifasiga ko`ra turlari(1-chizma).

Matnda taniqli shaxs bilan
aloqador hodisaga ishora qilish

Matn yaratilishida
matnning egasi sifatida
ishtirok etish

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, pretsedent nomlarning matn tarkibida qanday vazifaga ega ekanligi ularning matnda bajargan vazifasiga ko`ra amalga oshiriladi va tahlil qilinadi[11]. Biz ushbu maqolamizda Shavkat Rahmon she`riyatidagi lingvopoetik presedent nomlar tahlilini ko`rib chiqamiz.

O`zbek adabiyotining taniqli shoirlaridan biri Shavkat Rahmon o`z she`rlari ila muxlislar qalbini lol aylagan ijodkor hisoblanadi. Shavkat Rahmon she`riyati samimiyat yo`g`rilgan, badiiylik ufurib turgan ajib she`riyat hisoblanadi. Bundan tashqari, Shavkat Rahmon she`rlarida pretsedent nomlar mavjud bo`lib, ularni tahlil qilish uchun shoir she`rlariga birma-bir to`xtalamiz hamda ularni lingvopoetik nuqtayi nazardan tasnif qilamiz.

Shavkat Rahmonning “Qodiriy va hozirgi yoshlar” she`ridan olingan quyidagi parchaga e`tibor bering:


Qodiriy o`ylanar yuksak-yuksakda,

*Payqamay vaqtning to's-u to'slarin,
Poyiga qo'yadi qo'llari titrab,
Qarigan qullarin
Sodiq do'stlari...*

Ushbu parchadagi presedent nom sifatida “Qodiriy” nomi qo'llanilmoqda hamda bu mashhur shaxsga ishora qilish vazifasini bajaryapti[8]. Ushbu nomga lingvistik nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, “Qodiriy” ismining barchaga ma'lum ekanligi tufayli uni qayta izohlashning hojati yo'q ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda quyidagi fikrni ham qayd etib o'tish joiz, ya'ni presedent nomlar gap tarkibida shaxs nomining barchaga ma'lum yoki ma'lum emasligiga ko'ra ikki turli bo'ladi, ya'ni:

- A. *Izoh talab qilmaydigan – aniq presedent nomlar.*
- B. *Izoh talab qilinadigan - mavhum presedent nomlar.*

Presedent nomlar gap tarkibida shaxs nomining barchaga ma'lum yoki ma'lum emasligiga ko'ra turlari(2-chizma).



Aniq presedent nomlar matn tarkibida qo'llanilganda, uning izohiga zarurat bo'lmaydi, ya'ni matnda qo'llangan nom barchaga ma'lum hisoblanadi[1], xususan:

*Tokay zanglab ketgan bu saksovullar,
Tirik bir imonday turadi axir –
Turar Jaloliddin Manguberding
Sahroga sochilgan so'zlari kabi.*

Shavkat Rahmonning “Qizilqumda bir kun” deb nomlangan she'ridan olingan yuqoridagi parchada “Jaloliddin Manguberdi” presedent nomi qo'llanilgan va ta'kidlash joizki, ushbu nomning izohiga ehtiyoj mavjud emas, ya'ni Jaloliddin

Manguberdi – tarixiy qahramon, barchaga birday ma`lum va mashhur shaxs hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi president nomi tarixiy shaxs sifatida ma`lum etalonni ham bajarish xususiyatiga ega, ya`ni **qahramonli etaloni**. Ushbu tarixiy siymoni yodga olganimizda, **qahramonlik etaloni** hamohanglikda namoyon bo`ladi[7].

Koshcheyning joniday dengiz tagida,

Balki Zuhaldadir,

Balki oydadir.

Ko`ngilning ko`zi-la ko`ring olamni,

Jaholat makridan qolmang aldanib.

Shavkat Rahmon qalamiga mansub “Atlantika dovuli” she`ridan keltirilgan yuqoridagi parchada “Koshchey” president nomi qo`llanib, bu mutolaa qilguvchi uchun mavhumlikni yuzaga keltiradi. Sababi, “Koshchey”ning kim ekanligi kitobxon uchun qorong`u. Aslida, ushbu izoh talab qiluvchi tarixiy shaxs nomi xalq orqasida tez-tez qo`llaniladigan “O`lmas Kasheshey”ning asl ko`rinishi hisoblanib, “Kasheshey” nomining asl holatida qo`llanilmasligi uning matn tarkibida mavhumlikning yuzaga kelishiga sabab bo`ladi[6].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, president birliklarning ma`lum bir turi hisoblangan president nomlar matn tarkibida qo`llanilib, tarixiy, mashhur shaxslarga ishora qilish bilan birgalikda matnning yaanda ta`sirchan, mazmunli chiqishiga ko`mak berar ekan. Ularning aniq yoki mavhum bo`lishi muallif ixtiyoriga bog`liq hisoblanib, noma`lum president nomlarga shoirlar tomonidan izoh berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shavkat Rahmon she`riyatida qo`llanilgan lingvopoetik president nomlarning o`ziga xos xususiyatlari mavjudligini e`tiborga olgan holda shuni ta`kidlashimiz mumkinki, ularning shoir ijodida qo`llanilishi ijod namunalarning yanada betakror va beqiyos bo`lishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. -Toshkent: 2000, 432-bet.
2. Vohidov E. Har zamonning o'z muhri bor. // Guliston.-Toshkent, 2003. - № 3, 122-123-bet.
3. Vohidov R, Hoshimova M. She'riyat - shoir yuragi. Toshkent:“Fan”, 1987, 68-bet.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2002.
5. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. Toshkent: "Sharq" NMK, 1998, 464-bet.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslik nadur? // Tafakkur. - Toshkent, 2000.- № 3, 65-bet.
7. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. -Toshkent: 1996, 54-bet.
8. Norboyev B. Istiqlol va iste'dod tarbiyasi.Toshkent: “O'qituvchi”, 1996, 47-bet.
9. Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. -T. 1994.
10. Rahimjonov N. Nur hurlik timsoli. //Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. - Toshkent: Fan, 2007, 49-bet.
11. www.wikipedia.org
12. www.hozir.org
13. www.kitobdunyosi.uz
14. www.google.com

PANDEMIYA SHAROITLARIDA INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI CHEKLANISHI MASALALARI

Islomov Bekzod Bektosh o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola pandemiya sharoitida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash muammosiga bag‘ishlangan. Muallif inson huquq va erkinliklarini cheklash instituti, uning mohiyati va asosiy tamoyillarini tahlil qilib, 2020-yilda dunyoning turli mamlakatlari hamda O‘zbekiston hududida koronavirus pandemiyasi munosabati bilan joriy etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarining, turli cheklash choralarining qonuniy asoslarini ko‘rib chiqadi. Muallifning xulosasiga ko‘ra, belgilangan cheklovlar ushbu cheklash choralari kiritilgan maqsadlarga, shuningdek, mavjud muammo va qonuniylikka mutanosibdir.

Kalit so‘zlar: xalqaro huquq, milliy huquq, konstitutsiya, inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash, favqulodda holat, favqulodda vaziyat, yuqori ogohlantirish rejimi, pandemiya.

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash deganda shaxs yoki fuqaroning qonunlarda konstitutsiyaviy maqsadlarda belgilangan huquq va erkinliklarni amalga oshirishi uchun ushbu maqsadlarga mutanosib bo‘lgan ma‘lum chegaralar yoki doiralar tushuniladi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, huquq yoki erkinliklarni cheklashning ikkita asosiy belgisi mavjud bo‘lib, quyidagilardir: inson huquqlari cheklanishining, qat’iy belgilangan chegarasi hamda bu cheklash erishishga qaratilgan muayyan maqsadlarning mavjudligi. Tadqiqotning dolzarbligi muayyan huquq va erkinliklarni cheklashning qonuniyligi yoki noqonuniyligi muammosi, alohida holatlarga nisbatan bunday cheklovlarning maqsadga muvofiqligi

va samaradorligi, shuningdek, bu cheklovlar uchun aniq me'zon va chegaralarni aniqlash zaruratidir. Aks holda, konstitutsiyaga zid cheklovlar natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari masalalarida muayyan buzilishlar, shuningdek, huquqni qo'llashda xatoliklar vujudga kelishi mumkin. Inson huquqlari va erkinliklarini cheklash instituti shaxsiy manfaatlar bilan jamiyat va davlat manfaatlari o'rtasidagi optimal muvozanatni aniqlash uchun har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

Dunyoning turli mamlakatlariga ta'sir etuvchi yuqumli kasalliklarning ommaviy tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan pandemiya sharoitida inson huquq va erkinliklarining cheklanishini o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. 2020-yilda insoniyat koronavirus pandemiyasiga duch keldi, bu kasallik tarqalgan mamlakatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklari turli darajada cheklashlar qo'llandi. Ushbu cheklovlar mamlakatlarning fuqarolari tomonidan ko'pincha koronavirusning xavflilik hamda kasallikning tarqalishi jarayonida yuzaga keladigan tahdidlar darajasiga to'g'ri kelmaydigan choralar sifatida baholanadi. Ushbu masalada, birinchi navbatda, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan xalqaro huquq normalariga murojaat qilish kerak. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarning eng muhimi 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidir. Deklaratsiya matnida, xususan, “o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda shaxs huquqlari faqat qonun bilan belgilangan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarining munosib tan olinishi va hurmat qilinishini ta'minlash hamda demokratik jamiyatda axloq, jamoat tartibi va umumiy farovonlikning adolatli talablariga javob berish maqsadida cheklashlar qo'llanilishi mumkin”.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu norma ancha umumiy xususiyatga ega. Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan normalarni fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash sohasidagi huquqiy tartibga solishning faqat rivojlanish vektorini belgilaydigan ichki, milliy qonunchilikdagi norma-tamoyillar yoki norma-maqсадlar sifatida tavsiflash mumkin. A.A. Umarovanning so'zlariga ko'ra, deklaratsiya g'oyalari alohida milliy

davlatlarning huquqiy hujjatlarida konkretlashtirilib, ular doirasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklashning aniq asoslari, mezonlari va aniq chora-tadbirlari belgilanishi kerak. Umarova tomonidan shakllantirilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining yuqoridagi normasiga berilgan bahoda aytilishicha: bunday cheklashlarga ushbu cheklovlar oxirgi chora sifatida qo'llaniladigan haqiqiy demokratik jamiyatda boshqa vositalar tugagach yo'l qo'yiladi.³³

Yana bir muhim xalqaro hujjat - Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda muayyan huquqlarni cheklash va ularni amalga oshirish chegaralarini belgilashga ruxsat beriladi: bu, xususan, erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligiga tegishlidir (12-modda), din yoki e'tiqod erkinligi (18-modda), o'z fikrini erkin tanlash huquqi (19-modda). Paktga ko'ra, ushbu huquqlarni cheklash qat'iy cheklangan maqsadlarda, jumladan, milliy xavfsizlikni, jamoat tartibini, jamoat salomatligi yoki axloqini, boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun ruxsat etiladi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt matnida fuqarolar hayotini saqlab qolish uchun maxsus choralar ko'rishni nazarda tutuvchi, standart cheklovlardan tashqariga chiqadigan va favqulodda vaziyatlarda ruxsat etiladigan huquq va erkinliklarni cheklash bo'yicha bir qator maxsus qoidalar mavjud. Millatning mavjudligiga tahdid bilan tavsiflangan favqulodda holatda bo'lgan milliy davlatlar ushbu vaziyatning shoshilinchligi talab qiladigan darajada tegishli choralarni qo'llashlari mumkin. Eslatib o'tamiz, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qabul qilingan xalqaro me'yoriy hujjatlarga ko'ra, ommaviy epidemiya, yuqumli kasalliklar yoki pandemiya tarqalishi xavfi tug'ilganda aholini himoya qilish maqsadida fuqarolarning huquqlarini, shu jumladan erkin harakatlanish huquqlarini cheklashga yo'l qo'yiladi(JSST Bosh direktorining 03.11.2020 yildagi xabariga ko'ra, COVID-19 koronavirus infeksiyasining tarqalishi pandemiya sifatida tavsiflanishi mumkin).³⁴

³³Умарова А.А. Стандарты ограничений прав и свобод в актах современного международного права.

³⁴ Всеобщая декларация прав человека (принята Генеральной Ассамблеей ООН 10.12.1948) URL : https://www.Consultant.ru/document/cons_doc_LAW_120805

Ayni paytda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida koronavirus pandemiyasi tarqalishi bilan bog‘liq holda fuqarolarning huquq va erkinliklariga turli cheklovlar joriy etilgan. Bunday vaziyatda aksariyat davlatlarda fuqarolarning harakatlanish erkinligi va yig‘ilishlar erkinligini cheklovchi, an’anaviy saylov tartib-qoidalarini bekor qilish kabi favqulodda choralar ko‘rildi. Shu bilan birga ba’zi milliy parlamentlarda masofaviy ovoz berish ham joriy etilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi (IHYS) raisi Linos-Aleksander Sitsilianos baholashicha, koronavirus pandemiyasi munosabati bilan dunyoda joriy etilgan harakatlanish cheklovlari, umuman olganda, muammoga mutanosib va qonuniydir, ammo, inqiroz tugagandan so‘ng, ular albatta bekor qilinishi kerak.

Aytish joizki, ayni paytda ko‘plab yirik xalqaro arboblarning koronavirus pandemiyasi sharoitida fuqarolarning huquq va erkinliklari haddan tashqari cheklanishidan xavotir bildirmoqda. Masalan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Mishel Bachelet ushbu pandemiyaning inson huquqlari uchun salbiy oqibatlarini haqida gapirdi. Uning fikricha, milliy-davlatlar hukumatlari koronavirus tarqalishining oldini olish maqsadida fuqarolarning huquq va erkinliklariga muayyan cheklovlarni kiritish doirasida adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qilishlari kerak. M. Bachelet “ayrim mamlakatlarda cheksiz va oldindan aytib bo‘lmaydigan salbiy oqibatlar keltiruvchi favqulodda vakolatlarning qabul qilinishi” munosabati bilan o‘z xavotirini bildirdi. Bir qator hollarda, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarning ta’kidlashicha, “epidemiya oddiy qonunchilikdagi repressiv o‘zgarishlarni oqlash uchun ishlatiladi”.

Milliy yuridik sohaning ko‘plab vakillari ham O‘zbekistonda koronavirus pandemiyasi sharoitida mamlakat fuqarolarining huquq va erkinliklarini cheklashning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini oldini olish tarafdoridir. Koronavirus pandemiyasi va inson huquqlariga rioya qilish masalasidagi munozaralarda bildirilgan xulosaga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatda Koronavirusga qarshi kurashish tahdidi ostida kelib chiquvchi inson huquqlarining cheklanishi jarayoni kasallikka qarshi kurashda kerakli samara berishdan inson huquq

va erkinliklariga tahdid solish darajasigacha o‘zgarishi mumkin. Pandemiyaga qarshi kurashda yoki shunday kurash bahonasida inson huquq va erkinliklariga nisbatan quyidagi cheklovlar qo‘llanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin:

- mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni bekor qilish, odamlarning davlat chegaralari orqali harakatlanishini qisqartirish;
- turli ommaviy tadbirlarni, shu jumladan siyosiy tadbirlarni bekor qilish;
- karantin tadbirlari va o‘zini-o‘zi izolyatsiya qilish rejimini amalga oshirishda fuqarolarning harakatlanish erkinligini cheklash;
- harakatlarni nazorat qilish maqsadida fuqarolarning videokuzatuvini kuchaytirish, raqamli va boshqa ruxsatnomalarni joriy etish;
- sudlarning fuqarolarning kelishi uchun yopilishi, bu esa sud muhokamasining oshkoralik tamoyilining buzilishiga olib kelishi va hokazo.

Huquqshunos olim Husanovning ta’kidlashicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida belgilanishicha fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Demak ushbu moddaga muvofiq tarzda inson va fuqaroning huquq va erkinliklari faqat qonunlar bilan va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, jamoat tartibini, inson huquqlari va erkinliklarini, aholi salomatligi va ma’naviyatini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan darajada cheklanishi mumkin.³⁵

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida yaqin vaqtgacha favqulotda holat tushunchasi alohida qonun bilan tartibga solinmagan edi. Faqatgina 2021-yil 15-dekabrda Favqulotda holat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi hamda favqulotda holat tushunchasi mustahkamlandi. Ushbu qonunning 5-moddasida favqulodda holatni joriy etish hollari aniqlashtirilgan. Unga ko‘ra “Favqulodda holat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga va (yoki)

³⁵ O.T. Husanov- Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T. “Adolat”. 2013.

hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo‘llamasdan bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi”.³⁶

Qonunning 3-moddasida esa “favqulodda holat — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo‘l qo‘yadigan hamda ularning zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy mulkchilik shaklidan qat’iy nazar boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi” – deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan (176-son, 23.03.2020-y.) Koronavirusga qarshi kurash bo‘yicha Respublika Maxsus komissiyasi karantin yoki cheklovchi tadbirlarni kiritish bo‘yicha vakolatlarga ega bo‘ldi.³⁷

*“Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 393-son Qonunining 3 moddasiga ko‘ra **“karantin” yoki boshqacha aytganda “cheklovchi tadbirlar”** — yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan ma‘muriy, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlardir.*³⁸

³⁶ Favqulodda holat to‘g‘risidagi O‘RQ-737.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 176-son Qarori.

³⁸ Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi O‘RQ-393.

Yuqorida keltirilgan qonun normalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarning huquq va erkinliklariga kiritilgan bir qator cheklovlarni huquqiy asoslantirish mumkin.

